O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

J.M.QURBONOV
R.J. KURBANOVA

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASH VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Monografiya

Samarqand - 2020

J.M.Qurbonov, Kurbanova R.J. Umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish. Monografiya. – 2020.

Monografiyada servisning konseptual va metodologik aspektlari tahlili,umumiy ovqatlanish korxonalarning texnik texnologik modernizatsiyalash bilan samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan.SHu bilan birga Samarqand viloyati ovqatlanish korxonalari misolida ishlab chiqilgan, korxona moddiy texnika bazasining texnikaviy va texnikaviy iqtisodiy darajasini, yangi texnika ta’sirini aniqlash mexanizmi va metodlari, korxona samaradorligini oshirish metodik tavsiyalari keltirilgan.

Monografiya professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustakil izlanuvchilarga, hamda iktisodiyot soxasidagi raxbarlar va oliy malakali mutaxassislar va magistratura, bakalavriatura talabalariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar: “Tarmoqlar iqtisodiyoti» kafedrasi dotsenti SH.A.Sultonov
«Polot Plast servis» MCHJ directori A.Tolibov

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I BOB. SERVIS KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASH BILAN XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI……		11
1.1.	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish, servisning rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati.....	11
1.2	Servis korxonalarini modernizatsiyalashning paradigmal tahlili.....	24
1.3	Servis korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida xizmat, xizmat ko‘rsatish va servis ta’rifini takomillashtirish	37
	Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	50
II BOB. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASH VA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....		52
2.1	Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiya innovatsion holatini baholash	53
2.2	Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyalashning innovatsion jarayonlari tadqiqoti.....	66
2.3.	Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarining texnik-iqtisodiy darajasini aniqlash usuli va uning tahlili.....	80
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	94
III BOB. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA XIZMAT KO‘RSATISHNI MODERNIZATSIYALASH TADQIQOTI.....		96
3.1.	Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatishning tadqiqoti va olingan natijalar tahlili.....	96
3.2	Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlarini takomilashtirish.....	112
3.3	Umumiy ovqatlanish korxonalarida ko‘rsatiladigan xizmatlarni xodimlar mehnati sifati bilan baholash va hisoblash.....	122
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	133
	XULOSA VA TAKLIFLAR	134
	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	136
	ILOVALAR.....	141

Kirish.

Jahonda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko‘ra xizmat ko‘rsatish korxonalariga bo‘lgan talabning ortishi va bu sohaning samarali rivojlanishi uchun yangi yondashuvlarni, shakl va usullarni izlash va joriy etish servis korxonalarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu sohada Germaniya, YAponiya, Rossiya, Koreya Respublikasi servis korxonalarini modernizatsiyalash orqali mehnat, moddiy va xomashyo resurslaridan samarali foydalanishiga, hamda ularda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshishiga keskin ta’sir ko‘rsatgan. Servis korxonalarini yangi imkoniyatlarga va qiyinchiliklarga mos ravishda modernizatsiya qilish va ularda xizmat ko‘rsatishni yaxshilash orqali raqobatbardoshlikni oshishi bilan izohlanadi.

Jahon amaliyotida servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonda servis korxonalarini, avvalo barcha ishlarning maxsus texnologiya asosida tayyorlanishi, aloqa vositalarining rivojlanishi, xom ashyo va mahsulotlarni etkazish vositalarini, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik-texnologik yangilanishini ta’minlash va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. SHu jihatdan servis korxonalarini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda servis korxonalarida ko‘rsatilayotgan xizmatlar tadbirkorlikning muhim faoliyati hisoblanib, bu bilan ko‘pgina tashkilotlar va yakka tadbirkorlar shug‘ullanmokdalar. Servis korxonalarining rivojlantirilishi insonlarning turli xildagi ehtiyojlarini qondirish vazifasini bajaradi. Bunday vazifalarni bajarishda servis korxonalarini modernizatsiyalash alohida rol o‘ynaydi. Biroq ularning hammasi ham zamonaviy talabga mos kelmaydi. SHu bois ham “..ma’nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish,

texnologik jarayonlarni optimallashtirish" [1] ustuvor vazifa sifatida belgilandi. SHuning uchun ham servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish dolzarb hisoblanadi.

[1]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги —Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисидаги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон

1 BOB. SERVIS KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASH BILAN XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY MASALALARI

1.1.O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish, servisning rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olinganligi, barcha jabhalarda hozirga kelib, o‘zining to‘liq isbotini topganligini va O‘zbekistonda turli sohalarning rivojlanishi bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatishning takomillashib hayotga kirib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o‘z ishimizda doimo suyanamiz. Bu tamoyillar O‘zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni ta’minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi[2]” deb ta’kidladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoev. Istiqlolning 26 yillik davrida ulkan tarixiy o‘zgarishlar yuz berdiki, buning ko‘lamida O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal taraqqiyot sari dadil rivojlanib kelmoqda.

1993 yilda nashr etilgan «O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» nomli asarida O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi[3] :

- iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o‘ziga xos ichki qonunlariga muvofiq rivojlanishi;

- davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o‘zgartirishlarning tashabbuskori;

- qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo‘ysunishi;

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси

[3] Каримов И.А. «Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли» - Т.: Ўзбекистон. 1993 й.

- bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi;

- bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichma – bosqich va izchil ravishda o‘tish, islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Taraqqiyotning «O‘zbek modeli» bundan oldin yaratilgan va mavjud bo‘lgan (“Reygonomika” AQSH, “Tetcherizm” Angliya, «Marshal» rejasi, “Turk yo‘li “, “YApon mo‘‘jizasi”, “Erxard islohoti” Rossiyada «500 kunlik» dastur va h.k.) modellarning birontasini takrorlamagan holda o‘z mohiyati va mazmuni jihatdan butunlay yangi taraqqiyot modeli bo‘lib, hozirgi kunda halkimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham iqtisodiyot taraqqiyotining «O‘zbek modeli» deb qabul qilindi. CHunki, bu model boshqa taraqqiyot modellaridan farqli ham iqtisodiy, ham milliy qadriyatlarning tiklanishi va ijtimoiy model bo‘lib, xalqning o‘zligi va g‘ururini qayta tiklash, rivojlantirishi, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini tubdan yangilashga va mustaqillik g‘oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritishga da’vat etadi. Bir so‘z bilan aytganda, «O‘zbek modeli»da ming yillab xalkimiz istagi bo‘lgan, shu zaminda 3000 yil muqaddam yaratilgan «Avesto»dagi «ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal»[4] va xalqimizning muqaddas kitobi Qur’oni Karimning 11 ta surasida, 15 ta oyatida, hadislarning 20 tasida insonning insonga yaxshilik qilishiga da’vat etilgan insonparavarlik xususiyati singdirilgan. Mustaqillik davrida bajarilgan barcha islohotlarning iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»[5]. “O‘zbek modeli”ning aynan shu maqsadda yaratilganligini va hayotda o‘z tadbig‘ini topayotganligini biz xizmat ko‘rsatish va servis sohasining rivojlanishida ko‘rishimiz mumkin (1.1-jadvalga qarang).

[4] Махмудов Т. «Авесто хакида» .Т.: «Шарк» 2000 й , 63 бет.
[5] Каримов И.А.»Ўзбекистон иктисодий ислохотларни чукурлаштириш йулида»- Т.: «Ўзбекистон» 1995й, 119бет.

1.1- jadval

“O‘zbek modeli” va strategik tamoyillar asosida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish va servis sohasining rivojlanishi[6]

T/r	O‘zbek modelining tamoyillari	mohiyati	Xizmat ko‘rsatish, servis soha-sining rivojlanganligi natijasi
1.	Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish	Iqtisodiyotni siyosat-dan ustun qo‘yib, o‘ziga xos ichki qonunlariga muvofiq rivojlani-shiga qo‘yish	Sobiq ittifoq mafkurasidan: faqat ishlab chiqarishga tobe so-ha yoki faqat maishiy xizmat ko‘rsatish deyilishidan xoli bo‘ldi, erkin rivojlanishga o‘t-di, ko‘p ukladli iqtisodiyotga o‘t-di
2.	Davlat - bosh islohotchi	Davlat barcha iqti-sodiy o‘zgartirishlar-ning tashabbuskori bo‘lishiga erishishi	Xizmat ko‘rsatish, servis va ki-chik biznes sohasini aholi band-ligini ta’minlash va hayot dara-jasini oshirishning eng muhim omili sifatida rivojlantirish ustuvor vazifasi deb qabul qi-lindi.Muntazam ravishda Vazir-lar Mahkamasi, Prezident qa-rorlari bilan rivojlanish dav-lat miqyosiga ko‘tarildi.
3.	Qonun ustuvorligi	Qonun oldida hamma-ning barobarligi va hammaning qonunga bo‘ysinishini amalga oshirish	Mulkchilik Davlat tasarrufi-dan chiqarish va xususiylashti-rish,uy-joy fondini xususiy-lashtirish, xo‘jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, tash-qi iqtisodiy faoliyatni belgi-lovchi huquqiy normalar va h.z.larni qabul etilib, qonun ustu-vorligini, uning hammaga barobar ekanligi kafolatlandi.
4	Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish	Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha bos-qichida aholining muh-toj tabaqalarini hi-moyalash ustuvorligini ta’minlash	Qulay iqtisodiy, moliyaviy sha-roit yaratish,ish haqining muntazam ko‘tarib borish, soha kadrlarini bepul tayyorlash, inflyasiya darajasini pasaytirish, turli xildagi imtiyozlar yaratish, soliq yukini kamaytirish, muhtoj tabaqalarni ijtimoiy himoyalash tamoyiliga rioya etildi.
5.	Bozor	Islohotlarni inqilo-biy	1-bosqich: xizmat tizimini isloh

[6] Муаллиф томонидан шаклантирилган

	iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o‘tish	sakrashlarsiz amalga oshirish	qilish, mafkuradan xoli bo‘lishi, ko‘p ukladli iqtisodiyotga o‘tish 2-bosqich: xizmat ko‘rsatish, servis tizimini rivojlan-tirish uchun ijtimoiy iqti-sodiy sharoit yaratish 3- bosqich: mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga xizmat ko‘rsatish, servis tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish
6.	Zamonaviy strategik yo‘nalishlar	Tarkibiy o‘zgartirish-larni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diver-sifikatsiya qilish hiso-biga uning raqobatbar-doshligini oshirish	xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish

O‘zbekiston iqtisodiyotini, avvalambor, Sobiq Ittifoq mafkurasidan holi etib, keyingi rivojlanishida siyosatdan ustun qo‘yib o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishga qo‘yilishi sababli rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida allaqachonlar o‘z o‘rnini muvaffaqiyatli topgan xizmat ko‘rsatish va servis bizning iqtisodiyotimizga ham jadal sur’atlarda kirib kelmoqda.

Xizmat ko‘rsatish va servisning mustaqillik davridagi evolyusiyasini tahlil etgan holda quyidagi to‘rt asosiy rivojlanish bosqichlarga bo‘lishni tavsiya qilamiz:

I – bosqich (1991-1997y) Xizmat tizimini isloh qilish, erkinlik berish, ko‘p ukladli iqtisodiyotga o‘tish.

II – bosqich (1997-2006 y) Xizmat ko‘rsatish, servis tizimini rivojlantirish uchun huquqiy ijtimoiy iqtisodiy sharoit yaratish.

III– bosqich (2006 - 2017y) Mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivoj-lantirish istiqbollariga xizmat ko‘rsa-tish, servis tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy strategik

IV–bosqich (2017 yildan boshlab)	rivojlantirishda xizmat ko‘rsatish, servis tizimini beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi bo‘yicha modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan raqobatbardoshligini oshirish.

Sobiq Ittifoq Mafkurasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasi faqat ishlab chiqarishga tobe soha deb qaralardi va uning funksiyasiga navbatdagi mehnat bo‘linish fazasi bo‘lgan aholiga faqat maishiy xizmat ko‘rsatish infratuzimasini keltirib chiqarish qo‘yilgan edi. Xuddi shu vaqtda iqtisodiyotdagi sektorial bo‘linish ifodalanib: birinchi – qishlok xo‘jaligi, ikkinchi - sanoat, so‘ngra o‘z ichiga savdo, transport, bank ishlari, administratsiyani o‘z ichiga olgan.

“Xizmatlar” uchinchi sektorga ajratildiki, bunday holatda iqtisodiy modellarda uchinchi sektorning muhimligi e’tiborga olinmadi. SHuning uchun ham bu soha iqtisodiyotda ikkinchi darajali bo‘lib nafaqat rejalarda, hattoki statistik ma’lumotlarda xam alohida kiritilmas edi va uning ma’nosi izohli – lug‘atlarda «servis – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish» deb ko‘rsatildi[7]. Natijada xalqning turmush va faoliyat sharoitlari shu davrlarda boshqa rivojlangan davlatlarnikidan sezilarli darajada pasayib ketdi.

Iqtisodiyotning mafkuradan xoli etish va keyingi rivojlanishda erkinlik berish bilan xizmat ko‘rsatish, servis sohasi rivojlanib, ko‘plab servis korxonalari vujudga keltirildi. Iqtisodiyot nazariyasida esa «global servis kengligi», «dunyo va milliy iqtisodiyotning servisiza-siyasi», «xizmatlar yangi iqtisodiyoti», «servis tipidagi iqtisodiyot» va h.k.. tushunchalar kelib chiqa boshladi. Servis darajasi rivojlangan davlatlarda, xozirgi postindustrial jamiyatda servislashtirish «postindustrial jamiyat», «innovatsion turdagi jamiyat», «axborot jamiyati», «bilimlar jamiyati» kabi ilg‘or va istiqbolli jamiyat rivojlanishi sektori qatorida qaralyapti.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasining O‘zbekiston iqtisodiyotida rivojlanishida Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o‘zgarishlarning tashabbuskori

[7]Словарь иностранных слов.-16-е из.испра.-М.:Рус.яз.1988-461 бет

sifatida namoyon bo‘ldi va rivojlanish davrining dastlabki yillarida ko‘plab asosiy qonunlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Ushbu qonunlar jamiyatimizda xalq hokimiyati qonun ustuvorligi tamoyillarining qaror topishiga, shaxs erkinligi va huquqlarining himoya qilish bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatish, servis sohasining jadal sur’atlarda rivojlanishida bevosita va bilvosita xizmat qilyapti.

«O‘zbek modeli»ga asosan ushbu qonunlarning ustuvorligini, qonunning oldida hammaning barobarligi va qonunga bo‘ysunishga amal etish bilan O‘zbekiston iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlari va ko‘p ukladi iqtisodiyot shakllantirildi. Xo‘jaliklar (korxonalar) faoliyat yuritish tartibga solinib, korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatiga keng yo‘l ochib berildi.

Jumladan, Davlat iste’molchining huquqiy ustunligini hisobga olib iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng xuquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi kafolatlandi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ko‘p tarmoqlar qatori xizmat qiluvchi infratuzilma turlari shakllantirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan birgalikda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, mulkchilik xo‘jalik yuritishning yangi mexanizmini yaratishga doir qonunlar ham qabul qilindi. SHu bilan birga ayrim sohalar e’tiborsiz qoldirildi. Ular jumlasiga, savdo, umumiy ovqatlanish, matlubot kooperatsiyasi, mehmonxona xo‘jaligi, turizm, maishiy xizmat ko‘rsatish va h.k. kiradi.

Albatta, bunday xizmat qiluvchi infratuzilmaning shakllanishi «O‘zbek modeli» tamoyillarining bosqichma-bosqich bajarilganligi natijasi hisoblanadi.
Xizmat qiluvchi ushbu infratuzilma, albatta, yillar davomida bosqichma-bosqich rivojlanib, ularning yangidan-yangi shakllari paydo bo‘ldi. CHunki, ular endilikda erkin rivojlanish dunyo hamjihatligi, o‘zaro hamkorlik asosida rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotida sohalarning bosqichma-bosqich samarali rivojlanishini tarkibida xizmat ko‘rsatish va servis korxonalari mavjud

bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik misolida ko‘rishimiz mumkin. Ma’lumki, kichik biznes xususiy tadbirkorlik o‘zining mohiyati bilan iste’mol tovarlari va xizmatlari bilan boyitishda, hamda daromad va foyda olishga qaratilgan faoliyatdir.Bu yangi ish o‘rinlarini yaratish, ish bilan ta’minlab, aholini bandligini oshirish, aholi daromadining asosiy manbai bo‘lib iqtisodiy islohotlarni hal qiluvchi, strategik ahamiyatga ega va ustuvor yo‘nalishining biri hisoblanadi.

Davlatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan dastlabki bosqichida 1995 yil 5 yanvarda «Xususiy tadbirkorlikka tashabbus ko‘rsatish va uni rag‘batlantirish to‘g‘risida» Prezident qarori chiqarildi va korxonalarni Davlat taassarufidan chiqarishdan tushgan mablag‘ning 50% ni kichik biznesga yuborildi.

Keyingi bosqichda yana Davlat tashabbusi bilan uning iqtisodiyotimizda o‘z o‘rni va rolini oshirish, huquqiy normativ asoslari, zarur infratuzilmasini va taraqqiyoti shart-sharoitini yaratish uchun 1995 yil 21 dekabrda «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi qonuni chiqarildi. SHu bilan birga «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab – quvvatlash fondi (Biznes fond), «O‘zbekiston tovar ishlab chiqarish va tadbirkorlar palatasi (1996 y), ularning bo‘limlari hududlarda tashkil etildi. Faqat «Biznes fond” shu sohaga 10 mlrd so‘mdan ortiq yordam berdi.

SHunday kilib “O‘zbek modeli”da ko‘rsatilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o‘tish, davlatimizning bunda bosh isloxotchi va tashabbuskorligi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qisqa davrda izchil rivojlanib bordi. SHu bilan birga «Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish» to‘g‘risida Prezident farmoni va O‘R VM qarori qabul qilindi. «Ulgurji savdo» orqali 106 mlrd so‘mlik moddiy – texnika resurslari sotildi. Tijorat banklari fakat 2001 yilda kichik biznes sub’ektlariga 144,3 mlrd so‘m kredit berdi. Bu soha aholi bandligini ta’minlaydigan va uning asosiy daromad manbaining muhim manbai bo‘lib shakllandi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” taraqqiyoti ham , xizmat ko‘rsatish , servis sohasi xam, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik ham bosqichma-bosqich “O‘zbek modeli” tamoyillariga asosan olib borildi.

Albatta, mamlakat iqtisodiyotining mafkuradan xoli etilishi barcha sohalar qatori xizmat sohasi rivojlanishiga erkinlik berilishi ko‘p ukladli iqtisodiyotga o‘tilishi, boshlang‘ich davrda oson o‘tmadi. Ayniqsa, iqtisodiyotimiz tarkibidagi xizmat sohasiga kiruvchi umumiy ovqatlanish hamda savdo rivojlanishi tartibsiz ravishda bordi. Mustabid Sovet tizimidagi aholining dastlabki pul mablag‘ining kamligi, moddiy ahvolining tangligi, hayot darajasining pastligi, markazlashgan boshkaruvga o‘rganib qolganligi va h.k.. o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ayniqsa, katta quvvatli korxonalarning to‘liq ishlamasligi markazlashgan tashkilotlarning (savdo boshkarmasi, matlubot sadvo va h.k..) markazlashgan aloqalarining buzilishi natijasida va boshqalar dastlabki xizmat korxonalarining tartibsiz ravishda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Davlatlararo tovarlar almashinish aloqasining buzilishi, O‘zbekiston bozorlariga sifatsiz tovarlarning kirib kelishi, ishlab chiqarishda maydalashib ketish natijasida xizmat mahsulotlari qimmatlashib sifatsiz bo‘lib ketdi. Xuddi shunday, xizmat sohasiga malakali kadrlarning etishmasligi, ayniqsa, shaxsiy korxonalarda malakasiz ishchilarning kirib borishi natijasida xizmat ko‘rsatish sohasining madaniyati, etikasi va etiketi pasayib ketdi va bu korxonalar xalqaro talablarga javob bermay qoldi va h.k.. (xaqiqiy raqobat muhitining bo‘lmasligi, hisobga olinmagan iqtisodiyotning bo‘lishi, soliqlarning to‘lanmasligi va boshqalar).

Birinchi bosqichning ayni shu vaqtda davlatning sa’y harakati bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning birlamchi bo‘lib shakllanishi bilan: xizmat sohasidagi mulkiy munosabatlar o‘zgartirildi, ayniqsa, xizmat sohasi korxonalarning davlat taassarufidan chiqarilishi, xususiy mulkchilikning rivojlantirilishi, ayniqsa shu sohadagi davlat va kooperativ tizimlarning monopol faoliyatiga barxam berilishi; ma’muriy boshqaruv tizimini yangilash faoliyatida turli darajadagi aloqalari iqtisodiy mexanizmini o‘zgartirishi bilan bozor iqtisodiyotiga (ya’ni ma’muriy rejalashtirish o‘rniga iqtisodiy usullarning qo‘llanilishi, iqtisodiy erkinlik, mustaqil boshqaruv, mulkka egalik qilish, o‘z

resurslarini mustaqil qo‘llash va huquqiy iqtisodiy javobgarligi va h.k.) moslashtirilganligini va h.k.. ahvolni butkul o‘zgartirdi va mavjud tizim ijobiy holatga kela boshladi.

To‘rtinchi bosqichda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Hararkatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi[8].Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberllashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalishning tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish masalasiga e’tibor beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratishda investitsion siyosatni olib borishga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik -texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun ko‘p mablag‘lar jalb etilmoqda. SHiddatli raqobat muhiti sharoitida jahon mamlakatlari iqtisodiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar aynan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga tez fursatlarda yangi innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi va rivojlanishi, mehnat bozori, tovar va xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayishi, har bir faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub’ektidan ishlab chiqarishni tarkiban yangilash, modernizatsiya qilish, tarmoqlarda diversifikatsiyani to‘g‘ri

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги” ПФ 4947 сон Фармони//”Ҳалқ сўзи”,8 февраль 2017 йил.

amalga oshirgan holda ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir.

Ma’lumki, korxonalarning servislashtirilishi orqali aholini va tadbirkorlarning pul mablag‘larining va moliyaviy ahvollarining yuksalishini ta’minlash, ularga qulay shart sharoit yaratilishi ham, o‘z o‘rnida ijtimoiy-himoyalash hisoblanadi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish, servisning bosqichma-bosqich jadal sur’atlarda o‘sishini ko‘rib chiqar ekanmiz, rivojlanish bosqichlaridagi kamchiliklar yoki uning keyingi jadal sur’atlarda rivojlanishi uchun o‘z echimini kutib turuvchi muammolarni yoritib o‘tishimiz lozim deb hisoblaymiz. Ularga:

- sohaning huquqiy bazasini to‘la ta’minlash uchun: xizmat ko‘rsatish va servis to‘g‘risida qonun; savdo to‘g‘risidagi qonun; aholini va turistlarni ovkatlantirish to‘g‘risida qonun; xizmat ko‘rsatish kodeksi; korxonalarni servislashtirish talab-me’yorlari ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarur;

- xizmat ko‘rsatish va servisni rivojlantirishda ularning faoliyatida milliy qadriyatlarni singdirilishi, tiklanishi lozim (ayniqsa, mehmondorchilik, ma’naviy ahloq, odob, ma’rifat, muomalada mulozamat, hayo, andishalik, vazminlik, sabr-toqat, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, makon va ona yurtga e’tibor, elatlarga xos urf-odatlar, rasm-rusm, marosimlarni ko‘rsata bilish va h.k.).

- sohaning rivojlanishida raqobatbardoshlikni rivojlantirish, xizmatlar sifatini iste’molchi talabiga mos keltirish muammosini hal qilish hamda xizmat ko‘rsatish shakl va usullarini, xizmat ko‘rsatish, servis texnik-texnologiyasini taraqqiy ettirish bilan iste’molchilarning o‘sib borayotgan extiyojlarni qondirishga intilish lozim.

- sohani jaxon andozalariga mos ravishda rivojlantirish uchun yukori malakali bakalavrlar servis yo‘nalishini va magistratura mutaxassisligini tashkil etish, xuddi shuningdek ularga ilmiy kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish kerak.

1.2.Servis korxonalarini modernizatsiyalashning paradigmal tahlili

Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘plab korxonalar mavjudki, ular orqali iste’molchilarning turli ehtiyojlari qondirilib kelinmoqda. Bugunki kunda servis korxonalarining turli xildagi turlari bilan: ularga umumiy ovqatlanish, savdo korxonalari, mehmonxonalar va boshqa o‘zining turi, katta va kichikligi hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari bilan farq qilgan holda faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lsada. ularning hammasi ham hozirgi vaqt, an’anaviy me’yor qoidalariga javob beradi deb bo‘lmaydi. SHuning uchun ham ularda modernizatsiyalash ishlari amalga oshirish o‘ta muhim vazifa hisoblanadi.

Ma’lumki, modernizatsiya inglizcha “modern” so‘zdan olingan bo‘lib, ”zamonaviy”, “yangi” [9] degan ma’noni bildiradi. Modernizatsiyaning siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy ko‘rinishlari mavjud. SHuning uchun tadqiqotimizda xizmat ko‘rsatish korxonalari modernizatsiyasini umumiy ovkatlanish korxonalari misolida, aynan uning servislashtirilishi bilan uzviy nazariy asoslarini ko‘rib chiqsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Modernizatsiyalash bosqichida ishlab chiqarish sifati ishlab chiqarilayotgan mahsulotning texnik-iktisodiy darajasi, standartlashtirilganligi, me’yor hamda talablarga mosligi va h.k.. muhim hisoblanadi. SHuning uchun ham umumiy ovqatlanish korxonalarning modernizatsiyasi deganda, ob’ektni texnik-texnologik takomillashtirish, yaxshilash, yangilash orqali yuqori sifat talablari va me’yorlarini texnikaviy shartlariga moslash tushuniladi.

Xizmat ko‘rsatish, ayniqsa, servisga nisbatan iqtisodiyotimizda nisbatan yangicha qarashlarning shakllanayotganligi munosabati bilan uning ilmiy mohiyatini aniqlash, kelgusida shunday korxonalar faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida modernizatsiyalashning paradigmal nazariy tahlilini ko‘rib chiqamiz..

[9] https://ru.wikipedia.org/wiki/Модернизация

Umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyasi ularni takomillashtirish, yaxshilash, ob'ektini yangilash bilan hozirgi zamon talablari va me'yorlari, texnikaviy shart- sharoitlari, me'yor va sifat ko'rsatkichlariga mos keltirish ishlarini bajarish lozim. Amalga oshirilgan modernizatsiyasi bo'yicha bajarilgan ishlarning ijobiy bo'lganligini uning oxir oqibat samaradorligining oshgan yoki oshmaganligi bilan baholanadi.

Ma'lumki, har bir sohaning rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlari, yangi nazariyalarning kelib chiqish sharoitlari, umuman ma'lum sohada ilmiy tafakkur usulini radikal ravishda o'zgartiruvchi ilmiy fikrlar soha tarixida muntazam ravishda bo'lib turgan va oxir oqibat ma'lum sohaning to'liq shakllanishiga sabab bo'lgan. Xuddi shunday, boshqa shakllangan sohalar kabi hozirgi vaqtda servis sohasi o'zining evolyusion rivojlanish davrini bosib o'tmoqdaki, bunday vaqtda biz hozirda to'liq nazariy jihatdan o'rganilmagan servis nazariyasining o'rnida servis paradigmal nazariy tahlilini ko'rib chiqishimiz joizdir.

Xizmat ko'rsatish, servisning hozirgi vaqtda uning nazariyasi: paradigma (bu ilmiy birlashmalarga ma'lum vaqt davomida muammolarni qo'yish modeli va echimini beruvchi hamma tomondan tan olingan ilmiy yutuqlar tushuniladi[10]) holatida bo'lib, ya'ni hozirgi izlanish vazifalarini echish uchun ko'pchilik tomonidan qabul qilingan nazariya darajasidir. SHuning uchun ham paradigmal tahlilda sohani shakllantiruvchi fanlarda evolyusion rivojlanish bilan olib borilsa, izlanishlar samarali hisoblanadi. Barcha fanlar o'zining rivojlanishida kamida ikki bosqichda, ya'ni klassik-noklassik va postklassik usulologik paradigmial transformatsiyasidan o'tishi lozim[11]. Xizmat ko'rsatish, ayniqsa, servis yangi yo'nalish bo'lganligi uchun unda bunday bosqichli o'tish aralashsimon bo'lmoqda. Unda uch usulologik platforma ham sinxron ravishda rivojlanib bormoqda. SHuning uchun ham hozirgi vaqtda uning umumiy darajadagi ilmiy me'yori, ta'rifi tushunchasi to'liq shakllantirilmagan. Bunga sabab servis paradigmasi xosil bo'lish usulologik asosining yo'qligi, servis fanining

[10] Кун Т.Структура научных революций М.: Прогресс 1975 г 287с.(перевод с английского)
[11] Философия социальных и гуманитарных наук / под.редак. А.С.Лебедева М.:2006 г 276с.


institutsiyalanmaganligi, yangi fan bazali ob'ekti haqidagi bilimlarning kamligi va bu bilimlarning adekvat emasligi hisoblanadi [12] .Agar biz ilmiy izlanish usulologiyasini zamonaviy tizimli tahlil prinsiplari bo'yicha ko'rib chiqsak, unda ular: ontologik, aksiologik, gnoseologik va praksiologik bosqichlardan tarkib topgan strukturaga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin [13] (1.1-rasmga qarang). Bunday strukturaning asosini deduktiv muammoli mantiqli tahlil yordamida qo'yilgan qiymatli-maqsadli, ya'ni ko'p bosqichli muammolar identifikatsiyasidan «atomlashgan» echimlar konseptlariga o'tish talab etiladi. [14] Ushbu muammoli dekompozitsiyani bajarish prinsipining tizimli moduli quyidagicha bo'lishi mumkin: maqsad – (integratsiyalashgan vazifa) - muammo (to'siq) – sabab (omil)-echim konsepti.

Servis omili deganda (sabab, holati) ko'riladigan hodisa, jarayon, holati (maqsaddan kelib chiqib) sharoit, holat sababi tushuniladi. SHunday qilib servis sohasi fanining etuk darajada bo'lishligi yuqorida keltirilgan bosqichlar davomida shakllanishi va turli faoliyat darajasidagi muammolarni echish konsepsiyasiga, ya'ni turli innovatsion tushunchaga ega bo'lishi talab etiladi. Uning to'laligi umumiy darajadagi kategoriyaga ega bo'lishligi bilan belgilanadi. Ammo, hozirgi vaqtda ko'pgina mualliflarning ta'kidlashicha servis fanining ta'rifiy ifodalanishida umumiy birlik sezilarli darajada emas va shu bilan birga uning umumiy ilmiy me'yori ham to'laligicha aniqlanmagan.

Har qanday soha fanning to'laqonli fan bo'lganligini quyida keltirilgan paradigmativ yondashuv talablariga javob berishligi bilan aniqlanadi.[15] Bularga: fan yozuvining xususiy darajali apparatining mavjudligi, emperik va nazariy darajaning tizimli birligi, konseptual umumiyligi, xususiy usulikasining mavjudligi, fanning vaqt-vaqti bilan ketma–ketlikda almashib turuvchi tarixiy g'oyalari sifatida bo'lishi, mantiqiy birligi va isbotlanishuvini, me'yoriy darajada

[12] А.А.Федулин, Н.А.Платонов и др Концептуальные и усулологические аспекты формирование сервисологии –науки синергийного типа. М.:Собрание 2008г 247 стр.
[13] Румянцева Е.Е. Новая экономическая энциклопедия. – М.: 2006 г.320с.
[14] Сулакмин С.С. Системная усулология проектирование государственно – управленческих решений. – М.: 2006 г.
[15] Джафари Д.Феноменология туризма /Теория и практика физической культуры /2000г №8.23-26 стр.

(bunda qonuniyatlarni, tartiblarni aniqlash mumkin) bo‘lishi, maxsus izlanish ob’ektiga ega bo‘lishi, verifikatsiya, falsifikatsiya, nazariy geterogenlik (turli izlanish konsepsiyasi va yo‘llariga ega bo‘lish) xususiyatlarining bo‘lishi, prognostik funksiyasi va nazariyadan amaliyotga o‘tishdagi amaliy moslashuvchanligi kiradi.



1.1 – rasm. Ilmiy izlanishda tizimli tahlilni usulologik tuzilmasi.

Ushbu talablardan kelib chiqib, servisning xususiyatida sinergetik (umumiylik) tabiati borligi tasdiqlanilyaptiki, ularni kelgusi izlanishlarda har tomonlama oshirish lozim bo‘ladi. Hozirda esa amerikalik olim J.Jafari ko‘rsatganidek, nisbatan yangi yo‘nalish, lekin servisdan ancha vaqt oldin rivojlangan turistik (turisologiya) izlanishlarga yondashib, uning usulologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. CHunki, servis va turizm bir – biriga yaqin sohalar bo‘lib hisoblanadi.

Servisning rivojlanish bosqichlaridagi transformatsiyasi shuni ko‘rsatadiki, uning evolyusion tarixida, ayniqsa oxirgi vaqtlarda «servis» definitsiyasini[16]* ochib, uni me’yorlashtirishga intilishlar mavjud. Xuddi shunday turizmning hozirgi vaqtda 13 dan ko‘p ta’rifi borki, servisda ham shunday rivojlanish bormoqdaki,

[16]лат. Definitto қандайдир тушунчанинг қисқача (асосий хусусиятларини ўз ичига олган ҳолатида) илмий таърифи

asosiy munozara bu «servis» va «xizmat» tushunchalarining identifikatsiyasi borasida bo‘lmoqda.

Turizm va servisning rivojlanish tarixini xronologik ko‘rib chiqilganda ham, hech vaqt bu tushunchalarning to‘xtab qolmaganligiga, doimo o‘zgarib, rivojlanib borganligiga amin bo‘lamiz.

Ingliz tarixchisi R.M.Xartuelning ta’kidlashicha, dastavval sanoat korxonalari ishlab chiqarishning rivojlanishi uzluksiz maishiy xizmat ko‘rsatish tizimini talab etdi va dastlabki industrial jamiyatda xizmat ko‘rsatish (servis) ishlab chiqarishga tobe’ soha deb o‘sha davrlarda qaraldi. Uning funksiyasiga navbatdagi mehnat taqsimoti fazasi bo‘lgan aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini shakllantirish qo‘yidi. Bu ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi iqtisodiyotida o‘zini rivojlanishini topdi. Xuddi shu vaqtda, iqtisodiyot nazariyasi tarixida sektorial bo‘linishda ifodalanib boshlandi. Unga: birinchi – qishloq xo‘jaligi, ikkinchi – sanoat, so‘ngra o‘z ichiga savdo, transport, bank ishlari, administratsiyani o‘z ichiga olgan «xizmat» uchinchi sektorga ajratildi. Lekin bunday holatda iqtisodiy modellarda uchinchi sektorining muhimli-gini e’tiborga olinmadi.[17]

Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o‘tishda ayniqsa, g‘arbdagi iqtisodiyotda yuqori ish haqi siyosati natijasida, xalqning sotib olish qobiliyatini keskin oshishi xizmat sohasining ahamiyatini oshirib yuboradi. Natijada «global servis kengligi», «dunyo va milliy iqtisodiyotning servisizatsiyasi» «xizmatlar yangi iqtisodiyoti», «servis tipidagi iqtisodiyot» va h.k.. tushunchalar kelib chiqdi.[18]

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibiy evolyusiyasi shuni ko‘rsatyaptiki, bugungi kunda g‘arb davlatlarida xizmatlar sohasi o‘rtacha YAIMning 62-74 foizligini, mehnatga layoqatli fuqarolarning o‘rtacha 63- 75 foizlarini qamrab olganda va hozirgi postindustrial jamiyatda servis-lashtirish «postindustrial jamiyat», «innovatsion turdagi jamiyat», «axborot jamiyati»,

[17] Бродель Ф. Время мира М,:1992 г Т3 45 стр.
[18]Аттали Ж.Избранное. На пороге нового тысячелетия. М.: Международные отношения, 1993. М.: ИНФРА-М, 2001. 35 стр.

«bilimlar jamiyati» kabi ilg‘or va istiqbolli jamiyat rivojlanishi sektori qatorida qaralyapti.

Xizmatlarning paradigmal nazariy tahlili ko‘pgina tushunchasi-ning nomoddiylik tavsifini asosiy ko‘rsatkich deb qarab, moddiy tovardan farqlash kerakligini ko‘rsatmoqda. Biroq ko‘pgina hollarda xizmat natija-sida moddiy ne’mat yaratiladi (masalan: uy –joy qurilishi, kiyim tikish, mebel ta’mirlash va xokazolar). Bularda xizmat moddiy ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashadi.

Xizmatning asosiy xususiyatiga bajaruvchidan ajralmas ekanligi, saqlanmasligi, iste’mol vaqti bilan ishlab chiqarish vaqtining albatta to‘g‘ri kelishi, sifatning doimiy emasligi, mulkiy huquqni berolmasligi va h.k. xususiyatlarini ham xizmatning yoki servisning asosiy ko‘rsatkichi deb bilish nomuvofiq hisoblanadi. Hozirgacha, eng ko‘p tarqalgan xizmatning paradigmal tahlili 1.2-jadvalda keltirilgan. Jadvalda xizmatning asosiy xususiyatlari bo‘yicha guruhlanishida ham xizmatning eng ko‘p turlari nomoddiy ekanligi ko‘rinib turibdi.Xizmatning kundan kun murakkablashib, zamonaviy servisga o‘tishini, uning sinergetik xususiyatga ega ekanligini, nafaqat bir, balki bir necha xususiyatli ekanligini hozirgi vaqtda olimlar tomonidan to‘liq anglanilmayapti.

L.Berrining ta’kidlashicha, oxirgi yillar izlanishlari asosan xizmatni baholashga va kim qanday usulikani qo‘llashiga bag‘ishlanyapti.[19]

1.2-jadval

Xizmatning paradigmal nazariy tahlili[20]

Konsepsiya mualliflari	CHiqgan davri	Paradigmalar elementi va konsepsiyalar mualliflarining bahosi	Asosiy xususiyatlari
D.Sey	1964	Ishlab chiqarish va iste’molini bir vaqtda bo‘lish konsepsiyasini taklif etib, birinchi bo‘lib bu terminni qo‘lladi	Nomoddiy

[19] Berry Leonardo Servis Marketing Self Portraits:Jutrospeetion, Reflection and Glimpses from the Experts. Chicago:AMA, 2000y.

[20] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси

L.SHostak	1977	Tovarlar va xizmatlarni xuddi molekulalardan tarkib topgan diskret elementlarning birlashishidan kelib chiqqanligini taklif etdi. Elementlar moddiy va nomoddiy bo‘lishi mumkin.Birgalikda moddiy va nomoddiy yadro xosil qilishi mumkin.	
D.Beytson		Nomoddiy fizikaviy (qo‘l tekizib bo‘lmas) va mentalli (tafakkur bilan etishish bo‘lmas) nomoddiyga ajratdi	
G.Mak-Dugall D.Snetsin-ger		Mahsulotni sotib olgunga qadar vizuallan-tirib, yorqin va aniq obrazini konstruksiya-lab, mental nomoddiy darajasi sifatida tushunchasini aniqlashtirdilar	
P.Xill	1999	Xizmatning nomoddiyligini narsa yoki moddiy emasligini ta’kidlashni tanqid qildi, chunki ularning qanchalik ilmiy emasligi va shunchalik farqli umumqabul qilinganligi	
V.Saytaml A.Parasurama L.Berri	1990	Xizmat sifatining besh parametrlaridan biri bo‘lgan «Material guvoxnomasini» (imoratning tashqi ko‘rinishi, jihozi, kompaniya xodimlari, reklama materiallarini rasmiylashtirish) xizmat material tarkibiy sifatida qarashni taklif etishdi	
K.Lavlok E.Gamesson	2004	Barcha xizmatlar uchun «nomoddiylik» tavsifini «hayratli darajada aniq bo‘lmagan» va universalligini yoritolmaydigan layoqatsiz deb biladi.	
K.Lavlok E.Gamesson	2004	Xizmat sohasidagi mehnat natijasini material uzatuvchilarda saqlab qolish mumkinligini (audio va videouzatuvchilarga o‘rgatuvchi dasturlarning yozilishi) ta’kidlaydi	Saqlanmas
K.Lavlok E.Gamesson	2004	Ushbu tavsif (bo‘linmaslik) quyidagi: yuk ta-shish, tozalash va yig‘ishtirish, ta’mirlash xizmatlari va h.k..larga xizmatlarga tarqalmaydi (to‘g‘ri kelmaydi)	Bo‘linmas
P.Ele E.Lanjar	1975	Agar mijozlar xizmat ishlab chiqarish jarayoniga faol ishtirok etilgan bo‘lsalar, uning (xizmatning) sifatini nazorat qilish qiyinlashishini belgilashdi	Bir xil bo‘lmagan (variabelli)
E.Sasser P.Olsen D.Uaykof	1978	Xar bir xizmat ko‘rsatganda bir xil natija olish qiyinligini, chunki xizmat ko‘rsatuvchilarning o‘zini tutishi va mehnatining samarasi har xilligi, xuddi shunday bir xodimning turli mijozlar bilan turli vaqtda bo‘lishini ko‘rsatib berdi.	
Desmet B.VanLooy R.VanDierdonk	1998	Xizmatlar variabelligini tasdiqlovchi tashqi shartlarini (ob-havo, navbatning bщlishi, bo‘lmasligi, xizmat ko‘rsatish joylarining farqi bo‘lishini) ajratishdi.	

SHulardan kelib chiqib, K.Lavlok va E.Gamesson xizmat paradigmalarining izlanishida quyidagi alternativ variantlarni taklif etdi:

- xizmat va tovar bo‘linishidan voz kechishni;
- barcha xizmatlarni umumiy me’yor ostida qarashdan voz kechib xizmat turlarini alohida izlanishini tashkil etishni;
- xizmatning tovardan farq qilgan asosda yangi tavsifini izlashni.

Albatta, bunday taklif zamon talablaridan kelib chiqgan holda xizmatning ko‘pgina sohalarini yanada rivojlantirishni, uning globallik xususiyatlarini keltirib chiqarishdan iborat edi. O‘tgan asr 90 yillaridagi “Internet va CALS – texnologiyasi”ning, ayniqsa, marketing xizmatining tobora hayotga chuqurlashib kirib borishi, yuqoridagi fikrning haqli ravishda qo‘yilganligini tasdiqlaydi.

K.Lavlok va E.Gamesson takliflarni tahlil etib, I.V.Xristoforova (T.Levitning «Biz hammamiz xizmat sferasida ishlaymiz»[21] yoki R.Norrisning «xizmat ko‘rsatish uchun tovarlar kerak bo‘ladi»[22] degan fikrlariga asoslanib, xizmatning maxsusligini e’tirof etish, uning ommaviylik paradigmasini oshiradi deb ko‘rsatdi. Xuddi shuningdek, izlanishda xizmatning yangi tavsifini, uning nazariy asoslarini hamda usullarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etishni ham ta’kidlaydi.

K.Lavlok va E.Gamesson ilmiy izlanishidan shu ma’lum bo‘ldiki, xizmatning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etishgan: 1. Tovarlarni ijara qilishga bog‘liq (eng avval prokat va lizing) xizmatlar. 2. Joy, maydon ijarasiga bog‘liq (binolar, transport, restoran, kinoteatr va h.k) xizmatlar. 3.Mehnat va tajriba ijarasi bilan bog‘liq (yig‘ish xizmatidan to tibbiyotgacha) xizmatlar. 4.Ob’ekt, inshootlar qurish bilan bog‘liq (muzeylar, kosmetik salonlar, xordiq chiqarish maskanlari va h.k) xizmatlar. 5.Turli tarmoqlarga bog‘liq (telekommunikatsiya, bank strukturasi, sug‘urta va ixtisoslashgan axborot) xizmatlar.

Xizmatlarni bunday tasniflanishida ayrim guruhlarning bir biriga o‘xshashligi, bir-biriga o‘tishini, hatto almashishishni sartarosh xizmatida ko‘rsatib

[21] Leoit Theodore / Productoon Line Approach to Service// Harward Business Revieve. 50. 1979 e.
[22]Norsis Ruby T/ The Theory of Consumers Demand. New Haven ct/ Yale Uninversity Press.1941 y

berishdi. Bunga binoan: sartarosh xizmat ko‘rsatishda maxsus jihozlarni qo‘llash bilan birinchi; joyni ijaraga olganligi, mijoz o‘tirish o‘rindig‘i bilan qo‘shilib; ikkinchi: ma’lum tajribaga ega ekanligini, uchinchi; sartaroshxona inshootiga kirish mumkinligini, to‘rtinchi sartaroshlar tarmoq tuzilmasiga kirishi bilan beshinchi guruhga ham kiritish mumkin. SHu bilan birga, ijara shaklidagi xizmat, xizmat ko‘rsatish sohasining bazali paradigmasi bo‘lolmasligi, bo‘lganda ham o‘zining xuquqiy va moliyaviy parametrlariga ega bo‘lgan ijara tushunchasini o‘zgartirib yuborishi ham mumkin. Umuman olganda bunday mulohaza ham universal emasligini tushunish qiyin emas.

Oxirgi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar haqli ravishda xizmatning-jarayon ekanligini ta’kidlab kelmoqda. Xizmat jarayonida ma’lum ketma- ketlikda harakatlar yoki operatsiyalarning bajarilishi «…xizmat ko‘rsatish jarayonlar ssenariyasi» ekanligi «xizmatlar teatridagi servis jarayonlarda mijozlar bilan aloqada bo‘lish»[23], «…xizmat - harakatni bildiradi»[24] deb ko‘rsatilyapti.

Jumladan, D.Rotiel modelida: xizmat ishlab chiqaruvchi va iste’molchi orasidagi o‘zaro harakat jarayoni deb, P.Englis va E.Lanpard modelida: xizmat iste’molchiga ko‘rinuvchi va ko‘rinmas bo‘lishi va ko‘rinuvchi qismi esa eng muhimi bo‘lib aloqada bo‘lishi, personal tomonidan xizmat ko‘rsatish jarayoni ekanligini; Skandinaviya modelida esa interfaol marketing iste’molchi va xizmat personali o‘rtasidagi o‘zaro munosabat jarayoni deb; K.Lavlok modelida o‘zaro marketingdagi ishlab chiqish va realizatsiya etish samarali texnologik jarayon ekanligi ko‘rsatilgan.

YUqorida keltirilgan xar bir modelda xizmatning nomoddiylik paradigmasiga to‘g‘ri kelishi va xizmat ko‘rsatish jarayonini hal qiluvchi element sifatida qaralishini ko‘rsatadi. Faqat G.L.SHostak modelida[25] xizmat tushunchasini moddiy tovar va qo‘shimcha servis jarayoni bog‘liqligida ifodalaydi. Uning

[23]Лавлок К. Маркетинг услуг: Персонал, технологии, стратегии пер.с анг. 4-е изд. М.: Издательский дом «Вильямс» 2005 г .

[24]Лавлок К. Маркетинг услуг: Персонал, технологии, стратегии пер.с анг. 4-е изд. М.: Издательский дом «Вильямс» 2005 г .

[25] Аванесова Г.А. Сервисная деятельность:Историческая и современная практика, предпринимательство менежмент. Учебное рпособие – М.: АО Издательство, Аспект Пресс 2004 -318 стр Шостак Г.Л, Как выраваться из границ маркетинга товаров / Маркетинг услуг . 2006 г.

konsepsiyasiga asosan I.V.Xristoforova, A.A.Fedulin servis paradigmasida xizmat bu uni ko‘rsatish vaqtida iste’mol qilinuvchi va alohida buyurtma asosida tovar ishlab chiqarishga yo‘naltiruvchi jarayon ekanligini ko‘rsatib beradi. Bunga asosan oxirgi mahsulot asosiy xizmat ko‘rsatish, qo‘shimcha servis va tovarlar kompleksidagi ko‘rinishida ifodalanadi.

Ko‘rib chiqilgan paradigmal tahlildan xulosa qilishdan oldin shuni aytish kerakki, oxirgi 10 yilda yurtimiz olimlari tomonidan ham bu yo‘nalish bo‘yicha ko‘pgina ishlar bajarilgan.Bu ishlarda ham asosan “xizmat” va “servis” tushunchalariga izohlar berilib turli fikrlar bildirilgan. Masalan: xizmatning “jarayon” hamda “ongli faoliyat” [26] ,“Xizmat deyilganda insonning, mehnat jamoasining, hududning, davlatning va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiriladigan ongli ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan faoliyati tushuniladi”[27], deb; “xizmat iborasi birovning ishini bajarish, yaxshilik qilish, yaxshilik va h.z.[28] bildirsa, uning “ne’mat” [29] ekanligi ta’kidlansa, xizmat ko‘rsatishni esa “xizmat ko‘rsatish sohasi aholining sog‘lig‘iga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi xodimlarning mehnat unumdorligiga, o‘z hayotidan rozilik darajasi va xursandliligiga, umuman ishlab chiqarish kuchlarining hayoti va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan soha” [30] ,”insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sub’ektlarida yuzaga keladigan, o‘z iste’mol ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan va daromad olishga qaratilgan xarakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat”[31] deb turli ko‘rinishda tushuncha va ta’riflar berilgan bo‘lsa, servisni esa “servis – servis (aholiga xizmat ko‘rsatish, xizmat)”[32],“servis” inglizcha “service”

[26]Шодмонов Ш.,Жўраев Т.Иқтисодиёт назарияси.Маърузалар матни.Дарслик Т.:2000йил,272бет.,8б.
[27]Очилов И.С.”Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадлрликни ошириш йўллари”Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати 2010 й 9бет.
[28] Ўзбек тилининг изоҳли луғати .Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти 2008,тўртинчи жилд 606 бет.,395 396 бет
[29]Пардаев М.Қ.,Мусаев Х.Н.Хизмат кўрсатиш,сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш:муаммолар ва уларнинг ечимлари.”Иқтисод молия”2008 йил,254бет
[30]Муҳаммедов М.М.”Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш устивор масала. ”Servis Ilmiy ommobop jurnal №1, 2009й, 53 б.
[31] Мирзаев Қ.Ж.”Агросервис хизматлари самарадорлигини оширишнинг усулологик асослар”Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.2012й.272б.49бет
[32]Русча ўзбекча луғат.2 том Т.:ЎСЭ Бош редакцияси.1984.410 б.

so‘zidan olingan bo‘lib, “aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish”[33], ing. tilida “service” xizmat, kundalik turmushning xilma xil sohalarida magazin, mehmonxona, sartaroshxona, yonilg‘i quyish shaxobchalari va sh.k.da aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish va shunday xizmatning o‘zi”[34]va “insonlarning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan ma’lum sertifikat va andozalarga ega, sifat jihatidan yuqori bo‘lgan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyat”[35], “xizmatlarning murakkab mehnat jarayonidan iborat bo‘lgan,yuqori malakali ishchilarni talab qiladigan ayrim turlarini mujassamlashtirilgan sohadir”[36], ”zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish soha va sub’eklarida insonlarning yuzaga keladigan iste’mol talablarini ta’minlash maqsadida ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar majmuini ifodalovchi tushunchadir”[37] va h.k. deb tushuntiriladi. Albatta, biz bu erda turli shakllardagi, lekin “o‘zagi” yuqorida keltirilgan iboralardan tuzilgan tushunchalarni ko‘rdikki, aksariyat holatda bularda ham xizmat, xizmat ko‘rsatish, servisni tushuntirishda harakat, faoliyat, yaxshilik qilish, soha iboralari ko‘proq uchraydi. Ushbu tushunchalarda ularning har biriga alohida ta’riflar berilib, ammo ularning o‘zaro bog‘liqligi, bir biridan evolyusion holda kelib chiqishi ko‘rilmagan. Xuddi shuningdek, har bir tushuncha bu o‘z isbotini topgan yoki topishi kerak bo‘lgan inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga ta’sir o‘tkazib jamiyat va kishilarni harakatga chorlaydigan maqsad sari etaklaydigan tushunarli fikr [38] ekanligini unutmasligimiz lozim. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, biz doimo «xizmatning biror bir xususiyatini alohida o‘rganamiz yoki uning boshqa sub’ektlardan nima bilan farq qilishini qidiramiz va oxir oqibat turishini ifodalaymiz. Agar biz, K.Lavlok fikriga qo‘shilib, xizmat va

[33]Словарь иностраннқх слов. 16 е из.,испр. М.:Рус.яз.,1988.с.461

[34]Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.2008й, учунчи жилд 687б.,483б.

[35] Пардаев М.Қ.”Хизматларнинг ижтимоий иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари” Servis Ilmiy ommobop jurnal №1,2009й,39-40 б.

[36] Б.Абдукаримов., Т.С.Шарипов.,Ф.Абдукаримов.Хизматлар ва сервис соҳаларининг моҳияти, самарадорлигини ошириш ҳамда фаолиятини такомиллаштиришни илмий назарий ва амалий масалалари. ”Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаси:муаммолари ва ривожланиш истиқболлари”мавзусидаги респблика илмий амалий анжумани.(Самарқанд 2010 йил, 6 10 апрел,25б)

[37] Мирзаев Қ.Ж.”Агросервис хизматлари самарадорлигини оширишнинг усулологик асослар”Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.2012й.272б.50бет.

[38]Фалсафа.Қонуний луғат.Тошкент 2004й

tovarni bo‘lishdan voz kechib, xar bir xizmat turlarini alohida qarashni tashkil etish maqsadga muvofiq desakda, ammo xizmatlar umumiy bir me’yor ostida qarashdan voz kechishga qo‘shilolmaymiz. Xuddi shuningdek, xizmat, xizmat ko‘rsatish, servisning alohidaligini ko‘rsatib, shu bilan birga xizmatdan, xizmat ko‘rsatishga, undan servis va yana xizmatga o‘tish tizimini (1.4a-rasmga qarang) ta’kidlash ham mantiqiy fikrni tugatmaydi. Lekin ko‘pgina olimlar fikri xizmatni jarayon deb ta’kidlashlari, xizmat ta’rifini muammosini birmuncha to‘g‘ri hal qilishga yordam beradi.Agar biz insoniyat tarixida xizmat, xizmat ko‘rsatish, servisning evolyusion rivojlanish yo‘liga nazar tashlasak, xizmat va xizmat ko‘rsatish qadim-qadimdan (xizmatchi, qul, yordamchi, hammol va h.k..) ko‘p yillar davomida jamiyatda past mavqe’da qaralib, hozirgi vaqtga kelib sinergetik xususiyatga ega bo‘lgan hayotdagi muhim sohalardan biri bo‘lib hisoblanyapti.

1.3.Servis korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida xizmat, xizmat ko‘rsatish va serisni ta’rifini takomillashtirish

Ma’lumki, tushuncha narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko‘tarila borib, eski tushunchalarni mukammalashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iboratdir. Tushuncha taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish kabi mantikiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi. Tushuncha abstraksiyadan iboratdir, bu hol tushunchada voqelikdan uzoqlashgandek tuyulsada, haqiqatda esa tushuncha yordamida voqelikning muhim tomonlarini ajratib, tadqiq qilish yo‘li bilan chukurroq bilib olinadi. [39] .

Predmetlarini turkumlarini ajratish va bu predmetlarni umumlashtirish, jamiyat va tabiat qonunlarini bilishning zarur sharti bu ta’rif hisoblanadi. Har bir fanda muayyan ta’riflar bilan ish ko‘rilib, ularda bilimlar jamlanadi. Umuman,


[39] https://ru.wikipedia.org/wiki/Модернизация

boshlang‘ich tushunchalar asosida boshqa yangi shakl va tushuntirishlar haqida tushuntirib berish bu ta’rif deyiladi. [40]

SHulardan kelib chiqgan holda, biz **“**xizmat”, “xizmat ko‘rsatish” va “servis” tushunchalarini ta’rifini keltirib chiqaramiz. Buning uchun bu tushunchalarning kelib chiqishi va inson hayotiga evolyusion yo‘l bilan kirib kelganligi va. endilikga kelib (oxirgi 60 -70 yillar) uning yangi shakli servis paydo bo‘ldi va hozirgi vaqtda butun dunyo bo‘yicha rivojlanib bormoqda.

Lekin, olib borilgan paradigmal tahlildan qilingan xulosada bu tushunchalar xam alohida bo‘lishi, ham bir biriga: xizmatdan, xizmat ko‘rsatishga, undan servis va yana xizmatga o‘tish bog‘liqlik tizimida ekanligi ko‘rsatilgan edi (1.2 a - rasmga qarang) .

SHuning uchun ham, ularning evolyusion rivojlanganligini inobatga olib, bog‘liqlik tizimini: xizmat → xizmat ko‘rsatish ⟶servis deb qabul qilishimiz lozim (1.2 b - rasm).



1.2a,b - rasm . Xizmat, xizmat ko‘rsatish va servis tushunchalarining bir - biriga bog‘liq tizimi [41]

SHundan so‘ng xizmatni jarayon ekanligini, jarayonni esa harakat deb bilib, oddiy emas balki insoniyat jamiyatining rivojlanishiga ravnaq topishiga qaratilgan xarakat deb, xizmatning quyidagi yangi ta’rifini beramiz: xizmat – inson(lar)ning inson(lar)ga yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo‘lidagi harakatidir.

Berilgan ta’rifdan shu ko‘rinib turibdiki, xizmat – insoniyat jamiyatida bo‘ladigan maxsus harakatki, uning bajarilishida albatta falsafiy kategoriya hisoblangan insonning insonga yaxshilik qilishi xarakatida ezgulik niyati bo‘lishi

[40] https://ru.wikipedia.org/wiki/Таъриф

[41] Муаллиф томонидан тузилган

uchun, shu bilan birga xar ikkala tomonga ham manfaat keltirishni ta’minlashi zarur. YAxshilik, ezgulik insonning eng muhim fazilati bo‘lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi.

Xizmatga shunday paradigmal ta’rifni berishdan maqsad, xizmatga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, u asos bo‘ladigan barcha sohalarda jamiyatning ahlokiy yuksakligini, farovonligini, taraqqiyotga tezroq erishish yo‘lidagi xizmatda xushfe’llikni, shirinsuxanlikni, halollikni, bag‘rikenglik singari fazilatlarni singdirish, jamiyatda yaxshilikni , ezgulikni ustuvor bo‘lishini ta’minlash hisoblanadi.

Fikrimizning isboti uchun, oxirgi yillarda yurtimizda Prezidentimiz sa’y harakatlari bilan yurtimiz iqtisodiyotining Strategik rivojlanish dasturi bo‘yicha qilingan ishlarni: yuzlab Davlat xizmatlarining ochilishi, butun hududimiz bo‘yicha «Obod qishloq», «Obod mahalla» , minglab nogironlar va nochor qolganlarga, bepul uylar, turli yordamlar, foizsiz yoki foizli kreditlar, arzon uylar va boshqalar berilib kelinishi, albatta bu Prezidentimizning, xalkimizning yaxshilik ,ezgulik bilan qilgan harakatlari hisoblanadi.

Endi xizmatni jamiyatdagi insonlarning bir-biriga bo‘lgan turli xildagi xizmat munosabatini iqtisodiy namoyon bo‘lishini xizmat ko‘rsatish deb bilib, uning ta’rifini quyidagicha ifodalaymiz: xizmat ko‘rsatish bu – inson(lar)ning inson(lar)ga yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo‘lidagi harakati bilan faoliyat olib borishi tushuniladi. YA’ni, xizmat ko‘rsatishda, xizmat iqtisodiy faoliyat bilan birgalikda olib borilishi talab etilyapti.

Agar biz xizmat va xizmat ko‘rsatishni bir-biriga nisbatan ajratib turuvchi inson faoliyatni o‘z ichiga maqsad, vosita va natija olish uchun insonning tevarak-atrofga va o‘ziga bo‘lgan maxsus munosabati jarayoni (xarakati) desak, xizmat ko‘rsatishda faoliyat olib borishdan, albatta, har ikkala tomon manfaatdor bo‘lishi kerak: xizmat ko‘rsatuvchi daromad, foyda olish, iste’molchida esa xizmat sarf – xarajatni bajarib ko‘rsatilgan xizmatdan mamnun, rozi bo‘lish maqsadi turadi. Ushbu faoliyat turi xizmat ko‘rsatish korxonasi, uyushmasi, tashkiloti, firma va h.k.. sifatida tashkil etilishi hamda individual bo‘lishi ham mumkin.

Xizmat ko‘rsatish faoliyati o‘z ichiga xizmat vositalari, mahsulotlarni yaratish bo‘yicha izlanishlar va tadqiqotlarni, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash sifatini nazorat kilish, standartlash, ro‘yxatdan o‘tkazish, saqlash, axborot berish, sotish va boshqalarni qamrab oladi. O‘zida ham falsafiy tushuncha bo‘lgan xizmatning, iqtisodiy – ijtimoiy xususiyatli xizmat ko‘rsatishni qamrab olgan, zamonaviy talablarga javob beruvchi servisda yuqori malakada, zamonaviy vositalar yordamida komleks xizmat ko‘rsatish tushuniladi. Unda, uning ta’rifini quyidagicha keltiramiz**:** servis – inson(lar)ning inson(lar)ga yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo‘lidagi harakati bilan yuqori malakada zamonaviy vositalar yordamida kompleks (bir vaqtning o‘zida bir nechta xizmatlarni ko‘rsatish) faoliyat olib borishga aytiladi.

YUqorida ishlab chiqilgan ta’rifimizda xizmat ko‘rsatish bu inson(lar)ning inson(lar)ga yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo‘lidagi harakati bilan faoliyat olib borishni ta’kidlagan edik. Xizmat ko‘rsatishni modernizatsiya yo‘li bilan servislashtirilganda, aynan, servis- inson(lar)ning inson(lar)ga yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo‘lidagi harakati bilan yuqori malakada, zamonaviy vositalar yordamida ko‘rsatiladigan kompleks (bir vaqtning o‘zida bir necha xizmatlarni ko‘rsatish) faoliyat olib borishiga bergan ta’rifimiz to‘g‘riligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Taklif qilinayotgan servis ta’rifini mohiyatini va undan kelib chiqarilgan vazifalarni aniqlash uchun biz uni tarkibiy jihatdan quyidagi qismlarga bo‘lishimiz mumkin deb hisoblaymiz:

- inson(lar)ning yaxshilik, ezgulik yo‘lidagi harakati;
- manfaat keltirish yo‘lidagi harakati, ya’ni faoliyat olib borishi;
- yuqori malakada zamonaviy vositalar yordamida kompleks faoliyat olib borishi.

Demak, bulardan kelib chiqqan holda servis sohasidagi korxonalarning samaradorligini oshirish uchun:

- ijtimoiy- madaniy modernizatsiyalash;
- iqtisodiy modernizatsiyalash;

- intelektual va texnik - texnologik modernizatsiyalashni bajarish zaruriyati talab etiladi.

Servis sohasidagi korxonalarni ijtimoiy-madaniy modernizatsiyalashda, avvalambor ijtimoiy sharoit, ya'ni yurtimizda o'zining dinamik ijtimoiy tizimi bilan ochiq demokratik jamiyatning bo'lishi va unda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi, huquqiy tizimining, mulkchilik munosabatining, demokratik tizimning bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi.

Servisning madaniy modernizatsiyasida, korxonada insonlar munosabatida, ayniqsa, korxona personalini iste'molchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida milliy qadriyatlarimiz hisoblangan yaxshilik, ezgulik hislaridan kelib chiqgan faoliyat tushuniladi. SHuning uchun uning tarkibiy qismi bo'lmish kasbiy etika, etiket, estetika qoidalariga amal etish talab etiladi. Xizmat ko'rsatish, servis korxona faoliyatida ushbu ahloqiy qoidalar o'zaro munosabatlar, yozma huquqiy qoidalar, shartnomalar shaklida rasmiylashtirilishi talab qilinadi. Bunda boshqaruv, o'z-o'zini boshqaruv, ijtimoiy boshqaruv organlaridan foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Madaniy tizim asosiy elementlarini diferensiyasiyalash, o'qimishlilik va olijanoblik ta'limini tarqatish, zamonaviy fan va texnologiyalar yutuqlariga ishonchni rivojlantirish, munosabatda maxsus rollarni bajarish uchun murakkab, intellektual va institutsional tayyorlov tizimini barpo etish, keng ommaga mos yangi shaxsiy ichki imkoniyatlaridan foydalanishni, odatlarga va tavsiflarga moslashtirish; qiziqish doirasini kengaytirish, har bir shaxsning manfaatini rag'batlantirilishi ishonch hosil qilish, doimiy o'zgarib almashinib turuvchi muammo va talablarga mos keluvchi institutsional tarkibni rivojlantirish ishlarining bajarilishi lozim bo'ladi.

Iqtisodiy modernizatsiyalashda moddiy takror ishlab chiqarishni jadallashtirish ko'zda tutiladi. Bunda mehnat differensiyasiyasiga, ishlab chiqarish energetik jihozlariga, fanni ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va ishlab chiqarishning maqsadga muvofiq boshqaruvini amalga oshirish lozim bo'ladi. Uning asosiy inson kuchini energiya kuchiga (par, elektr, atom va h.z) aylantirish;

odatiy an’anaviy faoliyatdan iqtisodiy faoliyatni ajratish, mehnat qurollarini murakkab texnologiya va mashinalar bilan almashtirishni; iqtisodiyotda sanoat va savdo, xizmat sohalariga bo‘lgan munosabatni ham miqdoriy va ham sifat jihatdan o‘zgartirish; iqtisodda ixtisoslikni (ishlab chiqarish, iste’mol va taqsimlash) klasterlarini oshirish; industrlashtirishni rivojlantirish, ishlab chiqarishda tovar va pul muomalasi, mehnatga talab va majburiyati, milliy va transmilliy munosabatlarini rivojlantirish lozim bo‘ladi. SHuningdek, muntazam ravishda iqtisodiy boshqaruv usullari, ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirib borilishi talab etiladi. Fan va texnologiyalar yutuqlarini ishlab chiqarishda doimiy qo‘llab borilishi fanni ishlab chiqarish kuchiga aylantirishni talab etildi.

Modernizatsiya iqtisodiyotning asosiy tavsifi, bu innovatsion jarayonlarni jadallashtirish va uni iqtisodiy o‘sishning asosiy omillariga aylantirish hisoblanadi. Iqtisodiy modernizatsiyaning ob’ektiv va sub’ektiv omilllari mavjudki, ular modernizatsiya strategiyasini belgilaydi.

Iqtisodiy modernizatsiyaning ob’ektiv omiliga: oziq-ovqat mahsulotlarini maxsus texnologiyalarni qo‘llash asosida foyda olish va foydani o‘zlashtirish; baholash, talab va taklif, raqobatchilik kirsa, sub’ektiv omiliga esa davlatning innovatsion va pul kredit siyosati, raqobatchi korxonalar strategiyasi, iste’molchilarning ijtimoiy holati va x.z. kiradi. Albatta, ushbu ob’ektiv va sub’ektiv omillar o‘zaro koordinatsiyalashadi va bir biriga ta’sir etib umumiy innovatsion strategiyani belgilaydi.

Ta’riflarni yangilash bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar (xar qanday ko‘rinishda) ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. SHuning uchun ham yuqoridagilarning takomillashtirilganidan kelib chiqgan holda mavjud iqtisodiyotning aylanmali modelini va tasniflagich modelini o‘zgartirilgan holda bo‘lishini taqozo etadi:

1.” Oqimlar aylanmasi” iqtisodiy modelida.

Ma’lumki, har bir davlatning milliy daromadi yoki milliy mahsuloti undagi er, mehnat va kapital zahiralarini ishlab chiqarilayotgan barcha tovarlarning


yordamida so‘nggi pul masshtabida yakunlangan natijasi hisoblanadi. SHuning uchun ham milliy daromadning yoki mahsulotning hosil bo‘lish mexanizmini ko‘rsatishda, ko‘pincha iqtisodchilar (P.Samuelson, N. Menkyu, V.Leontev va boshqa) aynan shu oqimlar aylanmasi tariqasida ko‘rib, uni miqdoriy o‘lchash uchun taklif etishadi. Ushbu (iqtisodiy model bo‘yicha) P.Samuelson[42] milliy daromadning yoki mahsulotning ikki usulini, ya’ni birinchi tovarlar oqimi usuli bo‘yicha milliy daromadni bozor bahosida o‘lchashni va ikkinchi daromadlar oqimi usulida o‘lchashni ko‘rsatadi. Modelda ko‘rsatilgan ham tovarlar oqimi bo‘yicha model diagrammasi yuqori qismida ham daromadlar oqimi bo‘yicha model diagrammasi pastki qismida pul o‘lchamidagi natija bir xil bo‘lishi sharti ko‘rsatilgan, biroq bu modelda xizmatlar alohida ajratilmay, balki umumiy oqimda deb tushuniladi.

Xuddi shunday iqtisodiy modelni N.Menkyu [43] “oqimlar aylanma diagrammasi” deb ataydi va bunda iqtisodiyotning qanday tashkil etilganligini ko‘rsatuvchi bozor iqtisodiyotining iqtisodiy modeli deb ataydi. Oqimlar aylanmasi modelida ikki sub’ektlar uy ro‘zg‘or xo‘jaligi va firmalar o‘zaro munosabatining bozor orqali bajarilishini ko‘rsatdi. Iqtisodiy oqimlar aylanmasi diagrammasi shaklidagi bu iqtisodiy model umumiy iqtisodiy tashkiliy strukturasini bildiradi. Bunda barcha echimlarni ikki tipdagi sub’ektlar: uy-ro‘zg‘or xo‘jaligi va firmalar tashkil etish ko‘rsatilgan. Agar firmalar tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish, hamda ishlab chiqarish omillarini er, joy, jihozlar va boshqalarni jalb etib va foydalanish bilan shug‘ullansa, uy - ro‘zg‘or xo‘jaligi esa tovarlar va xizmatlarni sotib oladi va iste’mol qilishadi, shu bilan birga ishlab chiqarish omillariga egalik qilib,o‘zlarining xususiy mulklarini firmalarga sotishadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti statistik ma’lumotlarida faqat pulli xizmatlar hisoblanadi va ko‘rsatiladi. SHulardan kelib chiqgan holda aytib o‘tilgan P.Samuelson va N.Menkyu iqtisodiy aylanma modelini takomillashtirish kerak

[42] Samuelson P. A. (1958) An exact Consumption-Loan Model of Interest with or without the Social Contrivance of Money. Journal of Political Economy, 66 (6), pp. 467—482. (англ.)
[43]Н.Менькю “Принципы Экономикс” СПб: Питер Ком, 1999. — 784 с,

bo‘ladi. Buning uchun iqtisodiy aylanma modeliga bizningcha pulli xizmatlarni tovar va xizmatlar bozoriga kiritish kerak, bepul ko‘rsatiladigan xizmatlarni esa diagrammada bozordan chetlatib to‘g‘ridan - to‘g‘ri o‘tkazib ko‘rsatish zarur bo‘ladi.



1.4- rasm. Takomillashgan iqtisodiy oqimlar aylanmasi[44]

Xuddi shuningdek, oqimlar aylanma diagrammasidagi kvadrat burchaklariga talab va taklif qo‘yilsa maqsadga muvofiq iqtisodiy model

[44] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан шакллантирилган

diagrammasi yanada ahamiyatli va mantiqiy birlikga ega bo‘ladi. CHunki, bozor iqtisodiyotida yoki yo‘naltirilgan bozorda ham hatto bozor iqtisodiyoti davrida ham talab va taklif iqtisodiyotning bosh yurituvchisi hisoblanadi.Xuddi shuningdek, xizmatlar sohasi tovarlardan farqli turli ko‘rinishda bo‘lib, hatto bozor iqtisodiyotli jamiyatda ham bozorsiz xizmatlar mavjud bo‘ladi.

YUqorida taklif etilganlarni inobatga olgan xolda 1.4- rasmda N. Menkyuning iqtisodiyotda oqimlar aylanmasi diagrammasini talab va taklifni hamda xizmatlar sohasini pulli va pulsizligini inobatga olgan holdagi modeli taklif etildi.

Xalqimiz mentalitetida, urf odatidan va o‘zaro sharqoniy munosabatdan kelib chiqgan holda xizmatlar ezgulik, yaxshilik asosida bepul xizmatlar ko‘rsatiladi.

2.Xizmatlar sohasi xizmatlari tasniflagichi modelida**:**

Rivojlanish modellaridan kelib chiqgan hozirgi vaqtda O‘zbekistonda mavjud xizmatlar sohasi infratuzilmasi rivojlanishida ayrim nazariy-usulologik muammolarining mavjudligini ko‘ramiz. O‘zbekistonda xizmatlar sohasi (rasmiy sohalarda xizmat qiluvchi) infratuzilmasi asosan ishlab chiqarish, tovar va xom ashe bozori, moliya kredit munosabatlariga, aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va axborot informatsiya turlari guruhlariga bo‘linadi. Hozirda, O‘zbekistonda xizmatlar sohasi (xizmat qiluvchi) infratuzilma turlari amaliyotda, barcha me’yoriy hujjatlar, tuzilmalarda foydalanib kelinmoqda.

Xuddi shunday, xizmatlar sohasi asosini O‘zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tasniflagichi tashkil etadi. Lekin, ushbu tasniflagich va xizmat qiluvchi infratuzilma orasida nomutanosiblik mavjud. Bunda turli xildagi, ko‘p sonli xizmatlarni o‘rganish, ulardan samarali foydalanish va ularni rivojlantirish, yangilarini yaratish va boshqalarda, ularni tartibga solib tasniflash muhim hisoblanadi.

Ma’lumki, xizmatlar sohasida tasniflashning asosiy maqsadi, xizmatlarning umumiy alomatlarini aniqlash, ularni alohida sinflari, guruhlar va xillarga birlashtirish yo‘li bilan, umumiy nazariy nuqtai nazardan o‘rganishga

yo‘naltirishdir. Tasnifning asosiy shartlariga: sinflar, guruhlar va xillarning ma’nodosh bo‘lishi, barcha alomatlarni o‘z ichiga olishi va alomatlarning takrorlanmasligini ta’minlash kiradi.

Tasnifning bu shartlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, hozirgi vaqtda xizmatlar tasnifining umumiy tan olingan tasnifi mavjud emas. Mavjud tasniflagichlarda, jumladan 2006 yilda rasmiy nashr etilgan O‘zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning tasniflagichida[45] ham umumiy yondashish va ilmiy asoslashning sustligi namoyon bo‘layapti. CHunki, tasniflagich Evropa iqtisodiy jamiyati faoliyat turlari mahsulotlari statistik tasniflagichi asosida yaratilganki, unda tasniflagich tuzish asosiy usulologik prinsipi, bu xizmatlarning ishlab chiqarishdan kelib chiqishiga yondashilgan. Bunda 6 belgi darajasida mahsulot, 4 belgi daraja-sida iqtisodiy foliyat inobatga olingan. Keyingi 7chi, 8chi, 9chi belgilari keyingi tipi, xili va xil osti darajasidagi xizmatlar tasnifi bilan davom etadi [46] .Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tasniflagichi tuzilmasi identifikatsiyasi va nomlaridan ierarxik tizimi va ketma - ket xarflar va sonlar orqali kodlashdan foydalanishgan[47].Tasniflagichda jami 400 ga yaqin xizmatlar turlari: guruhlar seksiyada, seksiya osti, guruhlar, sinflar, razryadlar, razryad ostki, tiplar, xillar, xil osti darajada berilgan[48] .

Umuman olganda, ierarxik usul: yo‘nalish, guruhlar, guruh osti guruhlari, turi va turdoshlar tizimidan foydalanib 5ta mahsulot ishlab chiqarish va 12 ta xizmatlar, jami 17 ta yo‘nalish guruhlardan foydalanilgan. Ierarxik usulda tasniflashning boshqa davlatlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatdiki: AQSH va Kanadada 7 ta, Evropa davlatlarida 10 ta, Rossiyada 13 ta yo‘nalish guruhlardan tasniflagichlarda foydalanilgan.


Tasniflash usulologiyasi bo‘yicha olib borilgan xizmatlar sohasi tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, yaratilgan tasniflagichlar asosan amaliyot uchun, mahsulotlar va xizmatlarni kataloglari, me’yoriy hujjatlari uchun, statistik

[45] 2006 йил 12 май №0515 «Узстандарт» агентлиги.Ўзбекистон Республикаси фаолият турлари бўйича хизматларнинг таснифлагичи (ФТБХУТ) Ўз.ДТ 10:2006.
[46]Ўша жойда
[47]Ўша жойда
[48]Ўша жойда

ma’lumotlarni agregirlash, iqtisodiy statistik tahlil, tashkilotlar kunlik iqtisodiy amaliyotga mo‘ljallangan.

Tasniflashda uning kelib chiqishi yo‘nalish guruhining asosiy ko‘rsatkichi, ilmiy kelib chiqish mexanizmi bir butun talab va taklifdan, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar munosabatidan ekanligi ko‘rsatilmagan. SHuning uchun ularni tizimli mexanizmini o‘rganish, tushunish, pastki darajalarda xizmat turlarini qaysi guruhlarda bo‘lishini aniqlash va boshqalar murakkablashgan. Xizmatlar sohasi xizmatlar turlarining tasniflagichining yangi modelini tuzishdan oldin olib borilgan nazariy usulologik izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, barcha xizmatlar asosini uning bosh qatnashuvchilari, xizmatlar iste’molchilari va ularni ishlab chiqaruvchilari orasidagi munosabat tashkil etadi va bu munosabatlarni xarakatlantiruvchisi bo‘lib asosiy iqtisodiy ko‘ratkichlar farqi tashkil etadi. Adabiyotlarda keltirilgan fikrlardan kelib chiqgan holda, biz xizmatlar sohasi xizmatlar guruhlarining 1.3-rasmda keltirilgan tasniflagich modelini taklif etamiz. Ushbu tasniflagich modelida biz xizmat iste’molchisi (XI_1) va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilari (XI_2) o‘rtasidagi munosabatni ijtimoiy hodisa deb, bu munosabat har qanday xizmatlarning asosini tashkil etadi.Ushbu o‘zaro munosabatlarni rivojlantiruvchilari yoki harakatlantiruvchi omillariga: samaradorlik (ΔS), qoniqarlilik darajasi (ΔQ), davlat munosabati (ΔDM), ko‘ngil holati va texnik texnologik holat (ΔTTX) ko‘rsatkichlari farqi tashkil etadi. Aynan shu omillar asosida xizmatlar sohasi asosiy jarayonlarini farqlashimiz mumkin. Bularga: ishlab chiqarish, muomala (mahsulotlar realizatsiyasi), ixtisoslashgan, jamoaviy va ommaviy, ijtimoiy asosiy xizmatlar jarayonlari kiradi ular o‘z o‘rnida xizmat turlariga, xillariga va h.k..larga bo‘linadi.

Asosiy xizmat jarayonlaridan biri bo‘lgan ishlab chiqarish xizmatlarining harakatlantiruvchi omili ΔS, samaradorlik farqi ishlab chiqarishga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatib, shu bilan birga ishlab chiqarish xizmat turlarining harakatlantiruvchi omilini tashkil etadi. Xuddi shuningdek, ΔQ-qoniqarlilik darajasi bir tomondan xizmat iste’mol-chilariga va muomala xizmatlar guruhiga, ΔDM - davlat munosabatlari



1.4-rasm. Xizmatlar sohasi xizmatlari tasniflagichi modeli[49]

farqi ko‘rsatkichlari ham xizmat iste’molchisiga, ham xizmatlar ishlab chiqarishlariga ta’sir etib, ixtisoslashgan asosiy xizmatlar turlarini rivojlantiradi (yoki rivojlantirmaydi), ΔKX insonlarning ko‘ngil holati ko‘rsatkichi esa o‘z o‘rnida xizmatlar iste’molchilariga jamoaviy xizmatlar turlari bilan, ΔTTH-texnik-texnologik holatlarining farqi esa asosan ishlab chiqarish holatini belgilash bilan ommaviy (iste’mol) xizmatlar turlarining rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. O‘z o‘rnida xizmatlar harakat (rivojlanish) omillari barcha asosiy xizmatlar jarayoniga bilvosita (rasmda punktr chiziqlar) ta’sir etadi.

Ushbu modeldagi 5ta asosiy xizmat jarayonlarini hozirgi mavjud rasmiy O‘zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tasniflagichi tarkibidagi 7 ta asosiy xizmat jarayonlarini mutanosiblikda birlashtirilsa, ham nazariy, xam ilmiy- amaliy ahamityaga ega bo‘lgan bir butun tasniflagichga ega bo‘lar edik.


II BOB. SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARINI MODERNIZATSIYALASH VA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

[49] Муаллиф томонидан тузилган


2.1. Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiya innovatsion xolatini baholash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida ham, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Jumladan, mazkur Farmon asosida qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da - “Xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy, texnologik turlarini tubdan o‘zgartirish” lozimligi belgilab qo‘yilishi ushbu sohaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o‘rin tutadi. CHunki u tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materil sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikga egadir.



2.1.-diagramma. YAIMda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi, foizda[50]



2.1- chizma. 2017 yilda YAIMda alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar ulushi[51] .

YAlpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sohasi muhim va salmoqli o‘rin tutadi. Respublikada xizmat ko‘rsatish va servis sohasini isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi. Xizmatlar sohasining YAIMdagi ulushi 2000 yildagi 42,5 foizdan 2017 yilda 47,3 foizgacha oshdi. 2017 yilda YAIMda alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar ulushi boshqa turdagi xizmatlar - 26%; tashish va saqlash,axborotlashtirish va aloqa-11,2 %; savdo, yashash va ovqatlanish xizmatlari - 10,1 % egallaydi.

Modernizatsiya yo‘li bilan ishlab chiqarish kompleks va yuqori samaradorlik bilan yangilanadi. Bunda nafaqat mahsulotlarni ishlab chiqarish, balkim ishlab chiqarish texnika texnologiyasini, mehnat va boshqaruvini tashkillashtirishni, umuman barcha iqtisodiy munosabatlarni o‘zgartirish lozim bo‘ladi.

YUqorida keltirganimizdek, modernizatsiya ob’ekti sifatida umumiy ovqatlanish korxonasining texnik va texnologik darajasini oshirish iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va boshqaruv aspektlarini o‘z ichiga olish vazifasi qo‘yiladi.

[50]https://stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари
[51] https://stat.uz. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари

CHunki, korxona asosiy fondlarining yangilanishi uning kelgusi ishlarida turli xildagi texnika nosozligini, texnologiyani, jihozlar va mashinalarning eskirishini oldini olib, zamonaviyligini ta’minlaydi. SHu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash ham alohida o‘rin egallaydi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya, material va kapital sig‘imdorligini yuqoriligi, zamonaviy texnologiyani o‘zida mujassamlantirmaganligi mahsulotlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy islohotlarning birgina bozor institutlari samarali iqtisodiy rivojlanishni ta’minlab bera olmasligi ma’lum bo‘ldi va iqtisodiy aylanmaga “modernizatsiya”, “tarkibiy o‘zgarishlar”, ”milliy raqobatbardoshlik” tushunchalari kiritildi. Bunda modernizatsiya ko‘pgina mamlakatlarda milliy dastur sifatida qabul qilina boshladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda modernizatsiyalash kategoriyasiga turlicha iqtisodiy qarashlar berilgan.

V.Gelman iqtisodiyotni modernizatsiyalash deganda, dastlab, iqtisodiy o‘sish, turmush darajasini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar majmuasi[52] tushuniladi.

SHunday kelib chiqgan xolda, umumiy ovqatlanish korxonalarini faqatgina qabul qilinayotgan chora tadbirlar majmuasining o‘zi bilangina modernizatsiyalash ro‘y bermaydi, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri qaysi sohasiga kiritishni amalga oshirish lozimdir.

E.YAsin fikriga ko‘ra, iqtsodiy modernizatsiya “..barqaror rivojanish va rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashni ta’minlsh uchun davlat va undagi etakchi tarmoqlarning jahondagi raqobatbardoshligiga erishishdir[53]. Ushbu ta’rif modernizatsiyaning mohiyatini to‘laroq ochib beradi. Modernizatsiyalash orqali barqaror rivojlanishga erishiladi va real tarmoqlarda, jumladan, umumiy ovqatlanish korxonalarida iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqoriroq bo‘ladi.

---

[52] Гельман В. Авторитарная модернизация:каковы ее переспективы в России (Электроннқй ресурс).в.Гельман.ғ2008. http//www,eu.spb/ru

[53] Ясин Е.Г. Модернизация и общество. Докл. К VIII Междунар.науч.конф.Модернизация экономики и общественное развитие./Е.Г.Ясин;М.:ГУ ВШЭ,2007.стр.6

Servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy va amaliy tadqiqot ob’ekti sifatida faoliyati asosan xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan Samarkand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalari olindi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlaganidek, umumiy ovqatlanish korxonalarida asosan uch funksiya bajariladi: tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, uni tarqatish (taqsimlash, muomalaga chiqarish) va iste’molini tashkil etish. Ushbu funksiyalarning oxirgi ikkitasi: tarqatish va iste’molini tashkil etish xizmat faoliyatiga kiradi. Umumiy ovqatlanish korxonalari, shu bilan birgalikda insonlarning turli xildagi va ratsional ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish vazifasini ham bajaradiki, bunday xizmatlarni bajarishda korxonalarning texnikaviy ta’minlanganligi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Servis amaliyotida ikki tomonning o‘zaro munosabatda bo‘lishi talab etiladi. Bir tomondan turli xildagi malakali mehnat, biznes va boshqaruvning talabini bajarib, xizmat ko‘rsatish, xizmat mahsulotini ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan tuzilmasi turadi. Ikkinchi tomondan, o‘zlarining extiyojlarini va muhtojliklarini qondirishdan kelib chiqgan iste’molchilar talabi turadi. Bunda, xizmat ko‘rsatuvchilar yoki xizmat mahsuloti ishlab chiqaruvchilar iste’molchilarning iqtisodiy bo‘lmagan, o‘zlarining qiziqishlari, hissiyotlari va qadriyatlari, hohishlaridan kelib chiqib aniq talablari bilan yuzma-yuz turadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining samaradorligini oshirish undagi ishlab chiqarishni yangi innovatsion yutuqlar asosida jadallashtirish va iqtisodiyot tarkibini takomillashishiga bog‘liq bo‘ladi. Bunday vazifalarni bajarishda uning moddiy-texnikaviy bazasini rivojlantirish va mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini oshirish o‘ta muhim hisoblanadi.

Korxona iqtisodiyoti-ning rivojlanishi uning modernizatsiyalash holatiga bog‘liqligini yuqorida ko‘rib chiqdik. Rossiya ilmiy izlanish instituti tomonidan korxonalarni modernizatsiyalash uchun uning innovatsion faoliyatiga qarshilik ko‘rsatuvchi va ularning rivojlanishiga yordam beruvchi omillar aniqlangan. Unga ko‘ra: innovatsion faoliyatga to‘sqinlik etuvchi omillar va innovatsion faoliyatni

rivojlantiruvchi omillar ajratilgan. Ushbu omillarni takomillashtirgan shaklda 2.1 - jadvalda keltiramiz.

2.1. - jadvalda keltirilganlardan ko‘rinyaptiki, haqiqatan ham ular tarkibida asosiy o‘rinni iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, intellektual va texnik-texnologik va boshqalar o‘rin egallaydi.

Demak, umumiy ovqatlanish korxonasi tadbirkorlik faoliyati amaliyotida modernizatsiya innovatsiyaning tadbig‘ida, ularga qanday omillar qarshilik ko‘rsatishi va qaysilarini jadallashtirishimizni bilishimiz uchun ularni amaliyotda sinash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

SHuning uchun biz Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalarining modernizatsiya innovatsion holatini va unga ta’sir etuvchi omillarini aniqlashda asosiy e’tiborni iqtisodiy, ishlab chiqarish (texnik -texnologik) va boshqa omillarga qaratdik.

Samarqand viloyatida tanlab olingan 191ta umumiy ovqatlanish korxonalarining (restoran, oshxona, kafe va choyxonalar) innovatsion holatini aniqladik.

2.1- jadval

Korxonalarning innovatsion faoliyat (jarayon)ga ta’sir etuvchi asosiy omillar[54]

Omillar guruhi	Innovatsion faoliyatga to‘sqinlik etuvchi omillar	Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar
Iqtisodiy, texnikaviy	Innovatsion loyihalarni mo-liyalashtirishda mablag‘larning etishmasligi, moddiy va ilmiy texnika bazaning etishmasligi, joriy ishlab chiqarish bo‘yicha qiziqishlarning ustunligi, zahira quvvatlarining kamligi	moddiy –texnik va moliyaviy zahiralarning, zaruriy xujalik va ilmiy-texnik infratuzilmalarning borligi
Siyosiy, huquqiy	antimonopol, soliq, amorti-zatsiya, patent litsenziyalash qo-nunlari tomonidan cheklanish.	Innovatsion faoliyatni kengaytirish bo‘yicha qonun-larning chora tadbirlari (ayniqsa imtiyozlar), innova-siyaning davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi

[54] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

Ijtimoiy psixologik madaniy	Xodimlar statusini o‘z-gartirish, yangi ish izlashga majbur bo‘lish yangi ishni qayta rejalashtirish, faoliyat turini qayta dasturlash, ahloq normalari va shakllangan udumlarning buzili-shi mavhumlikdan qo‘rquv, omadsizlik uchun jazolanishdan qo‘rqish kabi oqibatlarga olib keluvchi o‘zgarishlarga qarshilik qilish	Innovatsion jarayon-larda qatnashuvchilarni ma’naviy rag‘batlantirish, umumiy tan olish, o‘z-o‘zini namoyon qilishda imkoniyatlar bilan ta’minlash. Mexnat jamoasida psixologik muhitni yaratish.
Tashqiliy-boshqaruv-li	Qisqa muddatda o‘z-o‘zini qoplashga yo‘naltirish, innovatsion faoliyat bo‘yicha qatnashchilarning qiziqishlari bilan moslashtirishning murakkabligi rejalashtirishda talabchanlik	Tashkiliy tuzilmaning egiluvchanligi, boshqarishda demokratik uslubga yondashish, gorizontal axborot oqimining ustuvorligi, o‘z o‘zini rejalashtirish, korrektirovkalarni o‘tkazish, avtonomiya, maqsadli ishchi guruhlarni shakllantirish

Innovatsion holatni aniqlashda biz so‘rov usulini qo‘lladik. Barcha korxonalarga (respondentlarga) korxona (tashkilot) modernizatsiyani amalga oshirish uchun innovatsion faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi omillar ko‘rsatilgan so‘rov anketasi berilib so‘rov o‘tkazildi. (1 ilova). So‘rov anketasida ko‘rsatilgan omillarning xar biriga respondentlar tomonidan to‘rt xil javobdan: asosiy, ahamiyatli; ahamiyatsiz; javob berishga qiynalaman degan javoblardan birini berdi.

So‘rov anketasida keltirilgan innovatsion baholashning bunday sifat baholash shkalasi universal xarakterga ega bo‘lib, so‘rovga qatnashgan barcha qatnashchilar qiynalmay javob berishi mumkin. SHu bilan birga korxona qaysi tashkilotga qarashli ekanligidan qat’iy nazar, bir xilda oson javob berish mumkin. So‘rov shkalasining to‘rt darajaligi javob beruvchining maksimum - yuqori darajalarni, minimum- pastki darajani qamrab oladi.

So‘rovga jami 17 omilni uch guruhga : iqtisodiy (6ta omil), ishlab chiqarish (6 ta omil) va boshqa turdagi (5 ta omil)lar kiritildi. Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalari innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik etuvchi omillar 2015 yili holati bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov natijalari

2.2-jadvalda keltirilgan.Jadvalda keltirilgan javoblar shuni ko‘rsatyaptiki, ko‘pchilik korxonalar iqtisodiy omillardan «o‘z mablag‘ining innovatsion faoliyatga etishmasligi» ko‘proq to‘sqinlik qiluvchi omil hisoblanmoqda.

So‘rov natijalarini tahlil etishda biz A.Gusev[55] taqdim etgan innovatsion faoliyatga qarshilik ko‘rsatayotgan omillar darajasidan salmoqlik koeffitsienti bilan ranjirovkalash usulini qo‘lladik. Buning uchun agar omil «asosiy» deb xarakterlansa, unga maksimal salmoqlilik koeffitsientini 1 ga teng deb olinadi, «ahamiyatli» deganda 0,6 koeffitsient, ya’ni 0,5dan katta bo‘lib maksimal 1 ga yaqin xisoblanadi.

Agar baholash «ahamiyatsiz» deyilsa, unga 0,2 koeffitsienti tenglashtiriladi. Oxirgisi «javob berishga qiynalaman» bahosiga 0 minimal koeffitsienti beriladi.

2.2.-jadval

Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonasini innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi omillar (2015 yil bo‘yicha)[56]

Omillar	Innovatsion faoliyatga to‘sqinlik etuvchi omillar baholash darajasi			
	asosiy	ahamiyatli	ahamiyatsiz	Javob berishga qiynalaman
Iqtisodiy				
O‘z mablag‘ining etishmasligi	106	34	18	33
Davlat tomonidan moliyaviy yordamning etishmasligi	50	38	22	81
YAngi mahsulotlarga to‘lov iste’molining kamligi	23	23	24	121
YAngi texnika kiritish yuqori qiymatligi	82	36	31	42
Iqtisodiy xavf-xatar yuqori	67	40	44	40

[55] Гусев А. Б. Формирование рейтингов инновационного развития регионов России и выработка рекомендаций по стимулированию инновационной активности субъектов РФ: монография/ А.Б.Гусев – М., 2008. – 88 С

[56] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган.

YAngilikning uzok muddatga koplanishi	40	28	20	103
Ishlab chiqarish (texnik texnologik)				
Tashkilotning past innovatsion faoliyati	40	60	70	21
Malakali kadrlarning etishmasligi	66	40	40	45
YAngi texnologiyalar bo‘yicha axborotning kamligi	98	25	28	40
Sotish bozori hakidagi informatsiyaning kamligi	93	34	29	35
Korxonaning yangilikni qabul qilish qiyinligi	69	22	80	20
Ilmiy tashkilot va boshqa korxonalar bilan aloqaning kamligi	60	83	20	28
Boshqa omillar				
Iste’molchining innovatsion mahsulotga talabining kamligi	50	80	20	41
Innovatsion faoliyatni qo‘llab quvvatlovchi normativ xujjatlar va qonunlarning etishmasligi	60	70	30	31
Innovatsion jarayon muddatining noaniqligi	40	60	80	11
Innovatsion infrastrukturaning rivojlanmaganligi	40	63	75	13
Texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligi	70	50	40	31

Har bir omilni baholash uchun omil qarshilik indeksi xisoblanadi. Indeksni xisoblash uchun quyidagi formuladan foydalandik:

$$I = \left[\sum_{i=1}^{n} (X_i \times Y_i) / \sum_{i=1}^{n} X_i \right] \times 100\%$$

Bu yerda: I – qarshilik indeksi; n-innovatsion faoliyatga berilgan baholash javobining soni (bizda n=4); i-javob variantining tartib nomeri; X_{i-} respondentlar soni (i variantga javob berganlar); Y-salmoqlik koeffitsienti (i-variantga javob) (Y=1,0; 0,6; 0,2; 0). SHunday qilib, I – indeksi 0 dan 100%gacha normallashtirilib, 100% maksimal qarshilik omili xisoblanadi. So‘rovda 17 omil qatnashganligi uchun biz o‘rtacha kiymatini topamiz.

Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarining innovatsion faoliyatiga qarshilik ko‘rsatuvchi omillarning baholanishidagi o‘rtacha qarshilik indeksi – I hisoblandi.(2.3 - jadvalga qarang).

2017 yilda bajarilgan so‘rov tadqiqotida ko‘pgina korxonalar qayta tashkil etilganligi natijasida birlashtirildi, ko‘plari o‘z faoliyatini tugatdi. Olib borilgan

«Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalari»ning innovatsion faoliyatiga qarshilik ko‘rsatuvchi omillar indeksini aniqlash bo‘yicha qilingan ilmiy-tadqiqot quyidagi xulosalarni berdi:

- qarshilik indekslarni ichida maksimal darajadagisi «korxona pul mablag‘ining etishmasligi» ($I_{o‘rt}$=68,08%).Undan so‘ng «yangilikni kiritish yuqori qiymatliligi» ($I_{o‘rt}$=59,9%), va «davlat tomonidan moliyaviy yordamning kamligi» ($I_{o‘rt}$=39,66%). Haqiqatdan xam, mablag‘ resursining etishmasligi korxonaning qo‘shimcha investitsiyalarga muhtojligini va ushbu hisob natijalari tasdiqlaydi;

2.3 - jadval

Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalari innovatsion faoliyatiga to‘sqinlik ko‘rsatuvchi omillar indeksini baholash[57].

№	Omillar	2015	2017	I-o‘rtacha
1	**Iqtisodiy**			
1.1	O‘zmablag‘ining etishmasligi	68,06	68,10	68,08
1.2	Davlat tomonidan moliyaviy yordamning etishmasligi	40,41	38,91	39,66
1.3	YAngi mahsulotlarga to‘lov iste’molining kamligi	21,78	31,17	26,47
1.4	YAngi texnika kiritish yuqori qiymatligi	57,06	62,88	59,97
1.5	YUqori iqtisodiy xavf-xatar	52,25	57,47	54,86
1.6	YAngilikning uzoq muddatga qoplanishi	31,83	29,54	30,68
2	**Ishlab chiqarish (texnologik)**			
2.1	Tashkilotning past innovatsion faoliyati	47,30	43,24	45,27
2.2	Malakali kadrlarning etishmasligi	51,37	55,85	53,61
2.3	YAngi texnika texnologiyalar bo‘yicha axborotning kamligi	62,09	72,61	67,35
2.4	Sotish bozori xakidagi informatsiyaning kamligi	62,40	73,15	67,77
2.5	Korxonaning yangilikni qabul qilish qiyinligi	51,41	56,03	53,72
2.6	Ilmiy tashkilot va boshqa korxonalar bilan aloqaning kamligi	59,58	52,07	55,82
3	**Boshqalar:**			
3.1	Iste’molchining innovatsion mahsulotga talabining kamligi	53,40	55,13	54,26

[57] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган.

3.2	Innovatsion faoliyatni qo‘llab quvvatlovchi normativ hujjatlar va qonunlarning etishmasligi	56,54	57,65	57,09
3.3	Innovatsion jarayon muddatining noaniqligi	48,16	38,55	43,35
3.4	Innovatsion infrastrukturaning rivoj-lanmaganligi	48,58	40,36	44,47
3.5	Texnologiyalar bozorining rivojlanmaganligi	56,54	53,15	54,84

Xuddi shunday o‘rtacha guruh omillar indekslari hisobi 2.4-jadval keltirilgan.

2.4 -jadval

2015-2017 yillarda innovatsion faoliyatga to‘sqinlik qiluvchi guruhlar omili[58]

Omillar guruxi	2015	2017	I- o‘rtachasi
Iqtisodiy	45,23	48,01	46,62
Ishlab chiqarish (texnik texnologik)	55,69	58,82	57,25
boshqalar	52,64	48,96	50,8
Jami indekslar	51,18	51,93	51,55
barcha javoblar, birlik	191	111	

- qarshilik indeksining minimal qiymati ($I_{o‘rt}$=53,72%). Bu ishlab chiqarish (texnologik) guruhidagi «korxonaning yangilashlarini qabul qilish qiyinligi hisoblanar ekan. Demak, bundan shuni aytish mumkinki, korxonalarning qariyib 46 % innovatsion yangilikka tayyor ekan deb hisoblash mumkin.

- qarshilik indeksining 1,2 va 3,2 omillari shuni ko‘rsatyaptiki 2015-2017 yillar davomida ko‘zga ko‘rinarli darajada davlat tomonidan moliyaviy yordam berilmaganligi, berilgani xam etarli darajada emas. Xuddi shuningdek, innovatsiyaning huquqiy boshqaruv faoliyati xam qonunlar bilan xam ta’minlanmaganligi etarli darajada emas;

[58] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган.

- xo‘jalik sub’ektlarining yangi texnika va texnologiyalar va bozorlar (2,3 va 2,4 omillar) to‘g‘risida kam informatsiyaga egaligi, korxonalarda zamonaviy telekommunikatsiyalarning talab darajasida emasligi, tadbirkorlik xatarining yuqoriligi (1,5 omillar) tovlamachilikning yuqoriligini ko‘rsatadi;

-korxonalarning innovatsion salohiyatining pastligi ($I_{o‘rt}$=45,27% 2,1 omil) va malakali xodimlarning etishmasligi ($Io‘_{rt}$=53,61% 2,2 omil).

- qarshilik indeksining 1,3; 1,4; 1,6 omillari bo‘yicha xo‘jalik sub’ektlarining tassavvurida hali xam innovatsion faoliyat katta tavakkalchilik qimmatli zarar keltiruvchi bo‘lib ko‘rinyapti;

Agar biz ekspert so‘rov o‘tkazilganligi bo‘yicha xulosa qiladigan bo‘lsak, unda quyidagilarni belgilash mumkin:

-korxonalar innovatsion faoliyati to‘g‘risida ekspert so‘rov davlat statistika boshqarmasi tizimi tomonidan muntazam ravishda olib borish kerak;

-so‘rov anketasidagi savollarning ko‘pligi, uning ishonchliligi va samarasini pasaytiradi;

-mutaxassislarning so‘rov anketasi savollariga javob berishda so‘rov madaniyatining pastligi, e’tiborsizlik bilan qarash va bu sohadagi bilimning etishmasligi seziladi;

-so‘rovda omillar sonini keskin kamaytirib, bir vaqtning o‘zida xam qarshi omillar xam korxonada olib borilgan (yoki olib borilayotgan) innovatsiya bo‘yicha omillarini xam keltirish va so‘rovga asosan mutaxassislarni jalb etish lozim bo‘ladi.

Samarqand viloyat umumiy ovqatlanish korxonalari innovatsion faoliyati holatini izlanishida biz korxona innovatsiya faoliyatiga qarshilik ko‘rsatuvchi omillar bo‘yicha umumiy ovqatlanish korxonalari bo‘yicha so‘rov o‘tkazilib, qarshilik indeksini hisobladik. Jumladan, «Obi Rahmat» MCHJ «YUlduz» restorani bo‘yicha xam o‘tkazildi. Lekin, o‘tkazilgan so‘rov natijalarini va o‘tkazish jarayonida tahlildan namoyon bo‘lgan kamchiliklarni e’tiborga olgan holda, biz 2017 yilda «Obi Rahmat» MCHJ «YUlduz» restorani bo‘yicha qayta so‘rov o‘tkazdik. So‘rov o‘tkazish uchun maxsus 10 kishidan iborat so‘rov


komissiyasi tashkil etildi. So‘rov anketasiga bir vaqtda innovatsion qarshilik omillari bilan innovatsiyani rivojlantiruvchi omillar xam keltirildi. Innovatsion qarshilik omillari 17 dan 6 tagacha kamaytirildi va yana 6 ta rivojlantiruvchi omillar berildi. Bunda, iqtisodiy ta’sir etuvchi omillarga:

- o‘z mablag‘ining etishmasligi, yuqori iqtisodiy xavf-xatar;
- sotuv bozorlari haqidagi axboroning etishmasligi;
- texnik texnologik omillarga: yangi texnika texnologiyalar haqidagi axborotning etishmasligi, yangi tovarga talabning va malakali kadrlarning etishmasligi inobatga olindi.

Xuddi shuningdek, olingan natijalar bo‘yicha innovatsion rivojlanishning ko‘rsatkichlarining sifat tahlili o‘tkazildi va iqtisodiy rivojlantiruvchi omillarga:


- O‘zbekistonda yangi sotish bozorlarini yaratish;
- standart buyicha ta’minlanganlik holati;
- texnik texnologik omillar: mehnat sharoitini yaxshilash, mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot assortimentini kengaytirish;
- intellektual madaniy omillardan: malakali kadrlarni ko‘paytirish kiritildi.

Bunda ikki guruh innovatsiyaga qarshilik ko‘rsatuvchi va korxona innovatsion faoliyatini rivojlanish omillarini baholash bajarildi. Baholashda biz integrallashgan 4 – ballik reyting baholash usulini: 3-ko‘rsatkichning eng yuqori darajasi; 2-o‘rtacha; 1-ahamiyatsiz; 0-ta’sir darajasining yo‘qligini qo‘lladik. Bunday usulni qo‘llash ko‘rsatkichlar nisbiy tahlilida aniq ko‘rsatkichlarni olishga yordam beradi.



2.1 - rasm.Korxonaning modernizatsiya innovatsion faoliyatiga to‘sqinik ko‘rsatuvchi omillar reytingi[59]

Xuddi shunday korxonaning 2015-2017 yildagi innovatsion faoliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ta’siri reytingi o‘tkazilib, natijalari 2.2 - rasmda keltirilgan.



2.2 - Korxona innovatsion faoliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar reytingi[60].

Korxona innovatsion faoliyatiga qarshilik ko‘rsatuvchi omillar reyting balli baholash natijasi 2.2.- rasmda keltirilgan. Baholangan omillar ichida korxona yangi texnikalar haqidagi axborotlarnin etishmasligi (reyting 2,9) va yangi mahsulotga bo‘lgan talabning pastligi (reyting 1,5) nisbatan baholandi.

Olib borilgan innovatsion holat tadqiqoti, innovatsion faoliyatining rivojlanishiga qarshilik etuvchi va unga ta’sir etuvchi omillar reytingi shuni ko‘rsatdiki, korxonalarning modernizatsiyasida uning texnik-iqtisodiy darajasi, ya’ni qanchalik texnika-texnologiyasining samarali, yangi ekanligi alohida o‘rin egallaydi.

2.2. Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyalashning innovatsion jarayonlari tadqiqoti

[59]Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган.
[60] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган.

Samarqand viloyatida umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiya innovatsiya xolati urganilganda, shu ma’lum bo‘ldiki tadqiqotni chuqurlashtirish maqsadida undagi aniq korxonalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. Bunda korxonalardagi asosiy fondlardan foydalanish, korxonalardagi mehnat unumdorligining dinamik holati va korxonalar rivojlanishining istiqbollari tadqiqotlari muhim o‘isoblanadi. SHuning uchun biz, ushbu tadqiqotlarni Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalaridan “YUlduz “ restorani misolida olib bordik.

“YUlduz” restoranining asosiy fondlaridan foydalanish samaradorligining tahlili tadqiqoti olib borildi va olingan natijalar 2.5-jadvalda keltirildi. Ushbu jadval ma’lumotlarining tahlilidan umumiy ovqatlanish korxonasining asosiy fondlaridan foydalanish samaradorligi, ya’ni fond bilan qurollanganligi va fond ta’minotining pasayib ketganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki moddiy - texnika baza o‘z ichiga barcha asosiy fondlarni va bir qism aylanma fondlarni o‘z ichiga oladi. Korxona asosiy fondlari uning moddiy-texnika bazasining bir qismi bo‘lib, ularning muntazam ravishda eskirishi bilan o‘z qiymatining bir qismini tayyor mahsulotga o‘tkazadi. SHuning uchun ularga bir xil hisob me’yorlari beriladi. SHunday qilib, korxona asosiy fondi uning ishlab chiqarishning asosi bo‘lib, ishlab.

2.5. jadval

“YUlduz” restoranining asosiy fondlaridan foydalanish samaradorligining tahlili

(ming so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	2015y	2017y	Farqi	2015y 2007y %
1	YAlpi tovar aylanishi	12142	44542	+32400	366,8
2	CHakana tovar aylanishi	10582	44212	+33630	417,8
3	O‘z ishlab chiqargan mahsuloti bo‘yicha aylanma	1023	3214	+2191	314,1
4	Foyda	1010	930	+829	920,7
5	Asosiy fondlarning o‘rtacha qiymati	31245	45678	+1443	146,2
5.1	Faol qismi	3360	4242	+146,1	126,2
6	O‘rin miqdori	200	250	+50	12,5
7	O‘rtacha ro‘yxat,kishi	46	98	+52	213,0

7.1	Savdo ishlab chiqarish personallari	28	62	+34	221,4
8	Asosiy fondlarning fond qaytimi	0,38	0,97	+0,59	255,2
9	Asosiy fondlarning faol qismining fond qaytimi	0,30	0,75	+0,45	250
10	Asosiy fondlarning fond sig‘imi	2,57	1,02	-1,55	39,6
11	Asosiy fondlarning faol qismining salmoqligi	3,28	1,32	-1,96	40,2
12	Asosiy fondlarning faol qismining salmoqligi	0,10	0,09	-0,01	90
13	Asosiy fondlarning foydalanish samaradorligi koeffitsienti	0,003	0,020	+0,017	666,6
14	Bir o‘rindan olingan foyda	0,50	3,72	+3,22	744
15	Bir o‘rinda chakana tovar aylanmasi	52,91	176,8	+123,8	334,1
16	Bir o‘rinda ishlab chiqarish mahsuloti bo‘yicha aylanmasi	5,11	12,85	+7,74	251,4
17	O‘rinlar soni hisobda: bir ishchi uchun	4,34	2,55	-1,79	58,7
	Bir savdo ishlab chiqarish uchun	7,14	4,03	-3,11	56,4
18	Asosiy fondlarning samaradorligining integral ko‘rsatkichi	0,001	0,02	+0,02	2000
19	Fond qurollanganligi	679,2	466,1	-213,1	68,62
20	Fond ta’minoti	120	68,42	-51,58	57,01

chiqarish mehnat vositalari, kulinar mahsulotlar realizatsiyasi va iste’molini tashkil etish kompleksini tashkil etadi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining asosiy fondini, uning binosi, inshootlari, mashina va jihozlari, transport vositalari, instrumentlari, ishlab chiqarish inventari va boshqa mehnat vositalaridan tarkib topadi.

Tadqiqot ob’ekti hisoblangan “YUlduz” restoranining moddiy- texnika bazasining asosiy fondi 2-ilovada 2015 yildagi holati keltirilgan.

Korxona o‘zining maxsus xususiyatlaridan kelib chiqgan holda uning asosiy fondining bir qismi (mashinalari, jihozlari va asboblari) undagi ishlab chiqarishdagi ovqatlar, yarim tayyor mahsulotlari, xom ashyo va boshqalarning qayta ishlovi uchun qo‘llanilsa, qolganlari uning realizatsiyasi va iste’molini tashkil etish uchun foydalaniladi.

Agar birinchisida, yangi iste’mol qiymati va qiymatlar yaratilsa, ikkinchisida asosiy fondlar iste’mol etish sharoitini yaratishga ham sababli bo‘ladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarining o‘ziga xos xususiyati uning asosiy fondlarning qo‘llanilishi bilan chegaralanmaydi. Ularning ayrimlari ishlab chiqarish jarayonlarida ham, realizatsiyada va iste’molini tashkil etishda ham qo‘llanilsa, ayrimlari faqat bir funksional jarayon operatsiyalariga qatnashadi. Masalan, bino va inshootlar xom- ashyoning kelishidan, tayyor mahsulot realizatsiyasigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda qo‘llaniladi. Lekin sovitish jihozlari faqat ishlab chiqarish va reali-zatsiyada, mexanik jihozlar esa faqat ishlab chiqarish jarayonida qo‘lla-niladi. V.I. Kuznetsov tomonidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi bo‘yicha[61] umumiy ovqatlanish korxonalari asosiy fondining qariyb 55% ishlab chiqarishni, 35% iste’molni va 10% mahsulot realizatsiyasini tashkil etishini ta’minlashi aniqlangan. Xuddi shunday hisob “YUlduz” restorani bo‘yicha olib borilganda ham ishlab chiqarish 59%, iste’molga 32% va 9% realizatsiyada foydalanilganligi ma’lum bo‘ldi.

Umumiy ovqatlanish korxonasining asosiy fondlarini “YUlduz” restorani tahlil qilar ekanmiz, ularning ishlab chiqarish jarayonida mahsulot realizatsiyasida va mahsulotlar iste’molini tashkil etishdagi funksiyalariga qarab aktiv va passivga bo‘linishini ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy ovqatlanish korxonasining aktiv asosiy fondlar tarkibiga: jihozlar, mashinalar, apparatlar, transport vositalari, ishlab chiqarish inventari va instrumentlari, hisoblash mashinalari va mehnat vositalari kiradi, ular korxonaning texnikaviy qurollanganligini tashkil etadi. Bu fondlar o‘zlarining xususiyati bilan korxona mahsulot ishlab chiqarish va undagi mehnat unumdorligining o‘sishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etadi.

Korxonaning passiv asosiy fondi tarkibiga uning binosi, inshooti va shu kabilar kiradiki, ular mahsulot ishlab chiqarishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etmasalarda, lekin uning ishlab chiqarishda, kulinar mahsulotining realizatsiyasida va mahsulotlar iste’molini tashkil etishda qatnashadi.

“Obi-Rahmat” MCHJga qarashli “YUlduz” restoranining asosiy fondlar ro‘yxati 2017 yil holatida, ya’ni 2015-2017 yillarda o‘tkazilgan

[61]Кузнецов В.И. Основные фонди общественного питания и их воспроизводства – М.,МИНХ 1975. Стр 6

modernizatsiyalashdan keyingi holatida “Obi-Rahmat” MCHJ asosiy fondlarining umumiy balans qiymati 1,022 milliard so‘m bo‘lsa, shundan “YUlduz” restorani 891107257 so‘mni tashkil etdi.

Ushbu holatni o‘zgartirish uchun korxonani modernizatsiyalash lozim buladi. Modernizatsiyalash birinchi navbatda korxonaning innovatsion faoliyatiga boglik xisoblanadi. CHunki uning natijasida olinadigan ishlab chiqarish mahsuloti (xizmat), uning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ma’lumki, “innovatsiya” (ingl.innovation yangilik kiritish, novatorlik) deganda modernizatsiyaning bosh omili yangi jarayon, mahsulot yoki xizmatning “yangiligiga berilgan investitsiya” natijasida amaliyotga tadbig‘ini tushunamiz. SHuning uchun modernizatsiyalashdagidek innovatsion

2.6-jadval

“YUlduz” restorani asosiy fondi guruxi tarkibiy qismi 2015 yil boshi[62]

№	Jihoz nomi	tavsifi				
		markasi	Unumdorlig, km/s	El.kuvvati, kVt	Massasi kg	Egallagan yuzasi m^2
Mexanik jihozlar						
1	Myasorubka (go‘sht qiymalagich)	MS2-70	70	0,6	6,5	0,019
		MIM-88	180	1,1	75	0,109
2	Idish yuvish mashinasi	MI9-1000	1000 dona	40	1000	4,1
		MMU-500	500	26	350	1,36
3	Xamirqorgich	TMM-1M	140l	2,2	350	1,08
4.	Ko‘pirtiruvchi mashina	MV-60	60l	2,2	400	0,72
Issiqlik jihozi						
1	Qaynatib pishi rish qozoni	KPESM-60	60	10,5	103	0,75
2	gazplitasi	PESM-1N	0,48	14	180	0,65
3	Qovurish shkafi	EP-4JSH	0,48	9,6	260	0,66
4	elektrotova	SE-0,45	0,5	12	275	0,41

[62] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

5	Elektro-frityurnitsa	FESM-20	20	7,5	9,0	0,36
6	Elektro-frityurnitsa	FNE-5	8	4	25	0,11

Sovitish jihozlari

1	2 kamerali sovitgich	SHX 1,12	1,2m^3	0,43	275	1,33
2	«Pingvin» sovutgich prilavkasi	PVXS 1 0,5	0,5m^3	0,36	400	2,42
3	Sovutgich shkafi	SHX 1,25	1,25/250	0,7	450	1,3
4	Muzgenerator	LG 10M	3kg/s	1,1	295	5,1
5	muzlatgich		1,5kg/s	0,3	115	0,3
Salqinlovchi jihozlar						
4	Konditsioner	BEKO OSI	2,5/0,4	1,2/1,5	10,4/34	0,1

2.7-jadval

“YUlduz” restorani asosiy fondi guruxi tarkibiy qismi 2017 yil boshi

№	Jihoz nomi	tavsifi				
		markasi	Unumorligi kg/soat	El.kuvvati kVt	Massasi kg	Egallagan yuzasi m^2
Mexanik jihozlar						
1	Myasorubka (Go‘sht qiymalagich)	NFU	90	1,1	12	*0,1*
		MIM 82	250	1,1	55	0,17
2	Idish yuvish mashinasi	MU 500A	500	12	250	1,5
3	Xamirqorgich	TMM 1M	160	2,6	250	0,89
4.	Ko‘pirtiruvchi mashina		80	2,2	300	0,86

Issiqlik jihozi

1	Qaynatib pishi rish qozoni	KPE 60	60	9,33	210	0,6
		KPESM 60	60	10,5	103	0,88
2	gazplitasi	PESM 1N	0,24	3,6	110	0,35
		PESM 4	0,48M^2	14	210	0,71
3	Qovurish shkafi	JSH EP 4	0,48	14	200	0,32
		ESH 3M	0,38	9	310	0,95
4	elektrotova	SE 0,45	0,45	11,2	220	0,1
		SESM 0,5	0,5	12	275	1,23

5	Elektrofrityurnitsa	FESM 20	20	7,5	90	0,36
		FNE 5	8	4	25	0,11
Sovitish jihozlari						
1	2 kamerali sovitgich	SHX 1,056	1,056M^3	0,47	330	1,7
2	«Biryuza» sovut gich prilavkasi	Biryuza	0,,4	0,45	120	0,5
3	Sovutgich vitrinasi	PVX 1 0,30	0,54m^3	0,375	275	1,7
4	Sovutgich shkafi	SHX 0,4	0,4/80	0,45	180	0,5

Salqinlovchi jihozlar

1	Konditsioner	AQ 24	3,5/3,9	1,28/1,8	10,4/34	0,2
2	Konditsioner	Ferette	5,0/0,55	1,8/1,7	14/42	0,8
3	Konditsioner	Ferette	5,0/0,55	1,8/1,7	14/42	0,8

jarayonning (faoliyati) rivojlanishiga ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, intellektual va texnik - texnologik va boshqa omillar ta’sir etadi.

“YUlduz” restoranining mexnat unumdorligining dinamik holati va korxonalar rivojlanishining istiqbollarini aniqlash tadqiqoti uchun biz iqtisodiy ilmiy izlanishlarida keng tarqalgan dispersion va regression tahlilni olib bordik. Ma’lumki, regression tahlil deganda iqtisodiy jarayonlarning bir biriga bog‘liqlik qonuniyatining izlanishiga tushuniladi. Ko‘p holda o‘zgaruvchan x va y ko‘rsatkichlar orasida bog‘liqlik bo‘lsada, hamma vaqt ham ular bir maromda bo‘lmasligi, bitta “x” ko‘rsatkichining natijasiga “y” natijalari to‘g‘ri kelishi mumkin. Bunday hollarda bog‘liqlik regression bog‘liqlik deb yuritiladi. SHunday qilib, y=f(x) funksiyasi, agar argumentga “y” statistik qatori kelsa, regressionli deb yuritishimiz mumkin. Agar ko‘rsatkichlar bog‘liqligini aniqlash regression tahlil deb yuritsak, unda ko‘rsatkichlar bir biriga yaqinligi korrelyasiya yoki nuqtalar maydoni deb yuritiladi.

Regression tahlilning asosiy maqsadi, bir-biriga bog‘liqligi bor ko‘rsatkichlarning bog‘liqlik regression tenglamasini ishlab chiqishdan, yana bu faktorlar natijalarining bir-biriga yaqinligi (korelyasiyasi), ishonchliligi va mosligi (adekvatligi) ham aniqlanadi.

Bir faktorli – juft bog‘liqlikda to‘g‘ri chiziq, parabola, giperbola, logarifmik, darajali va ko‘rgazmali funksiyali, polinamol va boshqa turlari bo‘lishi mumkin. Agar ikki va ko‘p faktorli bo‘lsa, unda tekislik, paraboloid, giperboloid ko‘rinishda approksimatsiya qilish mumkin.

O‘zgaruvchan faktorli bog‘liqlikni quyidagi tenglama bilan ifoda etish mumkin:

$$y = b_0 + \sum_i^u b_i x_i + \sum_j b_{ij} x_i + \sum_i^u b_{ij} x_i^2 . \qquad (2.1)$$

Bunda y – maqsadli funksiya; x_i – erkin faktorlar, b_i – regressiya koeffitsientga, qaysikim x_i-y ga bo‘lgan bog‘liqligini ifoda etadi. b_{ij} – faktorlarning ikkilamchi x_i va x_j ta’sirlarni ifoda etadi.

Regression bog‘liqlikni ifodalashda minimal kvadrat sharti bajarilsa optimal bo‘ladi, ya’ni

$$\sum (y - \bar{y})^2 = \min \qquad (2.2)$$

bu erda y_i - haqiqiy natija maydoni;

$\bar{y}$ - o‘rtacha qiymat.

Korrelyasiya maydoni esa to‘g‘ri chiziqli tenglama ifodasida:

$$y = a + bx \qquad (2.3)$$

bo‘lishi mumkin.

Bundagi a va b quyidagicha hisoblanadi:

$$b = \left(n\sum xy - \sum x \sum y\right) \Big/ n\sum x^2 - \left(\sum x\right)^2 \qquad (2.4)$$

$$a = y - b = \frac{\sum y}{n} - b\frac{\sum x}{n} \qquad (2.5)$$

x va y o‘zgaruvchanlarning bir-biriga qanchalik yaqin bog‘liqligini koeffitsient korrelyasiyasi ko‘rsatadi va quyidagicha topiladi:

$$r = \frac{h\sum x_i y_i - \sum x_i \sum y_i}{\sqrt{n\sum x_i^2 - \left(\sum x_i\right)^2 \left[n\sum y_i^2 - \left(\sum y_i\right)^2\right]}} \qquad (2.6)$$

Bu erda: n – aniqlashlar (o‘lchamlar) soni korrelyasiya munosabati yoki koeffitsient qiymati 0 dan 1 gacha o‘zgaradi. Agar r=0 bo‘lsa, unda o‘rganilayotgan faktorlar (ko‘rsatkichlar) orasida bog‘liqlik yaqinligini bildiradi, r=1 bo‘lsa, unda bog‘liqlik funksional hisoblanadi. Amaliyotda albatta bunday absolyut 0 yoki 1 bo‘lishi kam hollarda kuzatilgan. Masalan, ishlab chiqarishdagi va muomala sarf harajat 0 absolyut darajasi, tovar aylanmasi bilan hech vaqt 0 yoki 1 bo‘lishi mumkin emas. Faqat yo 1 ga, yo 0 ga intilish, lekin hech qachon unga erishishi mumkin emas. Qanchalik 1 ga yaqinlashsa, shunchalik bir-biriga bog‘liqligi yaqin hisoblanadi.

Ko‘p holda $r \geq 0{,}5$ bo‘lsa, bog‘liqlik qoniqarli r = 0,8 … 0,5 yaxshi hisoblanadi.

Aniqlanayotgan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatlarining o‘zgaruvchan x dan qanchalik o‘zgaruvchanligini (yoki yoyilganligini) determinatsiya koeffitsienti aniqlaydi.

$$R_g = r^2 \qquad (2.7)$$

To‘g‘ri chiziqli bog‘liqlik regressiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y = \bar{y} + r\frac{\tau_y}{\Gamma_x} \qquad (2.8)$$

«YUlduz» restoranining 2014-2018 yillardagi mehnat unumdorligining regression tahlilini hisoblashda oxirgi 5 yil ketma-ketlikda: x = 1, 2, 3, 4, 5 deb qabul qilingan va yuqorida keltirilgan usulikada barcha hisoblar jadvalga kritilgan.

2.8. jadval

«YUlduz» restoranining 2014-2018 yillardagi mehnat unumdorligining regression taxlil xisobi.

Yillar	x	y	$x-\bar{x}$	$y-\bar{y}$	$(x-\bar{x})^2$	$(y-\bar{y})^2$	x^2	y^2	xy	$\frac{(x-\bar{x})^2}{(y-\bar{y})^2}$
2014	1	608,1	-2	-509	4	2590,8	1	3697856	608,1	101,8

2015	2	647,2	-1	-118	1	139,2	4	41888678	1294,4	11,8
2016	3	652,2	0	-6,8	0	46,2	9	425364,8	1956,6	0
2017	4	691,1	1	32,1	1	1030,4	16	477619,2	2764,4	32,1
2018	5	696,4	2	37,4	4	1398,7	25	484973	3482	74,8
	15	3295	0	0	10	5205,3	55	2176610,4	10105,5	220,5

Bunda hisob yillarga to‘g‘ri keladigan mehnat unumdorligi ming so‘m o‘lchov miqdorida y_i deb qabul qilingan.

Keltirilgan usulikaga asosan, aniqlangan yillar o‘rtacha qiymati $\bar{x} = \frac{15}{5} = 3$ ga va mehnat unumdorligi esa $\bar{y} = \frac{3295}{5} = 659$ ming so‘m tashkil etadi.

Yillar ketma-ketligi davomida mehnat unumdorligining o‘zgarishi to‘g‘ri chiziqli deb olib, uning regression tenglamasi:

$$y = a + bx \qquad (2.9)$$

ko‘rinishida bo‘ladi. Regression tahlil jadvalidan a va b koeffitsientlarni topamiz:

$$b = \frac{(5 \cdot 10105{,}5 - 15 \cdot 3295)}{5 \cdot 55 - 15^2} = \frac{5052 \cdot 7{,}5 - 49425}{275 \cdot 225} = \frac{1102{,}5}{50} = 22{,}05.$$

$$a = \frac{3295}{5} - 22{,}05 \cdot \frac{15}{3} = 659 - 66{,}15 = 592{,}8.$$

SHunday qilib, korxonada oxirgi 5 yilda mehnat unumdorligining o‘zgarishi regression tenglamasi:

$$y = 592{,}8 + 22{,}05x \quad (2.10)$$

korrelyasiya koeffitsientini aniqlasak,

$$r = \frac{5 \cdot 10105{,}5 - 15 \cdot 3295}{\sqrt{(5 \cdot 55 - 15^2)(5 \cdot 2176610{,}4 - 3295^2)}} = \frac{50527{,}5 - 49425}{\sqrt{50(10883052 - 1087025)}} = \frac{1102{,}5}{2241{,}8} = 0{,}5.$$

Demak, aniqlangan regression tenglama qoniqarli darajada mehnat unumdorligining dinamikasini ifodalaydi va bu tenglamani kelgusi yillar uchun, mehnat unumdorligini prognozlash uchun qo‘llash mumkin.

Jadvalda ushbu tenglama yordamida 1-7 yillar mehnat unumdorligini prognozlash uchun hisoblanganligi keltirilgan.

2.9 jadval

Mehnat unumdorligini 1-7 yillar uchun prognozlash hisoblanganligi

Yillar	1	2	3	4	5	6	7
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
Y	608,1	647,2	652,2	691,4	696,4		
y_x	614,8	637	659	682,8	703	725,1	747,1

Olingan natijalarning adekvatligini, ya’ni tenglama yordamida hisoblanib topilgan natijalarning statistik hisobotlardan olingan natijalarga qanchalik mosligini Fisher kriteriysi orqali aniqlaymiz.

Buning uchun, statistik ma’lumotlar uchun Fisher kriteriysi - $R_{фэ}$ tenglama yordamida, nazariy hisoblangan Fisher kriteriysini - $R_{фn}$ hisoblaymiz va ishonchli ehtimolli darajasini $\rho_g - 0{,}95$ deb olsak (Fisher kriteriyasi jadvalidan) unda $R_{фэ} < R_{фm}$ bo‘lsa matematik model, ya’ni tenglama adekvatli (mos). Agar $R_{фэ} > R_{фm}$ bo‘lsa unda model adekvat emas, hisoblashga (qo‘llashga) yaroqsiz hisoblanadi.

2.10. jadval

Mehnat unumdorligini aniqlash tenglamasini adekvatligini hisoblash .

№	y_i	y_{ik}	$y_i = \sum_i^n y_i \Big/ m$	$y_{ix} - \bar{y}_i$	$(y_{ix} - y_i)^2$	$\sum_i^m \frac{(y_{ix} - y_i)^2}{m}$
1	608,1	614,8	614,8	7,7	59,29	59,29
2	647,2	637	637	-10,2	104,04	101,04
3	652,2	659	659	6,8	46,24	46,24
4	691,4	682,8	682,8	-8,6	73,96	73,96
5	696,4	703	703	6,6	43,56	43,56
					327,09	327,09

Mehnat unumdorligining $R_{фэ}$ statistik ma’lumotlardan hisoblangan Fisher kriteriysi:

$$R_{фэ} = D_a \Big/ D_{ур} . \quad (2.11)$$

Bunda: D_a – adekvatlik dispersiyasi;

D_{ur} – o‘rtacha disperslik.

$$D_a = \frac{\sum_i^n (y_{ix} - \bar{y}_i)^2}{n - d} \qquad (2.12)$$

$$D_{ур} - \frac{\sum_i^n \sum_i^n (y_{ix} - y_i)^2}{m \cdot n} \qquad (2.13)$$

Bunda $y_{ix} - y_i$ - jadvaldan olinadi;

n – hisobga olish (o‘lchash) soni, n=5;

m – necha marta aniqlangan bir yilda, m=1

$$D_a = 327{,}09 \Big/ (5-1) = 87{,}77$$

$$D_{ур} = 327{,}09 \Big/ 5 = 65{,}42$$

$$R_{фэ} = 87{,}77 \Big/ 65{,}72 = 1{,}34$$

$$q_1 = 5 - 1 = 4$$

$$q_2 - 5 \cdot 1 = 5 .$$

Bular uchun: jadvaldan olingan Fisher kriteriysi $R_{фт} = 6{,}3$.

Demak, 1,34<<6,3 bo‘lganligi uchun regressiya tenglamasi adekvat hisoblanadi va tadkik etilayotgan “YUlduz” restoranining so‘nggi yillar ishidagi mehnat unumdorligining matematik modeli xisoblanadi.

SHunday qilib, matematik – model, ya’ni “YUlduz” restoranining so‘nggi 5 yilda ishlaganida mehnat unumdorligining dinamikasi to‘g‘ri chiziqli tenglama qonuniyatiga bo‘ysingan holda oshib borgan.

Agar biz regression o‘sishning uning y ning x ga nisbatan, ya’ni yillar davomida mehnat unumdorligining qanchalik o‘sish qonuniyatiga bo‘ysinib, rivojlanganligini, yanada aniqlashtirish maqsadida determinatsiya koeffitsientini aniqlasak:

$$R_g = r^2 = 0{,}5^2 = 0{,}25$$

bundan shunday, fikr tug‘ildiki, mehnat unumdorligi shu yillarda oz miqdorda, ya’ni 25 % ga ta’sir ko‘rsatgan, korxonaning rivojlanishida 75 % boshqa munosabatlar ta’siri borligini tushunishimiz mumkin.

YUqoridagi tahlillarimizdan ko‘rinib turibdiki, “YUlduz” restoranida mehnat unumdoriligining pasayishi, restoran i faoliyatining samaradorligining kamayishiga olib kelgan. SHuning uchun ham umumiy ovqatlanish korxonasini modernizatsiyalash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarini modernizatsiyalash maqsadida olib borilagn innovatsion holat tadqiqoti, xuddi shuningdek, “YUlduz” restorani innovatsion faoliyatining rivojlanishiga to‘sqinik qiluvchi va unga ta’sir etuvchi omillar reytingi uning unumdorligining rivojlanish dinamikasi o‘sish darajasida bo‘lsada , mehnat unumdorligi shu yillarda oz miqdorda, ya’ni 25 % ga ta’sir ko‘rsatgani, ya’ni korxonaning rivojlanishi meo‘nat unumdorligini zamonaviy mehnat qurollari bilan o‘stirish o‘rniga korxonaning rivojlanishida 75 % boshqa munosabatlardan foydalanilgan, bu esa uning zamonaviyligini pasaytirib borilishi tendensiyasi borligini tushunishimiz mumkin.

SHuning uchun, korxonalarni modernizatsiyalashda eng avvalo mahsulot sifatini yaxshilash, uning assortimentini kengaytirish, standartlar talablarini qondirish, mehnat sharoitini yaxshilash va xodimlar malakasini oshirish kerak. Demak, buning uchun korxona moddiy - texnika bazasini, uning asosi hisoblangan texnik texnologik bazasini vaqt vaqti bilan zamonaviy, iqtisodiy ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan texnika va texnologiyalar bilan almashtirish kerak bo‘ladi. Bunday vaqtda tabiiy holatki, korxonaning qaysi texnika texnologiyani yangilash kerak degan amaliy savol vujudga keladi. Bunnig uchun korxonadagi mavjud texnika texnologiyalar asosida uning “texnik - iqtisodiy darajasi”ni aniqlash lozimligini taklif etamiz. CHunki, korxona moddiy texnika bazasining asosiy qismini uning assortimentini kengaytiruvchi standart talablarni qondiruvchi, mehnat sharoitini yaxshilovchi, yuqori malakali ishchilarni talab qiluvchi va h.k. hisoblanadi. Korxona texnik - iqtisodiy darajasi deganda, baholanuvchi texnikaning bazaviy

ko‘rsatkichlariga nisbatan takomillashtirilgan ko‘rsatkichlarni taqqoslashga asosan nisbiy tavsifi tushuniladi. Asosiy maqsad texnikaning mikdoriy takomillashganligini, uning funksional mo‘ljallanganligiga mosligini aniqlashdir. SHu bilan texnikani rejalashtirish, sifatini yaxshilash va jahon namunalariga mosligini bilish mumkin bo‘ladi. Agar mahsulotlarni taqqoslashda uning iste’mol qiymati va ijtimoiy zarur sarfi bilan olib borilsa, unda texnikaviy-iqtisodiy darajasi deb tushuniladi. YA’ni, bir tomondan bir-birini almashtirishi mumkin bo‘lgan ish qurolining iste’mol qiymatini mikdoriy aniqlanishi va taqqoslash bo‘lsa, boshqa tomondan uning yaratishdagi va ekspluatatsiyasida sarflangan ijtimoiy mehnatni aniqlashdir[63].

Hozirgi vaqtlarda me’yoriy hujjatlarda (GOST, OST, GOST 15467-79) texnikaviy darajani aniqlashda mahsulotning asosiy texnikaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini bir-biriga taqqoslash bilan aniqlanishi ko‘rsatilgan. Biroq bu holat tushunchalarning nazariyada aniq takomillashmaganligidan darak beradi va bunday yondashish ko‘p holda mahsulotlarni chet el namunalari bilan xamma vaqt xam taqqoslashga yo‘l qo‘ymaydi.

Agar texnikaviy daraja mahsulotning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga befarq ravishda takomillashganligini tavsiflasa, texnik – iqtisodiy daraja esa iqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda texnikaviy takomillashganligini bilib, unda mahsulotlarni texnikaviy darajasini chet el namunalari bilan to‘laqonli taqqoslash mumkin bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda, ko‘p holda korxona jihozlarini yangilashda (ayniqsa xizmat ko‘rsatish korxonalarida) ekspert usuli, ya’ni bir gurux mutaxassislar fikri bo‘yicha qaysi jihoz qay biriga almashtirish masalasi mavhum holda, aniq hisoblarsiz hal etiladi. Bunday holat, hammavaqt ham masalani to‘g‘ri echishga olib kelmaydi va natijada korxona rentabelligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

[63] Ямпольский С.М.,Галуза С.Г.Экономические проблемы управления научно-техническим прогрессом.Киев:Наук.думка,1976. С241-242.

2.3. Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarining texnik-iqtisodiy darajasini aniqlash usuli va uning tahlili

Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni modernizatsiyalash uchun texnik-iqtisodiy darajasini aniqlash usulikasi mavjud emas. SHuning uchun biz quyida boshqa sohalarda mavjud usullar tahlilini olib borib, so‘ng ularning takomillashtirilgan usulini ishlab chiqdik.

V.I.Terexin[64] ta’kidlashicha, ushbu masala quvvati yuqori bo‘lgan sanoat korxonalarida modellashgan turli usullarda hisoblanadi. Bunda mahsulotning texnikaviy darajasi ko‘p parametrli funksiya sifatida qaralib hisoblanadi. YA’ni j – mahsulotning texnikaviy darajasi X_i (i=1,n) ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi[65]:

$$K_{òèä_j} = \varphi(x'_{ij}; x'_{iá}; a_i) \qquad (2.11)$$

bunda: $x'_{i\,b}$ – i- ko‘rsatkichi bazali qiymati;

a_i - i- ko‘rsatkich qiymati (salmoqlilik).

Agar texnik - iqtisodiy darajani baholansa unda qo‘shimcha iqtisodiy ko‘rsatkichlar xam inobatga olinishi kerak buladi. Unda texnikaviy-iqtisodiy daraja koeffitsientini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K_{òèä_i} = \psi(x'_{ij}; x'_{iá}; Ç_{ij}; Ç_{iá}), \qquad (2.12)$$

Bunda:

Z_{ij} – l sohadagi xarajatlar. (l=1,L)

Ushbu matematik modeldan texnikaviy daraja va texnik – iqtisodiy daraja bir – biriga qarshi bo‘lmay, balkim bir – birini to‘ldirishini ko‘rish mumkin.

Ushbu modellarni ikkalasi xam korxonaning mordernizatsiya innovatsion yangiligini hisoblashda qo‘llanilishi kerak deb hisoblaymiz. Agar texnikaviy daraja korxona jihozlarining kanchalik takomillashganligini ko‘rsatsa, texnik - iqtisodiy daraja korxona rentabelligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘lishini ifodalaydi.

[64]В.И.Терехин.Повышение эффективности производства новой техники.-М.,Экономика,1987.220с
[65] В.И.Терехин.Повышение эффективности производства новой техники.-М.,Экономика,1987.220с

Korxona texnikaviy va texnik–iqtisodiy darajani hisoblashda xam turli xildagi fikrlar mavjud.Texnik – iqtisodiy darajani hisoblashda, nisbatan keng tarqalgan quyidagi fikrlar e'tiborga loyiq deb hisoblaymiz:

- texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashda ekspertlar yordamida yoki boshqa yo'l bilan ularning salmoqlilik koeffitsientini aniqlash zarur[66]

-hisoblashda asosiy parametrlarni tanlash, masalan, natural ko'rsatkichlar (solishtirma material sig'imi, solishtirma energiya sig'imi) va qiymatli solishtirma bahosi, solishtirma joriy sarf xarajat). Texnikaviy–iqtisodiy daraja ko'rsatkichlarning umumiy ko'rsatkichi sifatida ish unumdorligiga hisoblangan keltirilgan sarf-xarajatni olish taklifi [67];

-GOST 15467-70 bo'yicha texnikaviy–iqtisodiy daraja ko'rsatkichlari integral va kompleks sifat ko'rsatkichlari bilan mos tushadi;

-yangi mashina samaradorligini soha o'rtacha darajasidan yillar o'tishi bilan orqada qolishi texnikaviy –iqtisodiy daraja deb tushuniladi[68];

-texnik –iqtisodiy darajani aniqlashda mahsulotning iste'mol qiymati va mehnat sarfining mosligini aniqlash[69];

- texnikaviy darajani aniqlashda jahon bo'yicha eng ilg'or ishlab chiqarish jihozlariga taqqoslash.

Xuddi shuningdek texnikaviy darajani hisoblashda elektron texnika va asbobsozlik sanoati korxonalarida hisoblash usuliga takliflar kiritilgan.

SHuning uchun yuqorida keltirilgan asosan sanoat hisoblash usullaridan foydalanib xizmat ko'rsatish, servis korxonalarining texnik - iqtisodiy darajasini hisoblash uchun quyidagi usulni taklif etamiz:

1. Korxona moddiy texnika bazasi (asosiy fondini)ning texnik - iqtisodiy darajasini aniqlash vaqtidagi holatini aniqlash;

---

[66] В.И Терехин.Повышение эффективности производства новой техники.-М.,Экономика,1987.220с

[67] Розенплентер А.Э.,Широкорадова Б.Основы управления созданием новой техники.Киев:Вища школа;Прага:СНТЛ,1984.С.60

[68] Ямпольский С.М.,Галуза С.Г.Экономические проблемы управления научно-техническим прогрессом.Киев:Наук.думка,1976. С78

[69] Ямпольский С.М.,Галуза С.Г.Экономические проблемы управления научно-техническим прогрессом.Киев:Наук.думка,1976. С242.

2. Korxona moddiy-texnika bazasi (asosiy fondini)ni funksional va ular to‘g‘risida ma’lumotlarni yig‘ish.

3. Har bir funksional guruh uchun K_{tid}- texnik - iqtisodiy daraja koeffitsientini aniqlash va ularning o‘rtacha matematik qiymatini korxona texnik - iqtisodiy darajasi deb qabul qilish kerak:

$$K_{\hat{e}\grave{o}\ddot{a}} = \left[\frac{\sum_{n=i}^{i} \overline{K_{\grave{o}\ddot{a}ij}}}{n} \right] \quad (2.13)$$

Bunda: n- guruhlar soni;

4. $\overline{K_{m\grave{o}ij}}$ - xar bir guruhdagi hisoblash ob’ektining (texnika, asbob uskunalar va h.k..) texnik - iqtisodiy daraja koeffitsientini o‘rtacha qiymati:

$$K_{mu\eth ij} = \left[\frac{\sum_{n=i}^{i} \overline{K_{mu\eth is}}}{n} \right] \quad (2.14)$$

Bunda: n - shu guruhdagi ob’ektlar soni.

K_{tidis}–ob’ektlar (jihoz, asbob-uskuna va x.z) texnik iktisodiy daraja koeffitsienti

5.YAngi texnika iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Ushbu usul asosida 2015 – 2017 yillardagi Samarkand vioyatidagi “Obi Rahmat” MCHJ “YUlduz” restorani, “Urgut Fayz savdo” MCHJ oshxonasi, “Juma Fayz” restoranining modernizatsiya davridagi texnik - iqtisodiy darajasini aniqlash bilan olib borildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarning ishlab chiqarishida modernizatsiya innovatsion texnika va texnologiyaning tadbig‘i, korxona iqtisodiy samara-dorligiga qanchalik ta’sirini oldindan aniqlash muhim hisoblanadi.

YAngi texnikaning umumiy ovqatlanish korxonasida qo‘llanilishi iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun V.I.SHalun[70]taklif etgan, har bir ishlab chiqarish mahsulotiga (ishga) keltirilgan sarf xarajat hisobi usulikasidan foydlanamiz. Bunda

[70]Шалун В.И.Общественное питание на новый технический уровень.-М:Экономика 1987г.45-84с.

bir xil hajmda bajarilgan mahsulot yoki bajarilgan ishga eng kam sarf xarajat qilgan modernizatsiya innovatsion tadbir samarali deb hisoblanadi.

Korxona iqtisodiy samaradorligini hisoblash usulining asosiy formulalari, ularni tashkil etuvchi ko‘rsatkichlari 6 ilovada keltirilgan.

“YUlduz” restorani asosiy fondlarining texnik - iqtisodiy darajasini aniqlash maqsadida biz korxona texnik - iqtisodiy darajasini aniqlash usuli bo‘yicha funksional guruhlarga ajratamiz.

Ular quyidagilardan tashkil topadi:

1.Ishlab chiqarish jihozlari;

2.Mebellar va inventarlar

3.Bino va inshootlar

4.Boshqa jihozlar va inventarlar.

Restoran asosiy fondlaridan ishlab chiqarish jihozlari funksional guruhi ro‘yxati 2015 yil holatida (2.6-jadval) ya’ni texnik - iqtisodiy modernizatsiyalashdan oldingi holati va undan keyingi 2017 holati 2.7- jadvalda keltirilgan.

Ushbu funksional guruhga kiruvchi ko‘p sonli, turli maqsadda qo‘llaniladigan jihozlarni, o‘zlarining funksiyasidan kelib chiqqan holda tayyor mahsulot ishlab chiqarish, uni tarqatish yoki muomalaga chiqarish hamda ovqatlanishni tashkil etishda qo‘llanilishi bilan turlicha guruhlash mumkin.

Jihozlarni funksional guruhlashda ularning umumiy alomatlaridan kelib chiqib:nimaga tayinlanishi, mahsulotga ta’sir xarakteri, funksional belgisi va boshqalardan foydalanish mumkin.

SHularni inobatga olgan holda ularning funksional qaysi jarayonini bajarishiga qarab:

1.Mexanik jihozlar;

2.Issiqlik jihozlari,

3.Sovitish jihozlari

4.Salqinlovchi jihozlar guruhiga bo‘linadi.

Jihozlarning texnik - iqtisodiy darajasini aniqlashda ularga qo‘yilgan umumiy talablardan kelib chiqqan holda ulardan unumli foydalanishga, ya’ni ekspluatatsiya qilishda foydalaniladigan ko‘rsatkichlardan foydalandik.

Korxona asosiy fondining mebellar va inventarlar 3- ilovada, bino va inshootlar 4- ilovada va boshqa jihozlar va vositalar 5- ilovada keltirilgan. Korxonaning asosiy fondlarining bunday guruhlanishi uning texnik iktisodiy darajasini aniqlash maqsadida va asosiy fond tarkibidagi jihozlarni va boshqalarni innovaitson yo‘l bilan yangilash korxona ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Hisoblashda 2.7 - jadvalda keltirilgan ishlab chiqarish, tarqatish va ovqatlanishni tashkil etish jihozlarining texnik - iqtisodiy darajasini ishlab chiqilgan usuli bilan hisobladik. Asosiy fondni tashkil etuvchi boshka guruh moddiy boyliklari esa amortizatsion eskirish holati hisobi bo‘yicha qabul qilindi va texnik - iqtisodiy daraja koeffitsientiga tenglashtirildi. Jihozlarning texnik - iqtisodiy darajasini, aniqlashni issiqlik jihozning texnikaviy iqtisodiy darajasi hisobi misolida ko‘rib chiqamiz.O‘zgaruvchan baza asosida issiqlik jihozning texnik iktisodiy darajasini aniklash keltirilgan usul bo‘yicha hisobi 2.15- jadvalda keltirilgan.

2.15-jadvalda hisobga olingan korxona modernizatsiyasiga korxonada normal ishlab turgan FESM-20, FNE-5 frityurnitsa turdagi jihozlari, yangi ishlab chiqarilgan jihozlar (frityurnitsalar) FESM-20, FESM-16 bilan taqqoslandi. Bunda, ularning x_1-. (ish unumdorligi) kg/soat, x_2 -quvvati kVt, x_3- egallagan joyi, m^2, inobatga olinadi. Ushbu ko‘rsatkichlar ham texnikaviy, ham iqtisodiy tomondan muhim hisoblanib, ularning miqdori korxona samaradorligiga salmoqli ta’sir etadi.

Hisoblanayotgan jihozlarning tanlangan ko‘rsatkichlarini bir xil salmoqlikga ega deb qabul qilamiz (0,25dan) va 1 baza jihozlari ko‘rsat-kichlari bo‘yicha salmoqlik (og‘irlik) koeffitsientini hisoblaymiz. Ushbu hisob natijasini tahlilidan ko‘rinib turibdiki, bir xil sharoitda ikkala baza jihozlar ko‘rsatkichlaridan ularning quvvati boshqalardan ko‘p, xuddi shunday ikkalasidan FESM -20 ko‘proq energiya sarflar ekan. Lekin shu jihoz ko‘rsatkichlarining salmoqlik koeffitsientlarini

taqqoslaganda qariyb bir xil unumdorlikga ega bo‘lsada, uning og‘irligi (metall sig‘imi) egallagan joyi qariyb 10 barobar kam ekan. Endi yangi ishlab chiqarilgan hozirda sotuvda mavjud FESM- 20, FESM -16 frityurnitsalarni bazada mavjudligi bilan taqqoslaymiz va olingan hisoblar natijasini 2.16-jadvalga kiritamiz.

YAngi taklif etayotgan FESM- 20ning xuddi shunday bazadagisi bilan K_{tid}=1 ekanligini ko‘ryapmiz. Lekin, bazadagi ikkinchisidan K_{tid} 2,52 barobar katta ekan. Xuddi shunday FESM -16, FESM- 20dan kichik K_{tid1} =0,57, FNE- 5 dan esa K_{tid2} =1,5 kattaligini ko‘rishimiz mumkin. Agar ishlab chiqarishda bo‘lgan 1 baza bo‘yicha 2 baza sharti bilan aniqrog‘i ikkinchi eskirgan bo‘lsa ham uning (FNE-5) shartlarini inobatga olgan holda hisoblaganda A jihoz FESM-20 K^*_{tid} =0,9., B.jihoz FESM-16 K^*_{tid} =0,7 bo‘lib ustunligi ko‘rsatilyapti. Xuddi shunday 2 baza bo‘yicha 1 baza (o‘ziga o‘xshagan, faqat yil hisobida oldinroq ishlab chiqarilgan) shartida ham ularning texnikaviy iktisodiy darajasi yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

$$K^*_{tid2a} = 2{,}28 \quad K^*_{tid2b} = 1{,}49$$

2.15- jadval

O‘zgaruvchan baza asosida issiqlik jihozining texnik- iqtisodiy darajasini hisoblash

Jihozlar		Ko‘rsatkichlar				Texnikaviy iqtisodiy daraja koeffitsienti			
		X_1 kg/soat	X_2 kVt	X_3 kg	X_4 m2	1-baza bo‘yicha K_{td1}	2-baza bo‘yicha K_{td2}	1-baza bo‘yicha 2-baza shartida	2-baza bo‘yicha 1–baza shartida
A	Elektrofrityur-nitsa FESM-20	20	7,5	9,0	0,36	1	2,52	0,9	2,28
B	Frityurnitsa FESM-16	16	6	18	0,2	0,57	1,5	0,7	1,49
	Baza								
1	FESM-20	20	7,5	90	0,36				
2	FNE-5	8	4	25	0,11				
	Ko‘rsatkichlar bo‘yicha salmoqlik koeffitsienti	0,25	0,25	0,25	0,25	Hammasi uchun			

		0,13	0,69	0,07	0,09	1 baza uchun 2 baza sharoitida
		0,14	0,44	0,21	0,19	2 baza uchun 1 baza sharoitida

X_1 – jihoz unumdorligi ,kg/soat;

X_2 – el.dvigateli quvvati, kVt;

X_3-massasi, kg

X_4- egallagan joyi , m^2

1) 1-baza bo‘yicha og‘irlik koeffitsientini hisoblaymiz:

r =1 i =1 $a_{11}^* = \frac{x'_{11}}{x'_{12}} \times a_{12} = 0.25 \times \frac{8}{20} = 0{,}1$

r=1 i=2

$$a_{21}^* = a_{21} \times \frac{x'_{21}}{x'_{22}} = 0{,}25 \times \frac{4}{7{,}5} = 0{,}53$$

r =1 i =3

$$a_{31}^* = a_{31} \times \frac{x'_{31}}{x_{32}} = 0{,}25 \times \frac{25}{90} = 0{,}06$$

r =1 i =4 $a_{41}^* = a_{41} \times \frac{x'_{41}}{x_{42}} = 0{,}25 \times \frac{0{,}11}{0{,}36} = 0{,}07$

$$\sum_{i=1}^{4} a_{i2}^* = a_{11}^* + a_{21}^* + a_{31}^* + a_{41}^* = 0{,}1 + 0{,}53 + 0{,}06 + 0{,}07 = 0{,}76$$

a_{ij}^* nomerlaymiz va

$a_{11} = \frac{a_{11}^*}{\sum} = \frac{0{,}1}{0{,}76} = 0{,}13$ $a_{21} = \frac{a_{21}^*}{\sum} = \frac{0{,}53}{0{,}76} = 0{,}69$

$a_{31} = \frac{a_{31}^*}{\sum} = \frac{0{,}06}{0{,}76} = 0{,}07$ $a_{41} = \frac{a_{41}^*}{\sum} = \frac{0{,}07}{0{,}76} = 0{,}09$

2) 2-baza buyicha og‘irlik koeffitsientini hisoblaymiz:

r=1 i=1 $a_{12}^* = a_{12} \times \frac{x'_{12}}{x'_{12}} = 0.25 \times \frac{20}{8} = 0{,}62$

r=1 i=2 $a_{22}^* = a_{22} \times \frac{x'_{22}}{x'_{21}} = 0.25 \times \frac{7{,}5}{4} = 1{,}87$

r=1 i=3 $a_{32}^* = a_{32} \times \frac{x'_{32}}{x_{31}} = 0.25 \times \frac{90}{25} = 0{,}9$

r=1 i=4 $a_{42}^* = a_{42} \times \frac{x'_{42}}{x'_{41}} = 0.25 \times \frac{0{,}36}{0{,}11} = 0{,}81$

$$\sum_{i=1}^{4} a_{i2}^{*} = a_{12}^{*} + a_{22}^{*} + a_{32}^{*} + a_{42}^{*} = 0{,}62 + 1{,}87 + 0{,}9 + 0{,}81 = 4{,}2$$

a_{ij}^{*} nomerlaymiz va

$$a_{12} = \frac{a_{12}^{*}}{\sum} = \frac{0{,}62}{4{,}4} = 0{,}14 \quad a_{22} = \frac{a_{22}^{*}}{\sum} = \frac{1{,}87}{4{,}2} = 0{,}44$$

$$a_{32} = \frac{a_{32}^{*}}{\sum} = \frac{0{,}9}{4{,}2} = 0{,}21 \quad a_{42} = \frac{a_{42}^{*}}{\sum} = \frac{0{,}81}{4{,}2} = 0{,}19$$

Hisob: $Km\partial_1 = \sum_{i=1}^{4} a_i \frac{x_{ij}}{x_{\acute{o}i}}$

1) 1 baza buyicha

A. $Kmu\partial_1 = 0{,}25 \times \frac{20}{20} + 0{,}25 \times \frac{7{,}5}{7{,}5} + 0{,}25 \times \frac{90}{90} + 0{,}25 \times \frac{0{,}36}{0{,}36} = 0{,}25 \times 4 = 1$

B. $Kmu\partial_1 = 0{,}25 \times \frac{16}{20} + 0{,}25 \times \frac{6}{7{,}5} + 0{,}25 \times \frac{18}{90} + 0{,}25 \times \frac{0{,}2}{0{,}36} = 0{,}25 \times (0{,}8 + 0{,}8 + 0{,}2 + 0{,}5) = 0{,}57$

2) 2 baza buyicha

A. $\hat{E}\grave{o}\grave{e}\ddot{a}_{\ 2} = 0{,}25 \times (\frac{20}{8} + \frac{7{,}5}{4} + \frac{90}{25} + \frac{0{,}36}{0{,}11}) = 0{,}25 \times (2{,}5 + 1{,}8 + 2{,}6 + 3{,}2) = 2{,}52$

B. $\hat{E}\grave{o}\grave{e}\ddot{a}_{\ 2} = 0{,}25 \times (\frac{16}{8} + \frac{6}{4} + \frac{18}{25} + \frac{0{,}2}{0{,}11}) = 0{,}25 \times (2 + 1{,}5 + 0{,}72 + 1{,}81) = 1{,}5$

1chi baza bo‘yicha 2 baza shartlari

A. $K\grave{o}\grave{e}\ddot{a}_{\ 2} = 0{,}13 \times 1 + 0{,}69 \times 1 + 0{,}07 \times 1 + 0{,}09 \times 1 = 0{,}13 + 0{,}69 + 0{,}07 + 0{,}09 = 0{,}9$

B. $K\grave{o}\grave{e}\ddot{a}_{\ 2} = 0{,}13 \times 0{,}8 + 0{,}69 \times 0{,}8 + 0{,}07 \times 0{,}2 + 0{,}09 \times 0{,}5 = 0{,}10 + 0{,}55 + 0{,}01 + 0{,}04 = 0{,}7$

2chi baza buyicha 1 baza shartlari

A. $K\grave{o}\grave{e}\ddot{a}_{\ 2} = 0{,}14 \times 2{,}5 + 0{,}44 \times 1{,}8 + 0{,}21 \times 2{,}6 + 0{,}19 \times 3{,}2 = 0{,}35 + 0{,}79 + 0{,}54 + 0{,}60 = 2{,}28$

B. $K\grave{o}\grave{e}\ddot{a}_{\ 2} = 0{,}14 \times 2 + 0{,}44 \times 1{,}5 + 0{,}21 \times 0{,}72 + 0{,}19 \times 1{,}81 = 0{,}28 + 066 + 0{,}15 + 0{,}34 = 1{,}49$

Albatta, bunday hisobning bajarilishi va hisob natijalarining tahlili asosida jihozlarni yangilash, ya’ni korxona jihozlanishi bo‘yicha ko‘pgina qo‘shimcha ma’lumotlar olish mumkin bo‘ladi.

Korxonadagi qolgan jihozlarning texnik - iqtisodiy darajasini aniqlashda aynan yuqorida keltirilgan usul asosida hisoblab (7 ilovaga qarang), korxona asosiy vositalari jamlanma K_{tid} – texnik - iqtisodiy daraja jadvaliga kiritamiz (2.16-jadval).

Jadvaldagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, korxona asosiy fondining jihozlar guruhi o‘rtacha texnik iktisodiy darajasi K_{tid2}=1,68 teng bo‘lib, bu korxonadagi jihozlarning katta qismi hozirgi zamon talabiga binoan yangilanganligi va

ayniqsa, sovitish jihozlar guruh boshqalarga nisbatan yangi ekanligini bildiradi. Ushbu hisoblarning o‘tkazilishi yana shu bilan e’tiborliki, bunda korxonaning modernizatsiya innovatsiya holatini ham aniqlash mumkin.

Xuddi shunday yangi olinadigan jihozlarning turli ko‘rsatkichlarining ratsional miqdorini, tipini, energiya sarfini, shuningdek metal sig‘imini, egallagan ishlab chiqarish maydonidan ratsional foydalanish mumkin. Xuddi shuningdek, korxona asosiy fondining bino va inshootlar, mebel va inventarlar va boshqalar ham yangilanganligi samaradorligini oshirishda katta ta’sir etadi. SHunday qilib, korxonaning moddiy texnika bazasi asosiy fondlari bo‘yicha o‘rtacha texnik - iqtisodiy darajasi K_{tid}=1,68ga teng bo‘ladi.

2.16- jadval

“YUlduz” restorani asosiy fondlari K_{tid} texnik-iqtisodiy darajasini hisoblash[71].

№	Korxona asosiy vositalar guruhlari va uning tarkibi	markasi	Texnik-iqtisodiy daraja koeffitsienti		o‘rtacha $K_{òèäij} = \left[\frac{\sum_{n=i}^{i} \overline{K_{òèäis}}}{n}\right]$ qiymati	
			1-baza bo‘yicha	2-baza bo‘yicha	K_{tid2}	
1	**Mexanik jihozlar:**					
1.1	Go‘shtqiymalagich	NFU	2,47	1,94	2,2	
1.2	Go‘shtqiymalagich	MIM-82	5,65	1,36	3,5	
1.3	Ko‘pirtirgich	MVU 60	1,06	1,06	1,06	
1.4	Ko‘pirtirgich	MV 35M	0,9	0,9	0,9	
1.5	Xamirqorgich	TMM-1M	0,9	0,9	0,9	
1.6	Idish yuvish mashinasi	MMU 500	0,85	1	1	
			1,9	1,4	**1,49**	
2	**Issiqlik jihozlari:**					
2.1	Elektrofrityur-nitsa	FESM-20	1	2,52	1,76	
2.2	Elektrofrityur-nitsa	FESM-16	0,57	1,5	1,03	
2.3	Kaynatib pishirish qozoni	KPKI-60	0,83	1,4	1,1	
2.4	Kovurish shakafi	SHPESM-3	3,8	2	3	
2.5	Elektr tova	SESM-0,5	1,02	1	1,01	

[71] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

2.6	Elektroplita	PESM IM(2dona)	2,4	2,8	2,6	
					1,75	
3	**Sovitish jihozlari**					
3.1	2 kamerali sovitgich	SHX 1,056	2,02	1	3,02	
3.2	«Biryuza» sovut gich prilavkasi	Biryuza	4,31	3	3,6	
3.3	Sovutgich vitrinasi	PVX 1 0,30	0,2	0,6	0,4	
3.4	Sovutgich shkafi	SHX 0,4	0,4	0,5	0,45	
					1,87	
4	**Salqinlovchi jihozlar**					
4.1	Konditsioner	AQ 24	2,03	1,02	1,5	
4.2	Konditsioner	Ferette	2,06	1,2	1,6	
					1,53	
						1,68

Undagi qo‘llanilayotgan mexanik jihozlarning guruhi K_{tid}=1,59 va salqinlovchi jihozlar K_{tid}=1,53 boshqalarga nisbatan ancha past ekan. Masalan, korxona jihozlarining o‘rtacha texnik iqtisodiy darajasidan 5,4%ga past.Sovitish jihozlari guruhi 11,3%ga ko‘p. Issiqlik jihozlari guruhining texnik - iqtisodiy darajasi esa korxona o‘rtacha texnik - iqtisodiy darajasiga yaqinroq ekan. SHuning uchun, korxonada xizmat sifatini ko‘tarish maqsadida ishlab chiqarishdagi mexanik jihozlarni, hamda xizmat ko‘rsatish joylaridagi salqinlovchi apparatlarni zamonaviy tipdagilari bilan almashtirish kerakligi tasdiqlanyapti.

YUqorida aytib o‘tilgandek, korxona iqtisodiy samaradorligini hisoblash usulini bir va bir necha variantini qiyoslash bilan iqtisodiy samaradorligini hisoblash mumkin. Bunda yillik iqtisodiy samaradorlik hisob yilidan oldingi holat bilan taqqoslanadi. SHuning uchun korxona Bizda 2015 yilgacha holat bilan 2017 yil modernizatsiya yili hisobini bajardik va ushbu yilni modernizatsiya innovatsion yili deb belgiladik. Modernizatsiya innovatsion yilida keltirilgan xarajatlar ishlab chiqarish va muomala xarajatlardan va ishlab chiqarish fondiga qo‘yilmalardan iborat deb bilamiz. SHu bilan birga kapital qo‘yilma iqtisodiy samaradorligini normativ koeffitsienti ham inobatga olinishi lozim bo‘ladi. E_n - normativ koeffitsientni izlanish ob’ekti uchun 0,15 ga teng deb oldik. Korxona yillik iqtisodiy samaradorligi bu yillik qo‘yilma va ishlab chiqarish, muomala xarajatlar summasida ifodalangan, texnikaviy tadbirlarning tadbig‘idan kelib chiqgan foyda hisoblanadi. Korxona asosiy fondiga qo‘yilgan kapital qo‘yilmalar:

yangi texnikani olish, uni keltirish, montaj qilish, qurilish xarajatlari, texnikaviy xizmat ko‘rsatish va boshqalardan iborat bo‘ladi. Barcha xarajatlar korxona modernizatsiya tadbirining rejasi, smetasi bo‘yicha hisoblanadi. Agar bular tuzilmaganda, ular tizimda qabul qilingan miqdorda qabul qilinadi. Masalan, yangi jihozlarni keltirish xarajati uning ulgurji bahosining 5%ni tashkil etadi.Jihozlarni o‘rnatish ishlari smeta xarajatlaridan olinsa, demontaj qilish real bajarilgan ishlar qiymatida hisoblanishi mumkin.Jihozlarning amortizatsiya bo‘lmagan qiymati korxona balansi asosida olindi va likvidatsiya ishlari xarajati uning sotilishi narxiga yoki metallalom hisobida hisoblanadi.Jihozlarni qayta ta’mirlash xarajatlari, almashtirilishi yoki qo‘shimcha o‘rnatiladiganlarining soni, ular egallaydigan yuza hisobida umumiy ovqatlanish korxonalarida sarflanadigan xarajatlar hisobiga olindi. Xuddi shuningdek, almashtiriladigan jihozlarni demontaj etish xarajati, korxonada haqiqiy sarflanadigan xarajatlar hisobida yoki ularning soniga qarab qurilish ishlarida qo‘llaniladigan baholarda hisoblanishi mumkin. Texnikaviy modernizatsiya samaradorligining hisobida xarajatlarni hisoblashda: ish haqi, binoning ijara haqi, asosiy fond amortizatsiyasi, binoni saqlash, kundalik ta’mirlash, ishchi kiyim, kam qiymatli va tez sarflanadigan narsalar, ovqatlanish idish tovoqlari, asboblari, energiya, suv va boshqa sarflar xarajatlar xam hisoblanadi.Umumiy ovqatlanish korxona bino va xonalarining tarkibiga sarflanadigan xarajatlarning ammortizatsiya ajratmalari summasiga nisbati koeffitsientidan foydalanamiz (restoranlar uchun - 1,41).Ularni ta’mirlash va jihozlarga kompleks xizmat ko‘rsatish xarajati haqiqiy holatga qarab ketgan xarajatlar hisobida olinadi yoki bunday ishlarni rejalashtirganda esa amortizatsion ajratmalarning 30 -50% miqdorida qabul qilinadi. Jihozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarga ketgan sarflar bu ishlarning ulgurji narxlarida hisoblanadi. Ishchi kiyimlarning eskirishi bo‘yicha xarajatlar, ishsizlar soni, jihozlarning bir kundagi ishlash vaqti, bir yildagi ishlash kunlari, kiyimlar bir komplektining narxi, tozalashiga ketgan sarf xarajatlar hisobida olinadi. Agar oldindan rejalashtirilsa, unda asosiy va qo‘shimcha ish haqining 6% birligida qabul qilinadi. Jihozlarga ketadigan energiya hisobida elektr exnergiya sarfi hisoblanadi. Bunda uning

quvvati, uni ishlatish koeffitsienti, ishlash vaqti, elektr energiya tarif bahosi inobatga olinadi. Hisoblashda ishlatish koeffitsienti turli guruh jihozlariga turlicha qabul qilinadi. Mexanik jihozlar elektr dvigatelining ishlashiga 0,5-0,7, idish yuvish mashinasiga 0,7; sovitgichlarga 0,75; nazorat kassa apparatlariga 0,2-0.3 teng deb olindi.Maqsadga muvofiq shuni aytish kerakki, ushbu usulika umumiy ovqatlanish korxonalarida yangi texnika tadbig‘i bo‘yicha mo‘ljallangan iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qo‘llash uchun qayta ishlanib Respublika korxonalaridagi qo‘llaniladigan tarif va koeffitsientlarni me’yoriy hujjat sifatida ishlab chiqib rasmiylashtirish lozim.

YUqorida keltirilgan usul yordamida korxona jihozlari iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchun birlamchi ma’lumotlar jamlanmasi tuzildi. Barcha umumiy ovqatlanish korxonasining mexanik jihozlari uchun, issiqlik jihozlari uchun, sovitish jihozlari, salqinlovchi jihozlari uchun korxona iqtisodiy samaradorligi hisoblanib (6 ilovada keltirilgan) olingan natijalar 2.17-jadvalda kiritildi.Korxona asosiy fondining qolgan: mebel jihozlari, bino va inshootlar, boshqa jihozlar va vositalarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi formulalar yordamida hisoblandi:[72]:

$$K_e=P:OF$$

Bunda: P – olingan foyda,so‘m; Of-asosiy fondlarning o‘rtacha qiymati,so‘m

2.17-jadval

Samarqand viloyatidagi umumiy ovqatlanish korxonalarining texnik - iqtisodiy darajasi va samaradorligini bog‘liqligi[73]

№	Guruhlar nomi	K_{tid}			E_p ming so‘m		
		“YUlduz” restorani	Urgut Fayz Savdo	“Juma Fayz” restorani	“YUlduz” restorani	Urgut Fayz Savdo	“Juma Fayz” restorani
1	Mexanik jihozlar	1,6	0,8	1,3	420	270	230
2	Issiqlik jihozlar	1,7	0,5	1,2	2384,6	1164,	2354

[72]Ефимова О.П.Экономика общественного питания:Учебное пособие.Мн.:новое знание, 2008.-348с-200с.
[73] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

						3	
3	Sovitish jihozlar	1,8	1,2	1,2	1289,7	754,5	574
4	Salqinlovchi jihozlar	1,5	1,2	1,3	600,3	356,7	543,2
5	Mebel jihozlari	0,94	0,85	0,84	0,5	0,3	0,3
6	Bino va inshootlar	0,84	0,6	0,4	0,011	0,4	0,2
7	Boshqa jihozlar va vositalar	0,88	0,7	0,54	0,55	0,5	0,64
		1,34	0,8	0,9	670	363,8	528,6

2.17 - jadvalda korxona texnik - iqtisodiy darajasi va samaradorligininng bog‘liqligi keltirilgan. Korxonaning o‘rtacha texnik - iqtisodiy darajasi koeffitsienti 1,34 bo‘lganda, uning iqtisodiy samaradorligi 670 ming so‘mni tashkil etadi. Korxona iqtisodiy samaradorligiga undagi ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnologik jihozlarning texnik - iqtisodiy darajasi katta ta’sir ko‘rsatar ekan. SHuning uchun, barcha qo‘llaniladigan jihozlar soz holatda bo‘lishi, vaqt vaqti bilan ekspluatatsiya reglamentiga asosan texnik xizmatlar ko‘rsatilishi va zamonaviy turariga almashtirilib turishi lozim.

III BOB. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA SERVIS XIZMAT KO‘RSATISHNI MODERNIZATSIYALASH TADQIQOTI

3.1 Umumiy ovqatlanish korxonalarida servis xizmat ko‘rsatishning tadqiqoti va olingan natijalar tahlili.

Ma’lumki umumiy ovqatlanish korxonalarida servis xizmat ko‘rsatish korxonalardagi “tarqatish- iste’molchi” tizimida bo‘lib o‘tadi. Bunda asosan iste’molchi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish yoki ofitsiantlar yordamida xizmat ko‘rsatiladi. SHuning uchun biz quyida “YUlduz” restorani misolida ushbu xizmat ko‘rsatish, uning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida tadqiqotni bajardik. Restoranda servis xizmat ko‘rsatish jarayonlarini ilmiy tadqiq qilishda biz

xronologik va fotografik kuzatish usulini qo‘lladik. Bunda tadqiqot ob’ekti bo‘lib “YUlduz” restoranidagi iste’molchilarga ko‘rsatiladigan xizmat ko‘rsatishni oldik.

Kuzatuv jarayonini ovqatlanish zalining jihozlari bilan tanishishdan boshladik. Korxonada ofitsiantlar tomonidan xizmat ko‘rsatilganligi uchun ovqatlanish zalni ma’lum bir o‘rinlarga bo‘lindi va har bir stolga aniq bir nomer o‘rnatildi.

Kuzatuv jarayonini esa maxsus xaritada, har bir kuzatuvlarni qayd etish va kuzatuv xaritasining birinchi varag‘iga (3.1-jadvalda ko‘rsatilgan) belgilab borish bilan olib borildi.

Restoranning zalida tahlil uchun axborotlarni yig‘ish uchun kuzatishga qulay bo‘lgan joyni (barcha stollar yaxshi ko‘rinishi shart) tanlandi. Bunda 50-100 joyli restoranni bir tadqiqotchining o‘zi ham kuzatuvni amalga oshirishi mumkin. SHu bilan birga joylar soni qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik kuzatuvchilar soni ham ko‘payadi, albatta.

3.1-jadval

Kuzatuv xaritasi №1 90 o‘rinli restoran

Vaziyat nomeri	Stol rakami	Vaqti											
		12-05	12-10	12-15	12-20	12-25	12-30	12-35	12-40	12-45	12-50	12-55	13-00
1	1	04	P4	P4	P4	U4	S4			O2	O2	P2	P2
	2		O3	O3	P3	P3	P3	P3	U3		S3	O4	O4
	3	O2	O2	P2	P2	P2	P2	P2	P2	U2			S2
2	4									O3	O3	P3	P3
	5	O4	O4	P4	P4	P4	P4	U4	S4		O2	P2	P2
	6		O4	O4	P4	P4	P4	P4	U4	S4		O2	P2
3	7			O4	P4	P4	P4	P4	U4	S4		O4	P4

Izoh: O – xizmat ko‘rsatishni boshlanishini kutish; P-ovqatni iste’mol qilish; U-xizmat ko‘rsatish; S-iste’molchilarning kelishiga joy tayyorlash (idishlarni tozalash va taxminiy servirovka qilish).

Iste’molchining o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishda iste’molchilarning oqimini qayd etish qo‘lda yoki avtomatik ravishda zalning kirish yo‘lida qayd etildi (3.2-jadval), chiquvchi oqimlar esa (tarqatuvchining tarqatish qobiliyati) - tarqatish xonasini tark etgandan so‘ng faqat kiruvchilar o‘rniga chiquvchilar qayd etildi va 3.3-jadval to‘ldirildi.

3.2-jadval

№2 sonli kuzatuv xaritasi oshxona zalida[74]

Vaqt oralig‘i, soat-daqiqa	Kirib kelayotgan iste’molchilar oqimining kayd etilishi	Kirib kelayotgan iste’molchilar oqimi,kishi
8.00-8.05	I I I I I I I I I	10
8.05-8.10	I I I I I I	6
8.10-8.15	I I I I I	5
8.15-8.20	I I I I I I I	7
8.20-8.25	I I I I	4

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishda tarqatish xonasida navbatning uzunligini aniqlash uchun va zalning band bo‘lgan joylarining miqdorini aniqlashda lahzali kuzatuv usulidan foydalandik. Bunda ma’lum vaqtda zalda band bo‘lgan o‘rinlar soni, navbatda turganlar soni aniqlandi va 3.3-jadval ko‘rinishida belgilandi.

3.3-jadval.

№3 sonli kuzatuv xaritasi oshxona zalida[75]

Vakt oralig‘i, soat-daqiqa	Zalda band bo‘lgan o‘rinlar soni	Taqsimlash xonasidagi navbat, kishi
8.00-8.05	5	1
8.05-8.10	8	3
8.10-8.15	7	3
8.15-8.20	6	4
8.20-8.25	8	3
8.25-8.30	6	4

[74] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган
[75] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

Olingan axborotlarni qayta ko‘rishda bir qancha xizmat ko‘rsatish jarayonini xarakterlovchi parametrlari asosida aniqlandi: xizmat ko‘rsatish boshlanishini kutish vaqti; zalda band bo‘lgan joylar vaqti; zalda band bo‘lgan joylar vaqti; zalga iste’molchi oqimining intensiv kirishi; xizmat ko‘rsatish sistemasining chiqarish qobiliyati; zalning to‘lishi; zaldagi joylarning aylanishi va boshqalar. Xarita bo‘yicha iste’molchilar oqimining kirishi quyidagicha aniqlandi: jadvalga soat intervallari bo‘yicha iste’molchilarning kelish miqdori shu interval davomida belgilangan stolda joy olganligi belgilandi (3.4-jadval).

“YUlduz” restorani ovqatlanish zaliga xizmat ko‘rsatish tizimining o‘tkazish qobiliyatining o‘rtacha soatini shu shakl bo‘yicha 3.4-jadval asosida o‘tkazildi. 1 soat davomida zalni tark etgan iste’molchilar miqdori, soni ham yozildi.

3.4-jadval

“YUlduz” restoranida iste’molchilar oqimining intensivligi, kishi/soat[76]

vaziyat raqami	Stol rakami	12.00-13.00	13.01-14.00	14.01-15.00	15.01-16.00	16.01-17.00	17.01-18.00	18.01-19.00	19.01-20.00	20.01-21.00	21.01-22.00	22.01-23.00	Bir kunda
1	1	6	4	4	-	2	4	-	-	4			24
	2	7	3	4	-	2	-	-	4		4		24
	3	2	6	4	-	4	-	-	3	1		2	22
2	4	3	7	4	5	-	2	-	2	2			25
	5	6	3	6	4	-	4	-	4				27
	6	6	4	2	4	-	-	-	-		4		20
va x.z.													
7	19	8	4	4	4	3	-	-	4			2	29
	20	5	4	-	4	-	-	-	4			-	27
	21	4	6	6	3	4	2	2	2	4			33
Jami		**109**	**104**	**81**	**54**	**22**	**17**	**-**	**56**	**31**	**17**	**6**	**497**

[76] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish zalida ham ma’lum bir kiruvchi va chiquvchi iste’molchilarning intensivligini aniqlash ham 3.5-jadval asosida 3.6-jadval to‘ldirildi. Kuzatuv xaritalari asosida zalning to‘lishini aniqlash mumkin. Bunda ma’lum bir vaqt oralig‘ida zalda band bo‘lgan joylar asosida band bo‘lgan joylarning o‘rtacha arifmetik soni hisoblandi.

3.5-jadval

Umumiy ovqatlanish zaliga kiruvchi va chiquvchi iste’molchilarning intensivligi[77]

Vaqt soat/daqiqa	Iste’molchilar oqimining intensivligi			
	kiruvchilar		chiquvchilar	
	kishi/soat	kishi/soat	kishi/soat	kishi/soat
8.00-9.00	96	1,6	84	1,4
va x.z.				

3.6-jadval

Umumiy ovqatlanish zalida band bo‘lgan joylarning o‘rtacha arifmetik soni[78]

Vakt soat/daqiqa	Band bulgan joylarning umumiy soni	O‘lchovlar soni	Zalning o‘rtacha band bo‘lgan joyi	
			joy	%
8.00-8.30	48	6	8	22.2
va x.z.				

SHunday holda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish hamda ofitsiantlar tomonidan xizmat ko‘rsatishda bir joyning bandlikning va kutishning o‘rtacha vaqtini aniqlash mumkin bo‘ladi.

[77] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган
[78] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan joyning va o‘zi uchun zalning har soatida, ofitsiantlar xizmat ko‘rsatishida esa zalning ish vaqti oralig‘i-kunduzgi va kechqurungi vaqti hisobga olinadi.

Joyning bandligini aniqlash vaqti iste’molchi stolga kelib o‘tirgandan boshlab hisoblanadi. Ofitsiantlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat ko‘rsatish – xizmat ko‘rsatish boshlanishidan, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish esa taomni iste’mol qilishdan boshlanadi va stollarni servirovka qilish va ularni yig‘ishtirish bilan tugatiladi.

Xizmat ko‘rsatishni boshlanishini kutish vaqti va joyini band etish vaqti kuzatuv xaritasi asosida aniqlanadi. Agar 03 ustunida shartli ravishda 12 soat 15 daqiqa bo‘lsa, unda kuzatuv 12 soat 10 daqiqadan 12 soat 15 daqiqagacha o‘tkazilgan. SHu vaqt oralig‘ida bir kuzatuvda sarflangan vaqt kuzatuv soni davomiyligida oraliqqa bo‘linadi. Agar bir ishchi 5 ta holat bo‘yicha kuzatuv olib borsa, unda har bir kuzatuvga 1 daqiqa sarflaydi.

Bundan kelib chiqqan holda birinchi holatda kuzatuv vaqti 12 soat 11 daqiqa, ikkinchi ustun 12 soat 12 daqiqa, beshinchi ustun esa 12 soat 15 daqiqadan iborat bo‘ladi. Xuddi shu holatda harakatning boshi va oxirini aniqlandi.CHunki, vaqtning boshi va oxiridagi oralig‘i kutishning davomiyligi bilan bog‘liq.

3.7-jadval asosan ma’lum bir vaqt oralig‘i yoki bir kunda joyning aylanishini aniqlash mumkin. Bu uchun ma’lum bir vaqt davomida (soat yoki bir necha soat) tashkilot xizmatidan foydalangan iste’molchilar sonini, zaldagi joy soniga bo‘lish kerak bo‘ladi..

YUqorida ko‘rsatilgan usul asosida iste’molchiga ovqat tarqatish tizimidagi xizmat ko‘rsatish tadqiq etilib olingan natijalar 3.7-jadvalda kiritildi.

3.7-jadval

«Tarqatuvchi - iste’molchi» xizmat ko‘rsatuvchi tizimlarning tavsifi[79].

Doimiy iste’molchilar oqimining vaqt soat daqiqa	Vaqt oralig‘ining davomiyligi daqiqa	Istemolchi oqimining kirib kelishi kishi	Iste’molchi oqimining kirib kelish	Iste’molchilar oqimining [illegible]	Tarqatishning urtacha chiqarish qobiliyati kishi daqiqa	Tarqatish xonasida xizmat	Xizmat ko‘rsatish Vaqti,s			Navbatda turish, odam		Xizmat ko‘rsatishdan bosh tortgan iste’molchildarning
							o‘rtaach	minimal	maksimal	O‘rtacha	maksimal	
8.00 -8.25	25	50	2	32	1,2	5	39,5	33	50	8	12	18
8.25 -10.00	95	120	1,2	95	1	5	50	40	60	43	60	25
10.00 -10.55	55	140	2,5	75	1,3	4	47	35	60	53	60	65
10.55 -11.05	10	20	2	14	1,4	5	42	37	60	4	7	6
11.05 -12.00	30	160	5,3	120	4	5	46	42	60	48	59	40
12.00 -12.25	25	100	4	65	2,6	5	35	20	42	40	63	35
12.25 -13.15	50	210	4,2	100	2	4	32	25	40	43	57	110
13.15 -13.25	10	36	3,6	18	1,8	2	33,3	28	40	15	20	18
13.25 -14.10	45	110	2,4	63	1,4	2	43	27,3	80	10	17	47
14.10 -14.25	15	57	3,8	36	2,4	1	22,2	15	30	12	13	21
14.25 -15.35	70	52	0,7	10	0,1	2	38,5	25	100	16	23	42

[79] Тадқиқот асосида муаллиф томонидан тузилган

15.35 -15.40	5	10	2	8	1,6	2	30	25	60	12	12	2
15.40 -16.00	15	8	0,5	6	0,4	1	89,6	42,9	150	3	5	2
16.00 -17.00	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
17.00 -17.45	50	20	0,4	14	0,28	2	36,1	17,6	100	14	18	6
17.45 -18.10	25	120	0,8	39	1,56	1	51,7	25	75	6	15	81
18.10 -18.25	15	36	2,4	24	1,6	2	29	20	50	18	21	12
18.25 -19.00	30	48	1,6	32	1,0	2	32,8	27,3	60	16	18	16
19.00 -19.25	25	40	1,6	11	0,4	1	136,4	60	159	12	16	29
19.25 -19.55	30	105	3,5	63	2,1	1	54,5	30	100	13	16	42
19.55 -20.25	30	51	1,7	15	0,5	1	200	100	300	11	12	36
20.25 -20.45	20	62	3,1	53	2,6	1	80	42,9	150	12	12	9
20.45- 21.00	10	19	1,9	4	0,40	1	150	100	300	3	6	15
Jami:	685	1574	2,3	897	1,3							677

Tahlil jarayoni shuni ko‘rsatdiki, tahlil qilinayotgan korxonada 11 soat vaqt oralig‘ida iste’molchi oqimi 1574 kishini tashkil etgan bo‘lsa, shulardan 897 kishiga xizmat ko‘rsatilgan, 677 kishi esa xizmat ko‘rsatishdan bosh tortganligini ko‘rishimiz mumkin. Umumiy ovqatlanish korxonasida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda barcha iste’molchilar xizmat ko‘rsatishdan foydalanishi maksadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu tahlil ko‘rsatkichlari vizual sanash va formulalar bilan hisoblash yo‘li bilan bajarildi. Restoranda xizmat ko‘rsatish tahlil ko‘rsatkichlari 3.7-jadvalda keltirilgan. “YUlduz” restoranida yuqorida keltirilgandek xizmat ko‘rsatish ikki xil usul asosida: o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish va ofitsiantlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanilishini ko‘rib chiqdik.

Olib borilgan kuzatishlar asosida ushbu xizmat ko‘rsatish jarayonlarini bosqichlarga, pog‘onalarga va usullarga bo‘lish mumkinligi maqsadga muvofiqdir. Restoran mahsulotlarni tarqatish vositalari orqali tarkibiga sovitilgan va sovitilmaydigan vitrinalar, peshtaxtalar va 2 ta ekspress-kofevarka marmitlar va stoykalar kiradi. Bufetda ishlovchilar mahsulotni o‘zlari etkazib berishadi. Zalda taomlarni tik turgan holda stolda iste’mol qilishadi. Idishlarni patnisga bitta odam yig‘adi. Foydalanilgan idishlar stollarda 5 daqiqagacha qolib ketadi. Taomni iste’mol qilish 4 daqiqa davom etadi. Ko‘pincha iste’molchilarning kirish oqimining intensivligini va tarqatuvchilarning chiqarish qobiliyati iste’molchilar soni, umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlarni rad etganlar soni, o‘rtacha minimal va maksimal vaqtda tarqatish xonalarida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish vaqti, xizmat ko‘rsatish kanallarini bandlik koeffitsienti, o‘rtacha va maksimal vaqt kutish, zalning sig‘imi koeffitsienti va chiqarish qobiliyati, “tarqatuvchi-iste’molchi” xizmat ko‘rsatish tizimlarining bandlik koeffitsienti asosida hisoblandi.

“YUlduz” restoranida **x**izmat ko‘rsatish tizimlarini tahlil qilishda quyidagi hollarda olib boriladi:

- turli tipdagi oshxona va bufetlardan foydalanishda samaradorlikni baholash, ya’ni xizmat ko‘rsatish va band bo‘lgan kanallarning koeffitsienti pastligiga ta’sir etuvchi omillarni ochib berish;

- xizmat ko‘rsatish vaqtida iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish o‘zgarishlarni tahlil qilish, o‘zgarish sababalarini ochib berish;

- zaldan foydalanish samaradorligiga baho berish va uning chiqarish qobiliyatining pasayishi sababalarini o‘rganish;

- foydalangan, yig‘ilgan idishlarni tashkillashtirilishini tahlil qilish;

- to‘planib qolgan navbatlarning sababini tahlil qilish, hamda iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish sifatiga baxo berish;

- tashkilot xizmatidan foydlanishni xoxlamaslik sabablarini tahlil qilish, xizmat ko‘rsatishlarini xoxlamaganlarning sonini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish. Olib borilgan tadqiqot natijasida shuni ko‘rsatdiki, restoran moddiy texnika bazsidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun restoran ishlab chiqarishdagi jihozlarni modernizatsiya yo‘li bilan yaxshilash zamonaviy uskunalardan foydalanish kerak bo‘ladi. Korxonada xizmat ko‘rsatishning sifatini yaxshilash uchun xizmatning yangi xillarini joriy etish lozim bo‘ladi. CHunki, korxonada iste’molchilarning navbatda turishi, ayniqsa iste’mol xizmatlarini ololmay ketib qolishlari korxonaning imidjiga ta’sir etadi.

Tadqiqot vaqtida shu ma’lum bo‘ldiki, ertalabki o‘z-o‘ziga xizmat, kechki ofitsiantlar xizmatidagi kamchiliklar, taklif etilayotgan assortiment, taomnoma tarkibi, ko‘p holda ayrim iste’molchilarga ma’qul bo‘lmasdan, oxir oqibat ular ketib qolisha holatlari yuz bermoqda. Ushbu holat restoran xizmat sohasida qatta kamchiliklardan darak beradi. SHuning uchun, biz quyida bo‘limda ovqatlanish xizmatida yangi zamonaviy usullarni tadbiq etish bilan uning samaradorligini oshirishni ko‘rib chiqamiz.

“YUlduz” restoranida xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkillashtirish xaqidagi axborotlarni ilmiy asoslash uchun avvalo uning asosiy tarkibini aniqlash muhimdir. Uzluksiz ravishda iste’molchilarning kelishi (ma’lum bir vaqt ichida (soat, daqiqa, iste’molchilar soni, zalga kelishi) korxonaning tipi, ovqatlanuvchilarning soni,

ularning mehnat va dam olish tartibiga bog‘liqdir. Sanoat korxonalarining oshxonalarida barcha ishlar asosan konveyerga asoslangan bo‘lsa, iste’molchilar oqimi ko‘proq bo‘ladi.

Xizmat ko‘rsatish vaqti va tarqatish qobiliyati bu xizmat ko‘rsatishning shakli va tarqatish xonasining tipiga bog‘liqdir. Xizmat ko‘rsatishni kutish vaqti tarqatish xonasiga kelgan vaqtga yoki zalda taomni (ichimlikni) olib kelgunga qadar kutishga tengdir.

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish tashkilotlarida ekspress-tushlik restoranlarida 5 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan, ofitsiantlar tomonidan maxsus buyurtmalar asosida ko‘rsatiladigan xizmat ko‘rsatishda esa 15 daqiqadan ortmasligi shart. Kutish vaqti belgilangan normadan ortmasligi uchun iste’molchilarning intensiv oqimi tarqatish qobiliyati bilan o‘zaro mutanosiblikda bo‘lishi shart.

Agar iste’molchilar oqimining intensivligi tarqatish qobiliyatidan oshsa, unda navbat kutish ko‘payadi, aksincha esa tarqatish- o‘tib qolishi mumkin.O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishda iste’molchilarnning umumiy ovqatlanish korxonalarida umumiy vaqti tarqatishda navbatga turish, olingan mahsulotni stolga olib kelish va uni iste’mol qilishga; ofitsiantlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat ko‘rsatishda - avanzalda xizmat ko‘rstishni kutish, zalga kirish, buyurtmani kutish, uning bajarilishini kutish, ovqatlanish, dam olishdan iborat bo‘lishi kerak.Joyni band etish – zalda joyni egallash, foydalanilgan idishlarni yig‘ish va stollarni servirovka qilishdan iborat. Ish, talaba va o‘quvchilar oshxonalarida 15 daqiqadan 25 daqiqagacha, hammabop umumiy ovqatlanish korxonalarida 20 daqiqadan 30 daqiqagacha, ekspress-tushlik va nonushta restoranlarida esa 120 daqiqadan 160 daqiqadan iborat bo‘lishi talab etiladi.Zalning tarqatish qobiliyati – bu joylarning soni, ya’ni ma’lum bir vaqt oralig‘ida (15, 20, 25, 30, 40, 120 daqiqa) tarqatishning chiqarish qobiliyati tushuniladi. YUqorida bajarilgan “YUlduz” restorani misolida olib borilgan tadqiqotlar va olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, restoranlarda xizmatchi va iste’molchi tizimidagi xizmat ko‘rsatishni texnologik modernizatsiyasi va uning samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni bajarish lozim bo‘ladi:restoranda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar realizatsiyasi

bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, ya’ni ofitsiantlar tomonidan yoki o‘z o‘ziga xizmat ko‘rsatish usuli asosida olib borish kerak; xizmat ko‘rsatishda tayyor mahsulot realizatsiyasi xizmat ko‘rsatish usulidan kelib chiqgan holda ikki: tayyor mahsulotning realizatsiyasi va iste’molchi tashkillashtirish bosqichida olib borish lozim; tayyor mahsulotning realizatsiyasi (birinchi bosqichi) ofitsiantlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar 3.1- rasmda agar o‘z o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bo‘lsa; 3.1a- rasmda keltirilgan texnologik jarayonlar tuzilmasi asosida olib borilishini taklif etamiz; ovqatlanish korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molini tashkillashtirishda (ikkinchi bosqichda) ofitsiantlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar 3.1- rasmda , agar o‘z o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bo‘lsa, 3.1a- rasmda keltirilgan xizmat ko‘rsatish texnologik jarayonlar tuzilmasidan foydalanish lozim.Taklif etilgan ofitsiantlar bilan xizmat ko‘rsatish yoki o‘z o‘ziga xizmat ko‘rsatish tuzilmalardan xizmat ko‘rsatish xodimlari servis xizmat ko‘rsatish vaqtida bajarishlari shart bo‘lgan ishlar, ularning malaka majburiyatlari kiritilishini taklif qilamiz.

YUqorida qayd etilgan xizmat ko‘rsatish jarayonini texnologik modernizatsiyalash, xizmat ko‘rsatish va band bo‘lgan kanallarning foydalanish koeffitsientini, ovqatlanish zallaridan foydalanish samaradorligini, xizmat ko‘rsatishda navbat kutishni pasaytirish, xizmat

Tayyor mahsulotning realizatsiyasi (birinchi bosqich)

№	Asosiy xizmat jarayonlari	Xizmat ko‘rsatish jarayonlarining guruhlari	Guruhlar bajariladigan ishlar ro‘yxati	Bajariladigan ishlar sifati va samarasini oshirish
1.	Tarqatishga tayyorlash	Jihozlarni ishga tayyorlash	Jihozlarni yokish va kurib chikish	Nosoz bo‘lsa sozlashga berish yoki sozlash
			Kassa apparatini ishga tayyorlash	Sinovdan o‘tkazish chek urib ko‘rish
		Tarqatish jihozlarini mahsulotlar bilan to‘ldirish	Marmitlarni mahsulotlar bilan tuldirish	1 va 2 ovqatlar marmitlarini mos ravishda to‘ldirish
			Muz generatorini ozukaviy muzlar	
		Bufetlarni tayyorlash	Tovarlarni olish	Issiqlik, sovitish jihozlarini to‘g‘ri ishlashga ishonch hosil qilish
			Tovarlar bilan ta’minlash	
2.	Tayyor mahsulotni olish (tarqatish)	Mahsulotlarni olish xuquqini	Taomni tayyorlash uchun buyurtmani berish	Buyurtma aniqligiga ishonch hosil qilish, chekga va
			CHeklarni urib berish	

				mahsulot etiketiga mos bo‘lishiga erishish
			Mahsulotlarning markalarini ko‘rsatish	
		Taom va ichimliklarni tarqatish	Asosiy mahsulotlarni porsiyalash	Porsiyalashda taomnomada ko‘rsatilgan vazniga mos bo‘lishi,bezashda zamonaviy taom dizayni bajarish
			Garnirlarni porsiyalash	
			Souslarni porsiyalash	
			Taomni bezash	
		Taom va ichimliklarni olish	Markasi to‘g‘riligini bufetga chek va hujjatlarni oshxonaga berish	Belgilangan assortimentga olingan mahsulotlar saqlanish muddatiga rioya etish
			Taomlarni va ichimlikllarni olish (assortiment asosida)	
3.	Tarqatish xonasida ishlarni tugatish	Tarqatish xonasini tozalash	Qolgan mahsulotlarni saqlashga berish	Sanitariya gigiena qoidalarini, mahsulotlar saqlash rejimini bajarish
			Ish joyini tozalash	
		Qilingan ishlar bo‘yicha hisobot	Kassa apparatidan schyotchik ko‘rsatkichlarini echib olish	Ko‘rsatkichlarni oldingisi bilan taqqoslash, hujjatlarni sinchkovlik bilan tekshirish
			Berilgan mahsulot kiymati va schyotchikdagi ko‘rsatkich orasidagi boglikligini hujjatashtirish	
			Tushgan daromadni topshirish	

3.1-rasm. Ofitsantlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat ko‘rsatish jarayonining tuzilmasi[80]

Iste’molni tashkillashtirish
(ikkinchi bosqich)

№	Asosiy xizmat jarayonlari	Xizmat ko‘rsatish jarayonlarining guruhlari	Guruhlar bajariladigan ishlar ro‘yxati	Bajariladigan ishlar sifati va samarasini oshirish
	Iste’molchilarni qabul qilish jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish	Iste’molchilar uchun binolarni tayyorlash	Pollarni tozalash	Tozalash ishlarida zamonaviy texnik vositalardan keng ko‘lamda foydalanish
			Gilam-dorojkalarni tozalash	
			Mebellarni artib chikish	
			Moddiy-texnik ta’minot predmetlari bilan ta’minlash	
		Personalni xizmat ko‘rsatish uchun tayyorlash	Ish boshlashdan oldin instruktaj o‘tkazish	Instruktajda shaxsiy namuna ko‘rsatish
			SHaxsiy tayyorgarlik kurish	
		Stollarni servirovka qilish	Stol belyosini olish	Ushbu ishlarni bajarishda yuqori kasbiy etiket qoidalariga rioya etish,
			Uni zalga olib kelish	
			Stollarni dasturxon billan bezash	
			Oshxona idishlari va priborlarini olish	

[80] Муаллиф ишланмаси

			Ularni saykallash	iste'molchiga noqulay vaziyat yaratmasdan barcha servirovka ishlarini oldindan bajarish yoki ish davrida maksimal diqqatni oshirish
			Ziravorlarni tayyorlash	
			Stollarga servirovka narsalarini kuyish	
			Guldonlarni gul bian tayyorlab kuyish	
			Idishlarni, ziravorlarni, guldonlarni gul bilan olib kelish	
	Iste'molchilarga zalda xizmat ko'rsatish	Xizmatni ko'rsatish uchun buyurtmalarni qabul qilish	Iste'molchilarni kutib olish	Butun ish davomida iste'molchilar bilan muloqotda, xizmat ko'rsatuvchilar o'zlarining tashqi ko'rinishlarida sanitariya gigiena talablarini bajarishlari, vaqt vaqti bilan xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan barcha vositalarning tozaligiga qat'iy rioya etishlari
			Taom va ichimliklar uchun buyurtma olish	
		Taom va ichimliklarni tarqatish	Tayyor mahsulotni zalga olib kelish	
			Ularni porsiyalash	
			taom va ichimliklarni stolga qo'yish	
		Iste'molchilar bilan hisob-kitob	Hisob-kitobni rasmiylashtirish	
			Pulli (talon buyicha) hisob-kitob	
		YAngi buyurtmalarni bajarishga tayyorgarlik kurish	Foydalanilgan idish va salfetkalarni yig'ish	
			Ularni yuvish xonasiga olib borib berish	
			Toza idish va salfetkalarni olish	
			Ularni zalga olib kelish	
			Servirovka narsa-larini stolga kuyish	

3.1a- rasm. Ofitsiantlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat ko'rsatish jarayonining tuzilmasi

Tayyor mahsulotning realizatsiyasi (birinchi bosqich)

№	Asosiy xizmat jarayonlari	Xizmat ko'rsatish jarayonlarining guruhlari	Guruhlar bajariladigan ishlar ro'yxati	Bajariladigan ishlar sifati va samaradorligini oshirish
	Tarqatishga tayyorlash	Jihozlarni ishga tayyorlash	Tarqatish jihozlarini yoqilganligini ko'rish va tekshirish	Jihozlarni ishga tayyorlashda barcha nosozliklarni oldindan bartaraf etish, ularning sanitar gigienik holatiga e'tibor berish, olingan mahsulotlar va taomlar sifatini tekshirish, yaxshilanganligini ta'minlash
			Hisob-kitob yuritadigan tarmokni ishga tayyorlash	
		Tarqatish jihozlarini mahsulotlar bilan to'ldirish	Mahsulotlarni olish (oshxonadan)	
			Peshtaxtalarni va sovitadigan vitrinalarni, marmitlarni mahsulotlar bilanto'ldirish	
	Tarqatish xonasida iste'molchilarga xizmat	Mahsulotlarni tarqatish(assortiment asosida)	Asosiy mahsulotlarni porsiyalash	
			Garnirlarni porsiyalash	

	ko‘rsatish		Sous va boshqalarni porsiyalash	Porsiyalashda assortimentda ko‘rsatilgan massasiga rioya etish, taomlar tarkibini aralashtirmaslik, iste’molchilar bilan hisob kitobni to‘g‘ri rasmiylashtirish
		Iste’molchilar bilan hisob-kitob qilish	Kassa apparatida cheklarni urib berish	
			Pulli yoki abonementli hisob-kitob qilish	
	Tarqatish xonasida ishlarni tugatish	Tarqatish xonasini tozalash	Qolgan mahsulotlarni saqlash uchun topshirish	Tozalashda zamonaviy vositalardan foydlanilgan holda sanitariya gigiena qoidalariga rioya etish. Rasmiylashtirishda hujjatlar mosligini tekshirish to‘g‘riligini ta’minlash
			Ish joyini tozalash	
		Qilingan ishlar bo‘yicha hisobot	Kassa apparatidan schetchikning ko‘rsatkichini	
			Realizatsiya qilinganmahsulotlar ko‘rsatkichi va schyotchikning ko‘rsatkichlari orasidagi mosligini hujjatlashti-rib rasmiylashti-riladi	

3.2-rasm. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish jarayonining tuzilmasi

Iste’molni tashkillashtirish
(ikkinchi bosqich)

№	Asosiy xizmat jarayonlari	Xizmat ko‘rsatish jarayonlarining guruhlari	Guruhlar bajariladigan ishlar ro‘yxati	Bajariladigan ishlar sifati va samaradorligini oshirish
	Iste’molchilarni qabul qilish jarayoniga tayyorgarlik kurish	Iste’mol-chilar uchun binoni (xonalarni) tayyorlash	Mebel va deraza ostilarini artish	Iste’molchilar uchun xonalarni shamollatib turish, konditsirlash,uning harorati, namligi, havo tezligi komfort talabida bo‘lishini ta’minlash
			Pollarni yuvish (artish), gilamli qoplamalarni tozalash	
			Ko‘rsatilgan moddiy-texnik ta’minot predmetlari bilanta’minlash	
		Stollarni servirovkalash	Guli vazalarni tayyorlash	Servirovkani oldindan yoki iste’molchiga noqulaylik yaratmasdan, yuqorida darajada bajarish uning to‘liqligini ta’minlash
			Stollarda idishlarni servirovkalash	
			Tuz, ziravorlarni tayyorlash, salfetkalarni, oshxona idishlari va boshqalarni olish	
		Xizmat ko‘rsatishga personalni tayyorlash	Ish kunining boshida instruktajo‘tkazish	Ish kuni davomida tashqi ko‘rinishda kasbiy etikasiga qoidalarini qat’iylik bilan bajarish
			SHaxsiy tayyorgarlik	
	Iste’molchilarga zalda xizmat ko‘rsatish	Zallarni tozalash	Foydalanilgan idishlarni yig‘ish	Tozalashda zamonaviy vositalardan foydalanish, zalni shamolatish, konditserlash, komfort metrologik harorat, namlik va havo tezligi sharoitini yaratish
			Idishlarni yuvishxonasiga berish	
			Zalda va stollarda tozalikka rioya qilish	
		Xizmat ko‘rsatish jarayonini tartibga solib turish	Xizmat ko‘rsatish uchun taxminiy buyurtmalarni qabul qilish	Barcha ishlarda xushmuomalada bo‘lish, etika etiket qoidalariga rioya etish
			Zalga iste’molchilarni kelish oqimini tartibgasolish	

3.2a- rasm. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish jarayonining tuzilmasi

ko‘rsatishni xohlamagan iste’molchilar sonini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini tubdan o‘zgartirish va h.k.., samaradorligini oshirishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shuningdek, umumiy ovqatlanish korxonalaridagi xizmat ko‘rsatishni samaradorligini oshirishda yuqorida keltirilgan xizmat ko‘rsatish texnologik jarayonlar tuzilmasi va olingan natijalarni

korxonada xizmat ko‘rsatish sohasidagi kadrlarni o‘rgatib ularda amaliy ko‘nikmalar hosil qildirish lozim bo‘ladi.

3.2. Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish.

Ma’lumki, O‘zbekistonda mavjud umumiy ovqatlanish korxonalari o‘zlarining turli ovqatlanish mahsulotlarini va ko‘rsatilayotgan xizmatlarining sifat darajasini aniqlash, baholash va nazoratini olib boorish dolzarb masalardan hisoblanadi. Ammo, hozirgi vaqtda “sifat”ning yagona ilmiy asoslangan sharxi mavjud emas va uning ta’rifi ham ilmiy, rasmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Kuyida ovqatlanish korxonalari mahsulotlari va xizmatlar sifati ta’riflarining qisqacha **u**lardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz. Xalqaro MS ISO 8402-94 standartlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sifati «xizmat ko‘rsatish tavsiflari majmuasi, ular xizmat ko‘rsatishni shartlashilgan yoki taxmin qilingan ehtiyojlarni qanoatlantirishga layoqatli qiladilar»[81]. Sifatga shunday ta’rif Xalqaro ISO seriyasi MS ISO 9000 – 1994, MS ISO 9000 – 9004[82] standartlarida ham qabul qilingan.. YAngi xalqaro ISO MS ISO 9000-2000[83] va MS ISO 9000-2004 seriyali standartlarda sifat talablarga xos darajasi kabi xarakterlanadi yoki keng ma’noda sifat ehtiyojlarning farq qiluvchi xossalariga mos darajasi sifatida yoki taxminiy yoki albatta majburiy tarzda o‘rnatilgan kutilmalarga mos darajada xarakterlanadi. GOST 15467-79 bo‘yicha mahsulot sifati mahsulotning shunday xossalari majmuasiki, u tayinlanishiga muvofiq ravishda ma’lum extiyojlarni qanoatlantirishga qodirligi bilan belgilanadi (16). GOST R 50791-94 ham xizmat ko‘rsatishlar va mahsulot sifatini xizmat ko‘rsatishlar xarakteristikalari majmuasi sifatida belgilaydi, ular iste’molchining belgilangan yoki mo‘ljallanayotgan ehtiyojini qanoatlantirish qobiliyatini aniqlaydi. Ga GOST R ISO 9000-2001[84] (37) «sifat» terminini yomon, yaxshi, a’lo darajada deb ataladigan sifatlar bilan qo‘llanishni tavsiya qiladi. V.N.Golubev va M.P.Mogilnыy tomonidan va GOST R 50764-95 bo‘yicha mahsulot va xizmat ko‘rsatish sifatiga bir xil ta’rif berilgan, u

[81] meganorm.ru/Index2/1/4294850/4294850887.htm
[82] statistica.ru/local-portals/quality-control/standarty-iso-9000-1994
[83] statistica.ru/local-portals/quality-control/standarty-iso-9000-versiya-2000-goda/

[84] docs.cntd.ru/document/1200015260

xizmat ko‘rsatishlar yoki mahsulotlar tavsiflarining shunday tavsiflari majmo‘iga keltiriladiki, ular iste’molchining belgilangan yoki taxmin qilinayotgan extiyojlarini qanoatlantira olish qobiliyatini aniqlab beradi. «Sifatni boshqarish. Terminologik lug‘at» kitobida mahsulot (xizmat ko‘rsatishlar) xossalari utilizatsiya yoki yo‘q qilish ham kiritilgan holda qo‘yilgan maqsadga ko‘ra foydalanishda talab etilgan ehtiyojlarni u yoki bu darajada qanoatlantira olishga potensial yoki real qobiliyatli mahsulotlar (xizmat ko‘rsatishlar)ning muayyan majmuasi sifatida xarakterlanadi. Sifatning nisbatan qabul qilib olinishi mumkin bo‘lgan ta’rifi Xalqaro MS ISO 8402-94 standartida berilgan ta’riflar xisoblanadi.

Ayrim xorijiy adabiyotda mahsulot sifati mahsulotlar va xizmat ko‘rsatuvlarning iste’molchilar talablariga muvofiqligi deb tushuniladi, ba’zan foydalanishga yaroqlilik deb ifodalanadi. Sifat – bu mehmon extiyojiga javob beruvchi xizmat. SHunga ko‘ra, dunyoning rivojlangan mamlakatlari davlatning obro‘sini ko‘rsatadigan mahsulotning (xizmatning) yuqori sifatini strategik, tijoraviy imperativ, milliy boylik manbai sifatida qabul qiladilar, boshqacha aytganda mahsulot sifati har bir odam va butun bir jamiyatning extiyojini qanoatlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi, bozorda xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalar raqobatbardoshligining muhim tashkil etuvchisidir.

K.Grondusning fikricha, sifat-mehmonning sezgisi. Uning ta’biricha sifatda ikki aspekt mavjud: texnik va funksional. Texnik aspekt asosan ishlab chiqarish mahsulotini tavsiflaydi, funksional aspekt esa – mehmon yoki iste’molchi oladigan xizmat usuli. Masalan, qovurilmagan go‘sht yoki dizayni past darajadagi, stul va stollari siniq zal mexmonlarda ko‘rsatilayotgan xizmat yoki mahsulotga boshqacha taassurot qoldiradi. Aynan shu xizmat mahsulot sifatining texnik aspekti bilan bog‘likdir. Iste’molchi bu aspektni real baholay oladi. Iste’molchining texnik aspekt ta’siri ostida shakllangan fikri mahsulot va xizmat sifatining ikkinchi aspektini kuchli o‘zgartirishi mumkin. Masalan, yaxshi qovurilgan go‘sht ofitsiant tomonidan xo‘mraygan yoki tabassum bilan berilishi mumkin. Birinchi holda, garchi go‘sht yuqori sifatda bo‘lsa ham, xizmat kursatish yoki mahsulot sifati juda pasayadi, ikkinchi holda esa xizmat kursatish va mahsulot sifati juda yuqori

ko‘tarilishi mumkin. SHunday qilib, iste’molchida ko‘rsatilayotgan xizmat va mahsulot sifati ikkala aspekt ta’siri ostida shakllanadi. SHu bilan birga, ikkinchi aspekt birinchisiga qaraganda muhimroq va kengroqdir. Ikkinchi aspekt nafaqat xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning iste’molchilar bilan xushmuomilaligini, ularning etikasini (nutqiy madaniyat, mimika, qadam tashlashlarini), kiyim uslubini va xizmat ko‘rsatish paytida o‘zini tuta bilishini ham o‘z ichiga oladi. Sifatning ikkinchi aspektini o‘lchash ham qiyinroq, chunki u iste’molchining ko‘rsatilgan xizmat va mahsulot, ko‘rsatilgan xizmatdan olgan taassuroti haqidagi sub’ektiv fikriga asoslanadi.

YUqorida bayon qilinganlarga asoslanib mahsulot va xizmatlar sifatining mazmuni yoki mohiyatini quyidagicha ta’riflash mumkin:

– sifat – bu iste’molchilarning to‘g‘ri aniqlangan ehtiyojlari. Bunda shunday konsepsiya nazarda tutiladiki, unga qaraganda iste’molchilar extiyojigagina muvofiq ravishda mahsulot yoki xizmat taqdim etilishi kerak.

– sifat – bu to‘g‘ri ko‘rsatilgan xizmatlar, bunda xizmatlar nafaqat iste’molchining extiyojlariga muvofiq bo‘lishi kerak (texnik aspekt), shu bilan birga xizmat ko‘rsatishlarning barcha tizimi iste’molchilarga qulaylikni to‘liq yaratish, xodimlarning iste’molchilar bilan shaxsiy yaxshi munosabatlari va iste’molchilarning etik madaniyat va ovqatlanish zalining dizayn va shu kabilarni ko‘zda tutishi kerak;

– sifat – bu doimiylik. Bunda xizmatlar va mahsulotni doimo yuqori darajada taqdim etish maqsadga muvofiq ekanligi ko‘zda tutiladi. Bu esa sifat – ijrochi tomonidan har soat, kun va yilda o‘z funksional vazifalarini yaxshi bajarishi lozimligini bildiradi.

Davlatlararo GOST 30523-97/GOST R 50764-95 standarti tomonidan umumiy ovqatlanish xizmatlari sifati ta’rifi berilgan, unga ko‘ra umumiy ovqatlanish xizmati sifati: iste’molchining belgilangan yoki taxminiy extiyojlarini qanoatlantirishga qodirligini belgilovchi xizmat tavsiflari majmui.

GOST R 50647-94 bo‘yicha yuqorida aytilganicha, kulinariya mahsulotining sifati – unga keyingi ishlov berishga yoki ovqatga ishlatishga yaroqliligi,

iste’molchilar sog‘lig‘i uchun xavfsizligi, tarkibi va iste’moliy xususiyatlarining stabilligi bilan belgilanadi. Kulinariya mahsulotining sifati uni tashkil etuvchi mahsulotlarga bog‘liq. Kulinariya mahsulotini tayyorlash uchun ozuqa mahsulotining keng assortimenti ishlatiladi, shunga ko‘ra umumiy ovqatlanish mahsuloti ko‘pgina xususiyatlarga ega, ular mahsulotni tayyorlash va iste’mol qilishda, ya’ni tayyorlash, ishlab chiqarish, saqlash, tashish va foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Mahsulotning oziqaviy qimmatliligi – bu shunday kompleks ko‘rsatkichki, u oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, mineral moddalar tarkibi bilan, biologik qiymatliligi esa – vitaminlar, gormonlar kabi biologik faol moddalar kompleks tarkibi bilan tavsiflanadi. Kulinar tayyorlik deb iste’mol qilishga yaroqli qiladigan fizik-kimyoviy, strukturavy-mexanik va organoleptik xossalar kompleksi bilan tavsiflanadigan taomning ma’lum bir holati tushuniladi. Organoleptik qiymatlilik – bu murakkab ko‘rsatkich, o‘ziga tashqi ko‘rinish, rang, konsistensiya, ta’m, xushbo‘y hid kabilardan iborat, ballarda o‘lchanadi. Energetik qiymatlilik kulinariya mahsulotining iste’molchining organizmida issiqliq ajrataolishlik qobiliyatini tavsiflalaydi, oqsillar, yog‘lar, uglevodlarning miqdoriy tarkibi va ularning organizmda grammlarda issiqliqni ajratishga layoqati bilan aniqlanadi.

Kulinariya mahsuloti sifatining kompleks ko‘rsatkichini quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$K_0 = \sum_{x}^{n} K_i k_i ,$$

K_0 - analiz qilinayotgan mahsulotning «n» ta har xil xossasini xarakterlaydi;

K_i - baholanadigan mahsulot i - xossasining ko‘rsatkichi;

k_i - ko‘rsatkich vazminlik koeffitsienti.

Mahsulot sifati kompleks ko‘rsatkichini aniqlash uchun bu ko‘rsatkichga kiruvchi barcha xossalar bitta o‘lchov birligida o‘lchanishlari kerak, masalan, ballarda, kkal larda va sh.k. Umumiy ovqatlanish mahsuloti kompleks ko‘rsatkich uchun xozirgi vaktda eng qulay o‘lchov birligi ball tizimidir.

Kulinariya mahsuloti sifatining aniqlovchi ko‘rsatkichi – bu shunday ko‘rsatkichki, u bo‘yicha sifatni baholashga qaror qilinadi. Masalan, ballarda o‘lchanadigan xususiyatlar majmui bo‘yicha kulinariya mahsuloti sifatini baholash zarur bo‘lganda. Amaliyotda qabul qilinganicha, har qaysi ko‘rsatkich 1 dan 5 gacha ballga ega bo‘lishi mumkin: a’lo-5, yaxshi-4, qoniqarli-3, yomon-2, qoniqarsiz-1. Umumiy ovqatlanish tizimda ovqat brakeraje haqidagi nizomga muvofiq kulinariya mahsuloti sifatini baholash uchun mahsulot sifati ko‘rsatkichining vazn koeffitsientini e’tiborga olmaydigan 5 – balli tizimidan foydalaniladi.

Mahsulot sifatining integralli ko‘rsatkichi iste’moldan jamlangan foydali effektning uni yaratish va ishlatish yoki iste’mol qilish uchun jamlangan xarajatlarga nisbati kabi aniqlanadi. Umumiy ovqatlanish mahsuloti uchun shunday ko‘rsatkichga misol qilib ozuqaviy qimmatlilik ko‘rsatkichini keltirish mumkin. «Ozuqaviy qiymat» ozuqaviy, biologik, organoleptik qiymatlarni umumiylashtiradi ya’ni o‘z ichiga oladi. Lekin amalda umumiy ovqatlanish mahsuloti taomiy baho ko‘rsatkichi turli o‘lchov birligiga ega ekanligidan aniqlanmaydi, masalan, agar oziqaviy qiymati kkal larda o‘lchansa, organoleptik bahosi ballarda o‘lchanadi. Amalda foydalanish uchun oziqa qiymatlarini ko‘rsatkichlarining barcha elementlarini bitta o‘lchov birligiga, masalan, ballarga keltirish kerak.

Xizmat ko‘rsatish yoki mahsulot sifatning muayyan darajasiga ega bo‘lishi zarur. Sifat ko‘rsatkichlarini baholash darajasi bo‘yicha quyidagilarga ajratadilar: bazaviy; qiyosiy; nominal; cheklangan.

Bazaviy ko‘rsatkich –sifatning shunday ko‘rsatkichiki, uning qiymati mahsulot yoki sifatning haqiqiy kattaligi bilan solishtiriladi, ya’ni sifat ko‘rsatkichining bazaviy qiymati – bu mahsulot sifatini qiyosiy baholashda asos sifatida olinadi. Bazaviy qiymatlar sifatida vatanimiz va xorijiy eng yaxshi namunalarning qiymatlari qabul qilinishi mumkinki, ularning sifatiga doir ishonchli ma’lumotlar ilgari nazariy yoki eksperimental usullar bilan topilgan yoki perspektivada olinadigan bo‘lib, sifat ko‘rsatkichlarining bu qiymatlari

mahsulotga nisbatan talablarda berilgandirlar (GOSTlar, OSTlar, TU, Retsepturalar to‘plamlari va shu kabilar).

Ma’lumki, ovqatlanish mahsulotlari sifati deganda, ovqatlanishda odamlarning ovqatga bo‘lgan ratsional talablarini qondirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste’mol xususiyatlari qobiliyatlari tushuniladi.

Albatta, mahsulot sifati bilan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Ularning darajasini aniqlashda sifat ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Korxonalar faoliyatidagi mahsulot va xizmat sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash ularni miqdoriy tahlilini olib borishga yordam beradi va korxona faoliyatidagi “nozik” joylarni aniqlab, uning ichki zahiralari yoki tashqi omillar hisobidan, ya’ni xom ashyo bilan ta’minlash, yarim tayyor mahsulotlar va jihozlar, inventarlarni yangilash va boshqalar bilan tashkil qilishga undaydi.

Hozirgi vaqtda umumiy ovqatlanish korxonalarni mahsuloti va xizmat ko‘rsatish sifatini aniqlashtiruvchi ko‘plab usullar mavjudki, ular asosan umumiy baholashga asoslangan va hammavaqt ham asoslangan natijalarga olib kelmaydi. SHuning uchun, ushbu ishimizda biz ovqatlanish korxonalar mahsulot sifatida xizmat ko‘rsatish sifatini alohida-alohida hisoblab, so‘ng bir butun bahoni (darajani) chiqarish usulini ishlab chiqishga harakat qildik.

Ovqatlanish korxonasining ovqatlanish sifatini aniqlash uchun korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot - ovqatlar sifati va savdo zalidagi ko‘rsatilgan xizmat sifati bo‘yicha aniqlaymiz:

Birinchi sifat ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Mahsulot sifat ko‘rsatkichlar asosida: ovqatlar-mahsulotlar ta’mi, xususiyatlari, ovqatlar turi, xili, tashqi ko‘rinishi va ishlab chiqarish dasturga mosligi, baholash darajasi va boshqalarni olish mumkin.

Xizmat ko‘rsatish sifat ko‘rsatkichlariga: ovqatni suzish, berish qoidasiga amal etilishi, ovqatlarning bezalishi, savdo zalining komfortligi, sanitar holati, estetik ko‘rinishi, mebellarning qulayligi, xodimlarning etika-etiket qoidalariga rioya etishlari, xizmat ko‘rsatishning tezligi, stolning servirovkasi, idish-tovoq va

priborlarning sifati, hisob kitob aniqligi, musiqali xizmat sifati, ko‘ngil ochar dasturlarning mavjudligi va boshqalarni olish mumkin.

Ushbu sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash mezoni aniqlanadi va 2, 3, 4, 5 ballarda baholanadi.

Mahsulot sifat ko‘rsatkichlarini korxonadagi «Brakeraj» jurnali ma’lumotlardan olish mumkin. Xuddi shuningdek, mahsulot xizmat ko‘rsatishni sifatiga berilgan bahoni «anketa so‘rovi» yoki korxonada qo‘yilgan hisoblagich orqali bajarish mumkin. Buning uchun korxonada mutasadi xodimlardan sifat komissiyasi tuzilishi lozim bo‘ladi va barcha ishlar shu komissiyaga topshiriladi.

Aniqlangan mahsulotlar maxsus shakldagi 1 va 2-jadvallarga kiritilib, qayta ishlov olib boriladi va korxonadagi mahsulot sifati va xizmat ko‘rsatish sifati ballarda baholanadi.(balli xisoblar).

YUqorida keltirilganlarni «YUlduz» restorani misolida ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, restoranda turli taomlar ishlab chiqiladi. Ularning turlanishi turi (xili) bo‘yicha: birinchi, ikkinchi, gazaklar, shirin taomlar, salqin ichimliklar va qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ular tayyorlanadigan xom ashyosining tarkibi bo‘yicha: go‘shtli, baliqli, sabzavotli, krupali, sutli, unli va tuxumli bo‘lishi, hamda berilishi harorati bo‘yicha issiq va sovuq bo‘lishi mumkin.

SHulardan kelib chiqib, ayniqsa ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va ular orqali sifatni baholash va nazoratini olib borish echimini aniqlash zarur bo‘lgan masala hisoblanadi. SHuning uchun biz umumiy ovqatlnish korxonalarini modernizatsiyalash va uning samaradorligini oshirish uchun mavjud umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmat ko‘rsatish sifatining ko‘rsatkichlari tizimini tahlilini olib borib takomillashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqdik.

Mahsulot va xizmatlar tashkil etuvchi ovqatlanish sifati va ishlab chiqarish-savdo sharoiti ko‘rsatkichlari tizimini rasmda keltirdik.

Ma’lumki, umumiy ovqatlanish korxonasi ish faoliyatida asosan uch funksiyani: tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, mahsulotlarni realizatsiyasi

(bo‘lim, muomalaga chiqarish, tarqatish) iste’molni tashkil etishni bajaradi. Bundagi oxirgi ikki funksiyasi xizmat ko‘rsatishga kiradi. Xuddi shuningdek, mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan birga tayyor mahsulotlarni ham sotib olib xizmat ko‘rsatishadi. Ana shunday fuksiyalarni hisobga olgan holda mahsulotlar sifati: o‘zida ishlab chiqarilgan va chetdan sotib olingan tovarlarga bo‘linadi. Xizmatlar sifatini esa mahsulotlarni realizatsiyasi xizmatlari va iste’molni tashkil etish sifatini tashkil etadi.

Agar o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati ko‘rsatkichiga, mahsulotlarning ishlab chiqarish dasturiga mosligini hisobga olingan bo‘lsa, sotib olingan mahsulotlar sifatiga ularning assortimenti (kengligi, to‘laligi, yangiligi, baholash darajasi) tovar tashqi ko‘rinishi (aksiz markasi, ochilgan yoki ochilmaganligi, qo‘llash muddati) sifat ko‘rsatkichlari kiritiladi.


Korxonada ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini baholash va nazoratini to‘laligini amalga oshirish uchun uni ham realizatsiya qilish xizmatlar sifatiga va ovqat iste’molini tashkil etish sifatiga bo‘ldik.

Mahsulotlarni realizatsiyasi xizmatlari sifati o‘z tarkibiga tayyor ovqatlarni suzish, taqdim etish qoidalariga amal etish, uzatiladigan ovqatlarning harorati, qancha vaqt saqlangan vaqti va beriladigan ovqatlarning bezash sifati hisobiga olingan.

Iste’molni tashkil etish sifat ko‘rsatkichlariga savdo zalining holati (komfortligi, sanitar-gigienik holat, estetik ko‘rinishi va mavjud savdo ovqatlanish mebellarining qulayligi) xizmat ko‘rsatish darajasi
(personalning etika va etiket qoidalariga amal qilishni, xizmat ko‘rsatish tezligi, stol servirovkasi, ovqatlanish idish tovoqlarning, priborlarning sifati va iste’molchilar bilan hisob kitob qilishning to‘g‘riligi) ovqatlanish vaqtida dam olishni tashkil etish (musiqiy xizmatlarning sifat, ko‘ngil ochar dasturlarning mavjudligi va boshqalar) sifat ko‘rsatkichlari tashkil etadi.

Albatta ovqatlanish sifat ko‘rsatkichlari tizimiga ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sharoiti sifat ko‘rsatkichlari ham ushbu tizimning to‘laligini tashkil etadi.

Keltirilgan mahsulotlar va xizmatlar sifatini tashkil etuvchi ovqatlanish sifati va ishlab chiqarish-savdo sharoiti ko‘rsatkichlar


Овқатланиш ва савдо хизматлар сифати
Маҳсулот сифати
Хизмат кўрсатиш сифати
Ўзида ишлаб чиқарилган маҳсулот сифати
Сотиб олинган маҳсулот сифати
Реализация хизмат кўрсатиш сифати
Истеъмолни ташкил этиш хизмат кўрсатиш сифати
Маҳсулот таъм хусусиятлари
Овқатлар турли хиллиги
Овқатнинг ташқи кўриниши
Ишлаб чиқариш дастурига мослиги
Ассортимент
Маҳсулотнинг ташқи кўриниши
Кенглиги, тўлалиги, янгилиги, баҳолаш даражаси
Акциз марка борлиги, очилган, очилмаганлиги, ишлаб чиқарилган санаси, истеъмол муддати
Овқатни сузиш тақдим этиш қоидаси
Овқатлар харорати ва сақлаш вакти
Овқатни безаш сифати
Савдо залининг сифати
Хизмат кўрсатиш даражаси
Дам олишни ташкил этиш
Ишлаб чиқариш шароити
Сотиб олинган маҳсулот саклаш шароити
Реализация хизмат кўрсатиш шароити
Комфортлилиги, санитар ҳолати, эстетик кўриниши
Персонал этик коидаларни бажариши; Хизмат кўрсатиш тезлиги; Стол сервировкаси; Идиш товоқ сифати; Ҳисоб китоб тўғрилиги;
Мусиқий хизмат сифати; Кўнгил очар дастурлар ва бошқалар
Истемолни ташкил этиш хизмат кўрсатиш шароити
Асосий техналогик жараённи ёрдамчи ишларни ташкил этиш
Хомашё ва ярим тайёр маҳсулотлар ассортименти ва сифати
Ишлаб чиқариш техникавий даражаси ва жиҳозларнинг эксплуатацион тавсифи
Сақлаш омбори, транспортировкалаш шароити
Хизмат кўрсатиш технологияси
Хизмат кўрсатишни ташкил этиш
Хизмат кўрсатиш системасини мустаҳкамлиги, истеъмоллилиги ва истеъмолчилар окимининг нотекислиги
Хизмат кўрсатиш маданияти ва санитар гигиеник ва эстетик шароити
Корхона жойлашган жойи залнинг ишлаш режими

3.3 – rasm. Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifati ko‘rsatkichlarning takomillashtirilgan tizimi[85]

3.3. Umumiy ovqatlanish korxonalarida ko‘rsatiladigan xizmatlarni xodimlar mehnati sifati bilan baholash va hisoblash.

“YUlduz” restoranida xizmat ko‘rsatishning sifatini oshirish bo‘yicha olib borilgan, tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, restoranda xizmat ko‘rsatishning sifatini oshirishda uzluksiz sifat nazoratini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Uzluksiz sifat nazoratini olib borishda tekshirish rejasini tuzish, uni amalga oshirish,tekshirish natijalarini qayd etib borish va muntazam ravishda rejaga asosan faolityadagi harakatga muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi. SHuning uchun biz restoranda brakeraj jarayonini takomillashtirilgan shaklda olib borishni tavsiya etamiz.

Restoranda mahsulotlar (taomlar)ning uzuluksiz nazoratini tashkil etishda brakerajning tizimli olib borish bo‘yicha fikrlarni quyida ko‘rib chiqamiz**.**

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga yuqori talablarni qo‘yadi. Bu har qanday korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, tovar va xizmatlar bozoridagi barqaror holati uning raqobatbardoshlik darajasiga ko‘ra belgilanadi. Raqobatbardoshlik esa korxonalarda sifatni muntazam ravishda takomillashtirishni talab etadi.

Sifatni muntazam takomillashtirish o‘z-o‘zicha bo‘lmaydi. Har qanday faoliyat har qanday mehnat – bu turli xildagi bosqich jarayonlaridan iboratdir. Har qanday jarayon dinamikasi ish bosqichi sifatida qarash mumkin. Bu bosqichlar o‘z-o‘rnida jarayonlarni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish jarayoni qaysidir bosqichda formasini o‘zgartiradi va boshqa bosqichga o‘tadi. Tovar va xizmatlarning so‘ngi bosqichi oxirgi iste’molchi hisoblanadi ya’ni kim ularni sotib olsa egasi o‘sha bo‘ladi.

[85] Тадқиқот асосида муаллиф ишланмаси

Har bir bosqich boshqa bosqichlar bilan chambarchas bog‘liq va yuqori sifatga erishishda birga ko‘rib chiqish talab etadi va uni oxirgi iste’molchi baholasa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzasida sifatni takomillashtirishning tizimli yondashuviga quyidagilarni aytganlar “Bu boradagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda har bir turdagi birlamchi xom-ashyo, ya’ni yarim fabrikatlarni chuqur qayta ishlashdan tortib, uni iste’mol uchun tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan yakuniy bosqichga qadar butun ishlab chiqarish jarayonini kuzatib borish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Muxtasar aytganda, ishlab chiqarishni tashkil etishning butun jarayonini – xomashyoni chuqur qayta ishlashdan toki uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan yo‘lini – siklini, sarflangan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va nechog‘liq o‘zini qoplashini asoslab bergan holda, prognoz qilishni ta’minlash darkor”[86].

YUqoridagilardan kelib chiqgan holda korxona ishlab chiqarayotgan mahsulot sifatini yanada takomillashtirishda jarayonlarni alohida qismlarga bo‘lib yoki sikllarga ajratib bosqichma-bosqich uzluksiz nazoratini olib borish samarali hisoblanadi.

Bunday vaqtda, 1-rasmda[87] keltirilgan uzluksiz sifat nazoratini olib borish tizimidan foydalanish mumkin. YA’ni uzluksiz sifat nazoratini olib borishda, avvalom bor har bir tadbirni oldindan rejalash (tekshirish rejasini tuzish) so‘ng uni amalga oshirish, tekshirish natijalarini qayd etib borish va muntazam ravishda rejaga asosan faoliyatdagi harakatga muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi.

Ushbu fikrlar asosida biz ovqatlanish bosh korxonasi hisoblangan restoranlar ishida olib boriladigan brakeraj jarayonini takomillashtirishni tavsiya etamiz.

---

[86] Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг мамлакатимизни 2015-йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016-йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. http://www.press-service.uz

[87] “Out of the Crisis” Edwards Deming

